TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI

89

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI

89

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.154-1
KBK 84(5Qir)-5
Q 46

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Zuhriddin Isomiddinov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-6-2
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ZAMONAVIY QIRG‘IZ SHE’RIYATI VA UNING VAKILLARI IJODI HAQIDA

Avvalo, zamonaviy she’riyat yoki boshqacha aytganda, hozirgi she’riyat qachondan boshlanishini oydinlashtirib olaylik. Adabiyot tarixchilariga qolsa, bugungi she’riyat — mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyingi davrda yaratilgan she’riy asarlardan iborat, deb osongina hal etishlari turgan gap. Ammo 1917-yil oxirlaridan boshlab milliy adabiyotlar darrov yangi o‘zanga tushib ketmay, yana talay yillar mobaynida avvalgi yo‘sinda taraqqiy etib kelgani kabi, istiqlol e’lon qilingan 1991-yilning kuzi boshidan barcha qardosh adabiyotlarda birdaniga bahoriy kayfiyat paydo bo‘lib qolmagani ham haqiqat. Ma’lumki, so‘z san’atiga yangi ruh kirib kelishi uchun birmuncha fursat kerak. Qolaversa, u yangicha mohiyat kasb etishi uchun hamisha ham ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berishi shart emas.

Nazarimizda, 1950-yillar oxiri va 1960-yillarning boshlarida ijtimoiy turmushimizga “iliqlik”ning kirib kelishi ko‘pgina milliy adabiyotlar tarixida butunlay boshqacha davrning boshlanishiga zamin bo‘lgan. Avvalgi qo‘rquv va ta’qibdan hadiksirash o‘rnini birmuncha erkinlik egalladi, adiblar xotirjam nafas olib, dildagi gaplarni qog‘ozga tushira boshladilar. Tarixga munosabat o‘zgardi, konfliktlarni tasvirlash mumkin bo‘lib qoldi, adabiyot “proletar ishining bir parragi va vintchasi” bo‘lishdan qutulib, inson dilining, ruhiyatidagi kechinmalarning ifodachisi bo‘la bordi. Erkinlikning bo‘lishi, unga erishish barcha xalqlar adabiyoti uchun chinakam inqilobiy voqeadir.

Bu mulohazalarni keltirishdan maqsad shuki, biz hozirgi qirg‘iz she’riyati tarixini o‘quvchi ko‘z oldiga keltirish uchun ayni to‘plamni o‘sha oltmishinchi yillardan yaratila boshlagan poetik namunalarni pesh tutishdan boshlab, bugungi kunga qadar bo‘lgan namunalar bilan tanishtirishni ma’qul deb topdik, zero uning asosiy

xossalari aynan o‘sha davrdan shakllangan edi. Shior va chaqiriq, targ‘ib va tashviq zamoni ortda qolib, odmi-jaydari, biroq samimiy tuyg‘ular davri boshlandi. Avvalgi yo‘sinda ko‘p yillar ijod qilgan adiblar ham toza epkinlar tomon yuz burishdi. Hatto “yangi zamon kuychisi” bo‘lgan, o‘ziga “Balqa” (Bolg‘a) degan taxallus olgan proletar shoiri Aali To‘qamboyev ham:

Өмүр бизден өтүп кетсе,
Эл эмгектен эскерсин.

(Biz dunyodan o‘tsak, tiriklar bizni qilgan mehnatlarimiz orqali eslashsin) kabi asrlar bo‘yi unutilmaydigan samimiy misralar bita boshladi.

Hozir, XXI asrda ham qirg‘izlar orasida shoir, tug‘ma oqin ijodkorlar ko‘p uchraydi. Zero, qirg‘iz mentaliteti shundayki, so‘zga chechan, kelishtirib gapiradigan odamlar azaldan qadrlanadi. So‘zamol, shoir odamlar ko‘p uchraydi. Professional shoirlar juda bisyor. Biz ushbu to‘plamga hozirgi kunda ijod qilayotgan yoinki asarlarining ruhi ko‘proq bugungi kunga muvofiq yuzlab qirg‘iz shoirlarining ayrim asarlarini tanlab olishga harakat qildik.

Ochig‘i, orada o‘tgan chorak asrdan mo‘lroq vaqt davomida qardosh tillardan ayniqsa she’riy asarlar juda kam o‘girilgani, undan avval esa — zamon taqozosi deya — rus tili orqali tarjima qilingani, u tarjimalarda esa asarlarning milliy ruhi yo‘qolib, badiiy shiradan ham mahrum bo‘lgani bor gap. Shuning uchun ayni kitobdagi she’rlarning aksari keyingi oylar ichida shitob bilan o‘girilganini, bu vaziyatda eng yaxshi asarlarning namunalarini oshig‘ich topish va eng munosib mutarjimga tarjima qildirish imkoni bo‘lmaganini ham aytib o‘taylik.

Yaqin tillardan va ayniqsa o‘zaro juda yaqin bo‘lgan turkiy tillardan she’riy asarlarni o‘girishning bir o‘ziga xosligi shundaki, aksar hollarda asarning shakli (she’riy tuzilishi, bandlanishi, qofiyalanishi, ritmi va h. k.) uning mazmuniy jihatlariga zid kelib qolishi ham mumkin. Ya’ni mazmunni to‘la ro‘yobga chiqaraman desangiz, uning shakliga xos jozibadan voz kechishga to‘g‘ri keladi va aksincha, shakliy-badiiy unsurlarini to‘la saqlab qolishga

intilish birinchi o‘ringa chiqqan hollarda uning she’riy ruhi zaxa yeb qolishi mumkin. Ammo bu kabi mushkulliklarga qaramay, bugungi kunda — turkiy yaqinlik va birdamlik tantana qilayotgan hozirgi zamonda qardosh ellarning so‘z san’ati namunalarini o‘girishni kuchaytira borishimiz kerak; amaliyot kuchaygani sari maqbul usullar ham topila boradi, ko‘nikmalar shakllanadi, qardosh tillardan tarjima orqali yangi-yangi ifoda shakllari va so‘zlar ona tilimizga kirib keladi va uning g‘aznasi ortib borishiga bois bo‘ladi.

Bugungi qirg‘iz she’riyatidagi yetakchi tamoyil — o‘ychillik va intellektuallikdir. Bunda oqinlik she’riyatiga xos bo‘lgan pand-o‘git, dunyoni anglash va anglatishga intilish bilan G‘arb poeziyasiga ko‘proq taalluqli yangicha tafakkurning omuxta bo‘lib ketganini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy yozma adabiyot paydo bo‘lganidan beri qirg‘iz she’riyatida bir necha bor — har gal yangi iste’dod egalarining ijodi tufayli — ko‘tarilish pallalari bo‘ldi. Ayniqsa, XX asrning qirqinchi va saksoninchi yillarida. Bulardan birinchisi Aliqul O‘smonovning, ikkinchisi esa Jo‘lo‘n Mamitovning nomi bilan bog‘liq. Ularning badiiy kashfiyotlari orqali qirg‘iz so‘z san’ati yangi yuksakliklarga ko‘tarildi, milliy she’riyat har gal bir qarich yuksaldi. Biz “Turkiy adabiyot durdonalari” degan ushbu turkumda qirg‘iz adabiyoti osmonidagi bu ikki yorqin yulduzning ijodidan namunalar berdik, ammo baribir, ularning she’rlari bizga ham qirg‘iz o‘quvchisi bilan bir xil ta’sir qiladigan darajaga yetishi uchun hali ancha harakat qilishimiz kerakka o‘xshaydi. Ehtimol, buning uchun o‘girish asnosida shakliy murattablikka ko‘pam intilavermasligimiz lozimdir?

Qirg‘iziston xalq shoirlari Eseng‘ul Ibrayev, Nodirbek Alimbekov va yana boshqalarning kitoblari ko‘p xorijiy tillarga o‘girilgan va o‘z o‘quvchisini topgan. Biz uchun muhim tomoni shundaki, ularning asarlarida O‘zbekistondagi joylar, o‘zbek eliga xos bo‘lgan qadriyatlar ko‘p tarannum etiladi. Bunday she’rlarni o‘qish o‘zbek kitobxonlarini maroqlantiribgina qo‘ymay, ko‘ngillar aro ko‘prik ham soladi. Nu’mon Sa’diy “O‘lanlar”, Abdulaat Dourov “Uchliklar” va Ataqul Jaqipov “Ikkiliklar” singari yangi poetik g‘oyalarni munosib ifoda etishga qodir yangi shakllar izlab, badiiy kashfiyotlar ham qilishayotir.

Yana. Albatta, har bir shoir o‘z qalbining qa’riga har qancha nazar tashlab, barchadan pinhon tutgan fikr-o‘ylari, tuyg‘ularini bayon etmasin, u, eng avvalo, ijtimoiy fikrlovchi shaxsdir, xarakterli jihati shundaki, qirg‘iz she’riyatida ana shu ijtimoiylik fazilati, shoirning fuqarolik pozitsiyasi yaqqol bilinib turadi. Bu esa shoirning o‘quvchi bilan bevosita yaqinlashishiga yo‘l ochadi, qadrdonlashtiradi, qalamkash o‘z o‘quvchisiga tortinmay, ko‘pdan tanish bir kishiday murojaat qiladi.

Bunda esa qirg‘iz so‘z san’atining xalqaro aloqalari g‘oyat keng ko‘lamda ekanligi, folklordan yozma adabiyotga juda qisqa bir davr ichida deyarli “sakrab” o‘tilgani ham ta’sir qilgani bor gap.

O‘rta Osiyoninggina emas, butun turkiy dunyoning ham qoq markazida joylashgan O‘zbekiston endilikda turkiy taraqqiyot, turkiy konsolidatsiya lokomotiviga aylanishi mumkin, lekin bu bizning harakatimizga bog‘liq. Buning uchun nuqul Lotin Amerikasi, Irlandiya yoki Yaponiya kabi xalqlarining adabiyotidan o‘girishga ruju qo‘ymay, yaqin qardoshlarimiz tillarida barpo etilayotgan asarlar bilan yaxshilab tanishishimiz darkor.

Ushbu to‘plamdagi bir talay she’rlarni ona tilimizga o‘girgan adiblardan biri, men ilgari qirg‘iz adabiyotida shunday ajoyib shoirlar borligidan bexabar edim, bir samimiy she’rlar ekan, maza qilib tarjima qilyapman, deb yozib yuboribdi. Demak, ushbu to‘plamlarimiz qardosh turkiy adabiyotlardan tarjima jarayoniga yaxshigina bir turtki beribdi, undan ham muhimi — ish shu bilan to‘xtab qolmas ekan, endi bu tillardan o‘girish yangi bosqichga chiqsa ajab emas, deb umid qilsak bo‘ladi.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

TOSH MIYASHEV

(1931–2007)

Tosh Miyashev 1931-yilda O'sh viloyatining Qorasuv tumaniga qarashli Papan qishlog'ida tug'ilgan.

Birinchi kitobi — "To'ng'ich kuy" 1960-yilda nashr etilgan. Keyinchalik "Alvido, muhabbat", "Marhumlarga ta'zim" kabi ko'plab asarlari bosilib chiqqan.

O'RIK GULLARI

O'rik gullaganda xumor tikilsang,
Ko'nglingni yayratar nimpushti, oq rang.
Sohibkor bog'bonlar g'ayrati qaynab,
Bog'iga suv tarar, dilda xush ohang.

Ko'p o'tmay havoga to'zg'iydi gullar,
Bog' qo'yni butunlay oqlikka to'lar.
Bir chetda kuzatsang bu manzarani,
Go'yoki, oppoq qor yog'gandek bo'lar.

Gul bargi misoli oppoq kabutar,
Novdada nishona qoldirib uchar.
Yaproqlar quyoshning mehriga qonib,
Yashil quchoqlarin kun sayin ochar.

BOYDILDA SARNO‘G‘AYEV

(1932–2008)

Talasda tug‘ilgan, yetimlikda o‘sgan. Internatda tarbiyalangan. Yigirma yoshida ilk kitobi chop etilgan, hayotlik paytida qirqqa yaqin kitobi bosilib chiqqan.

Jumladan, “Dovondan bergan hisobotim” nomli she’r va dostonlari jamlangan kitobi qisqa davrda uch marta bosilgan. To‘qtag‘ul, Aliqul O‘smonov nomidagi mukofotlar sovrindori, Qirg‘iziston xalq shoiri.

CHORLAB TURAR

Soatning mili charchamay,
Aylanaverar erta-kech.
Vaqt uchadi yuz karra,
Ko‘rinmas ro‘yi ko‘zga hech.
Sen ham, do‘stim, mehnat qil,
Charchama, undan tezroq uch!

Yayrabon ishla kunda sen,
Qulf ursin dala kiroyi.
Qo‘shilib gudok tovushiga,
Olg‘alar bo‘lib el boyi.
Chorlab turar mayoqday
Ertaning tanqis chiroyi!

QIMMATSAN MENGA

Qirg‘izim, sen menga
Qimmatsan jonimdan.
Sog‘inib qolaman
Gar ketsam yoningdan.
Ko‘zimdan o‘tasan,
Rangimda qolmas rang.
Yuragim ezilib,
Ahvolim bo‘lur tang.
O‘g‘loning quchsam gar,
Quvonchga to‘laman.
Yurtning bor bolasin
Quchganday bo‘laman.
Bir bossak do‘st bilan
Makonning yo‘lini —
Qo‘ltiqlab yuraman
Go‘yo yurt elini.
Sevaman sen kabi
O‘zgalar tog‘larin,
Baland-past yo‘llarin,
Dalasi, bog‘larin.
Sevaman ko‘llarin,
Tog‘lari to‘rini.
Yuraman ardoqlab
Elini, yerini.
Sen mening o‘z elim,
Ildizim, tutaman.
Sen bergan kuch bilan
Maqsadga yetaman.
Boshqa elni sevganki,
Sevar xo‘p o‘z elin.
Bu so‘zda bor ulug‘
Haqiqat, der dilim!

MARSGA

Porillab yonib turasan,
Yolqinlar sochib ko‘zingdan,
Ko‘kimtir samo qo‘ynida.
Bir xabar berib o‘zingdan,
Olamga tolmay boqasan,
Kuzatib bahor, qishlarin...
Maqtaysanmi yo sen ham
Yerlikning qilgan ishlarin?
Qa’rida qancha asrlar,
O‘zgartmaysan turingni...
Yoningga borib so‘rasam,
Yashirmassan siringni?
Aytarsan ichda o‘ylanib,
Odamzod menga yetsa deb,
Qalbimda yotgan sirimni
Erta olib ketsa deb!
Dardingni uqar odam men,
Mars, oqin qaytmas so‘zidan.
Po‘lat qush minib boraman
Olatovning o‘zidan!

TO‘QCHILIK

— Cho‘ldayam bog‘ bo‘lurmi? —
Ishonmasang borib ko‘r.
Odam ko‘nglin to‘q qilib,
Tugasin deb yo‘qchilik,
Ovul kezib yuraver
Oti ulug‘ — to‘qchilik.
Osh-u nonni ko‘p qilib,
Do‘st-yoronni to‘p qilib,
Doim birga bo‘laylik,
Nari ketma, to‘qchilik.
Bo‘lsang, bo‘lmas suq qiliq,
El koyitmas yo‘qchilik.
Tinch yashashni xohlagan
Elda bo‘lgin to‘qchilik!

BULOQQA

Shoshilib suving chopadi,
Ariqlar ichra jildirab.
Omonman mana deganday
Oqasan, buloq, shildirab.
Bilarsan, bola kezimda
Ko‘p marta seni bo‘yladim.
Ovora qilib oqiming,
Tegirmon qurib o‘ynadim.
Ko‘lchangda qo‘g‘oz qayig‘im
Suzibon xursand etgandan,
Ko‘ylakni yechib yalpizga
Cho‘mildim isib ketganda.

TENGDOSHLARIMGA

Aylanayin tengdoshlarim, azizlar,
Shoir bo‘lib ketdim, buni bilinglar.
Hunar, kasb egallay deb yosh kezdan
Havas ila ancha mehnat qildinglar.

Biroq hamon oranglarda yo‘q emas
Bilimi past, so‘zi bitmas odamlar.
Maslahating ta’na deya tushungan,
Iltimosni buyruq bilgan nodonlar.

Aljirama, nasihating kerakmas,
Bilimi oz ucharmidi yelga der.
Nomi chiqqan oqin bo‘lib doimo
Yaxshi yozgin, foyda qilsin elga der.

Tengdoshlarim, bu hayotga keldikmi,
Barimiz teng qo‘l cho‘zaylik yulduzga.
Yangi shoir, ilmlilar ko‘paysin,
Bitta shoir ozlik qilar qirg‘izga!

DONG‘ING OSHSIN, OLATOV!

Qo‘y boqib beri-nari,
Qo‘shiq aytsa Murot qari,
Quloq solar ixlos qo‘yib
Olatovning qoya, jari:

“Ey, Olatov, quloq sol,
So‘ylayotur Murot chol.
Mendan zo‘r, sarbalandsan,
Tong otganda ketib tun —
Nurga ko‘mib qoya-toshing
Senga oldin tegar kun.

Bo‘y bo‘yicha sen baland,
O‘y bo‘yicha men baland.
Ey, Olatov, quloq sol,
So‘ylayotir Murot chol.

Oz ko‘rmading, ko‘p ko‘rding,
Esingdami o‘tgan kun?
Tik cho‘qqingda o‘tirib,
Mungli qo‘miz chertgan kun?

Muz aralash mo‘ngiga
Mungli yoshlar to‘kkan kun?
Ey, Olatov, quloq sol,
So‘zlayotir Murot chol.

G‘ing‘ir-g‘ing‘ir kuylasam,
Sen qo‘shilib kuylading.
Tole topmay yig‘lasam,
Sen qo‘shilib yig‘lading.

Boshdan ancha ish o‘tdi,
Ko‘r zamona, tig‘lading...
Ey, Olatov, quloq sol,
So‘zlayotgan Murot chol.

Sen ham qari, boshing oq,
Men ham qari, sochim oq.
Armon bilan, zor bilan
O‘tib ketdi yoshlik, oh!

Endi qara, yashash zo‘r,
Bizdan qayg‘u, g‘am yiroq.
Boylikka boy saltanat,
So‘zlayotgan Murot chol.

Seni qo‘shib kuyladi
To‘rg‘ay unli oqinlar.
Ne qilaman qaytalab,
O‘zing ko‘rding, o‘syapman,
Tog‘ taraf-u soy taraf.

Hayot yangi, biz yangi,
Mehnat qilish shon-sharaf!
Seni ko‘rkka chulg‘adi,
Ey Olatov, quloq sol,
O‘g‘il-qizing, oqillar.
Dong‘ing oshsin, Olatov,
Bunga to‘la haqqing bor!

BIZ QOLDIK...

Sen ham suyding Aynashni,
Men ham suydim Aynashni.
Kam edikmi – bir yigit
Oramizga joylashdi.

Ming yolvorib, yalinib,
Necha xatni sen yozding...
Ko‘z o‘tidan ilinib,
Necha xatni men yozdim..

Biroq, suluv bizlarni
Sevaman deb aytmadi.
Sevmayman deb sizlarni,
Aytib yo‘ldan qaytmadi.

Ololmay aniq javob,
Armon qilib tush ko‘rdik.
Yuraklar bo‘ldi kabob,
Goho chuqur ushkurdik.

Vaqt o‘xshadi qushga,
Oy qaritdi tirakni.
Aynash chiqdi turmushga,
Achishtirib yurakni.

Ichi torlik qildik biz,
Sevgidan saboq oldik.
Sevganiga ketdi qiz,
Yugurib, quruq qoldik...

O‘ZING BORIB KO‘RIB KEL

“Go‘zal derlar qirg‘izning yerin, ko‘lin,
Tasvirlab ber tushgunicha u yoq yo‘lim...”
Deding-da xaritadan ko‘zni olding,
Sen, shoiri bovurdosh venger elim.

Opketaman yurtimga tamom u kun,
Naq o‘shanda ko‘z solib biladursan ko‘lin.
Yaxshimikin vatanim, yomonmikin...
Ko‘z suqlanar yeri bor, qirg‘izning, yo‘lim...”

Tovlanadi tovusday — koni hisning.
To‘lqin otgan ko‘li bor bamisoli
Yuzidagi xoliday suluv qizning.
Do‘stim, ora oz qolgan yozga yukun,
Qolganini o‘zing borib ko‘rib kelgin,
Ota yurtim qanaqa, shunda bilgin!

QIRG‘IZ QALPOG‘I

Ko‘z tashlasam olisroqdan,
Qalpog‘i o‘xshar tog‘iga.
Qanday chevar tikdiykin
Ko‘rk berib so‘l-u sog‘iga.

Ul chevar agar sen bo‘lsang,
Qo‘zg‘ading, suluv, sir, hisni... —
Mengayam bitta tikib ber,
Qalpog‘in kiyay qirg‘izning!

Ovul-u shahar kezganda,
Odimim o‘xshab odimga.
Ardoqlab suygan vatanim —
Olatov tushsin yodimga!

ONAMGA

Ko‘k maysa bosgan qabringga kelib,
Turibman – kiprik yoshimdan ilib.
Ko‘tarib, boqqan ardoqli onam,
Quvon o‘g‘lingning borligin bilib.

Kipriging qoqmay, yumilib ko‘zing,
Qoldirding yetim qarg‘aday kezim.
Qachon bo‘lsa ham yodimda turar
“Qarog‘im” degan mehrli so‘zing.

Siymoying so‘nib, bitgan yo‘q, ona,
Oq suting og‘izdan ketgan yo‘q, ona.
“Elingni suy”, deb eslatgan gaping
Unutmam, saqlab yurgim shohona.

Meni aylagan mehnating paydo,
Oqlayman bu bosh bo‘lmasin qayda.
Bo‘lurmi qalbing rizo, onajon,
Men elimga keltirsam foyda?

SENGA

Goho suyub men seni erkalatsam,
Bolamidim, qo‘ying, deb aytadursan.
Ko‘rinsang ham sen katta boshqalarga,
Menga go‘yo goho bola paytdadursan.

Og‘iringga ko‘nikib ketganim chin,
Oyoq-qo‘lim joyida, jonim jonday.
Men uchun yengildirsan doim, jonim,
Bir tutam gul solmog‘i bo‘lsa qanday.

Erkalatdi ona-ota bolalikda,
Chora yo‘q ul kunlarga rov qaytishga.
Bo‘yga yetdik, bu kunda haqimiz yo‘q,
Yana ko‘tar, meni suy, deb aytishga.

Erkalatgum, boladay gulim seni,
Erkalatib suya bil — yoring so‘zi.
O‘ylab ko‘r, suyadigan sen-u meni,
Ikkimizdan boshqa jon bormi o‘zi?

QAYSI SENING DERAZANG?

Nomin bilgum sen yashagan ko‘chaning,
Uying qaysi — sal bexabar ekanman.
Birga borib ko‘ray devdim kinoni,
Endi seni qanday topar ekanman?

Uy raqaming sakkizmi yo saksonmi?
Ko‘cha kezdim, ich-ichimdan oh keldi.
Yo bo‘lmasa to‘qson beshmi, to‘qsonmi?
Aniq bilmay horiydigan chog‘ keldi.

O‘tgan kuni anavi uy oldida
Turgan eding qizlar bilan birga san.
Ox, o‘shanda qandayin soz bo‘lardi,
Gulim, aniq manzilingni ber desam!

Bosh qotdi-ku oynalarga ko‘z solib,
Bo‘lmasmidi ko‘chaga bir qarasang.
Xafa qilmay, o‘zing kelib aytib qo‘y,
Qora ko‘zim, qaysi sening derazang?

Men shaharmas, qishloq joyda o‘sganman,
Qiz uyini izlab bo‘lmas, dil xasta.
Yo‘q bo‘lsa ham uylarimiz raqami,
Yigit topar suygan yorin birpasda.

Ko‘z toldirib, topaman deb uyingni,
Ko‘cha bo‘ylab kezib oxir tolaman.
Ikkinchi bor uchrashganda, albatta,
Manzilingni aniq yozib olaman.

Shunday qilgin, yigit, sal yoshlik qilib,
Qiz uyini bilmay izlab charchading.
Shahar kabi qishloqlarda bir kuni
Raqam bo‘lur uylarida barchaning!

ONA TILING YAXSHI BIL

Mo‘ldabek — tog‘ muhandisi —
Ruscha so‘zlaydi rosa.
“Privet!” deb qo‘l berar
Tanish-bilish uchrasa.

Agronom Duysha yaxshi
Bilmas garchi ruschani —
Qishloqda tug‘ilsa ham,
Oz so‘zlar qirg‘izchani...

Farzandlari ularning
Kuzat, qanday o‘sishar...
Ota uyga kelganda
“Papa”lashib to‘sishar.

Ruslar tili yulduz-da
Bizning ushbu zamonda.
Biroq qirg‘iz qirg‘izcha
So‘zlamasa yomon-da!..

Ona tilin bilmagan
Bo‘lur nodon, chulchut, kas.
O‘z tilini suymas jon
Elin sevib yolchitmas!

SEVGANIM

Esli bo‘lib, donoman deb aytmasa,
Maqtanmasdan, mag‘rurligin tashlasa,
Og‘ir-bosiq, esli bo‘lib har qachon,
Hurmatlasam, hurmatlashni boshlasa.

Ko‘rgan joydan kulib qarab, jilmayib,
Ko‘nglingni hech qoldirmasa, qoqmasa.
“Falonchining sevganiday qiz yo‘q”, deb
El-u yurting, o‘rtoqlaring maqtasa.

Ham ishonib bergan onting, siringni
Umr bo‘yi yuragida saqlasa.
Qalbidagi senga bo‘lgan sevgisi
Qaynoq bo‘lsa, tiniq bo‘lsa, top-toza.

Shunday bo‘lsa, armon bo‘lmas yigitga,
Sevgan yoring shularni gar bajarsa.

OQPARI

Qadrlaydi yosh-qari,
Kolxozchi qiz Oqpari.
Tog‘day uyub qo‘yibsan,
Qordan oppoq paxtani.

Turishing oyday go‘zal,
Ishing suluv yuzingday.
Mehnat kuning tizilar
Pishib turgan uzumday.

To‘p-to‘p qilib dalaga,
Tog‘ yasading paxtadan.
Ko‘zlarim qamashadi,
Qarab tursam pastda man.

Har dam ko‘rib tursam deb,
Senga bo‘ldim o‘yimni.
Mashina deb o‘ylabman
Paxta tergan qo‘lingni.

Kundan kunga dong‘ingni
Kuchayta ber, Oqpari.
Bari senday mehnatkash
Gul o‘lkaning yoshlari.

TO‘QTAG‘ULGA

Minglab go‘zal kuy, qo‘shiqlar seniki,
Tog‘ bulbuli, sening isming yurakda.
Qo‘shig‘ing — o‘q, teshdi manap[1] o‘pkasin
Qo‘mizingni nayza qilding kurashda.

Zolim yirtqich, zahrin sochdi ilonday,
Og‘usiga qaramading, to‘smading.
Ajal quvib tursa hamki bir o‘zing,
Biz yashagan nur zamonni qo‘msading.

Kekkayishgan eshon, xo‘ja, mullaning
Ochiq aytding ochko‘zligin, suqligin.
Ko‘k osmonda charx urayotgan burgutday
Ko‘ra bilding kelajak buyukligin.

Ijodingga “xo‘p” qarshilik ko‘rsatdi,
O‘ch bo‘lishdi, o‘zing aytgan “Besh qobon”[2].
O‘tkir aql, g‘ayratingga chek qo‘yib,
Hayotingni xavfga qo‘ydi u zamon.

Kuy-qo‘shig‘ing ko‘nglin yozib elingni
Tinch hayotda ularga darmon bo‘ldi.
Kuylaydigan zamon yetib kelganda
Bulbulim,
Bu dunyodan qaytganing armon bo‘ldi.

Bizda qolgan qo‘shiqlaring tomchisi,
Oltin so‘zlar o‘zing bilan ketdi birga.
Oz bo‘lsa ham, ko‘pdan ortiq baholaymiz,
Ijodingni barcha millat oldi tilga.

---

[1] **Manap** — boylar.

[2] **“Besh qobon”** — To‘qtag‘ulning hajviy she’riy dostoni.

QIZIL GUL

Qirlarda qizil gul turar,
Qiziqtirib qulf urar.
Odamni tortib o‘ziga
Atir hidi burqirar.

Yuragim o‘sha gul uchun
Oshiqib urar tun-u kun.
Ko‘zguday tiniq, oydan oq
Gulda zo‘r mening umidim.

Sog‘inch-la boqib dildorga
Tushimmi yo o‘ngimmi?
Qadrin bilib sevganman
Qop-qorako‘z tengimni.

O‘shadir qalbim topgani,
Yuragim demas boshqani.
Sevgining kuchi alomat
Mavj ursa, buzar asqani[1].

Zamonam rizqli, mevazor,
Erkin o‘sdik, bo‘lmay zor.
Qizil gul, deb aytganim
Zamondoshim Gulbahor.

[1] **Asqa** — qoya.

QADRLISIZ

Oz emas dunyo yuzida,
Olatov, senday yerlar ko‘p.
Oz emas dunyo yuzida,
Issiqko‘l, senday ko‘llar ko‘p.

Sendan go‘zal joylarni,
Men ko‘rdim qancha yerlarni.
Hatto tiniq sendan ham
Men ko‘rdim qancha ko‘llarni.

Biroq sen menga, Olatov,
Qadrlisan tuqqan onamday.
Biroq men seni, Issiqko‘l,
Suyaman qarindosh opamday.

Sababi, senda, Olatov,
Men o‘sgan el — qirg‘iz bor.
Suyaman seni, Issiqko‘l,
Suygani uchun qirg‘izlar.

BULBULNING JAVOBI

— Bulbul, qayga borasan?
— Betpaq[1] cho‘lga boraman.
— Cho‘lda o‘lib qolasan!
— O‘lmas yerni topaman.

— O‘lmas yering qaysi yer?
— Bog‘ o‘stirgan bizning el.
— Cho‘lda haṃ bog‘ o‘sarmi?
— Ishonmasang, borib ko‘r.

— U yoqdan neni izlaysan?
U yoqda nima qilasan?
— Kuylayman yer-yerlarda
Cho‘l yashartgan ellarga.

[1] **Betpaq** — cho‘lning nomi.

SHERNING JAVOBI

Qishloqda ham, sirtda ham,
Ko‘p o‘ynab, ko‘p kulmagan,
Ashimning odati bor
Ochiqlikni suymagan.

Kuchli hazil so‘z bo‘lsa,
Biroz qo‘yar jilmayib.
Sherga aql o‘rgatar
Qolgansimon ulg‘ayib:

— Senga hech tushunmayman,
Doim ochiq yurasan.
So‘zing-la bolalarni
Kuldirasan, kulasan.

Ma’qul desang, Sher ukam,
Menday kamgap bo‘lib ko‘n.
Kattalarday o‘zingni
Tuta bilgin hozirdan.

Javob berar Sher darrov:
— Quvnoq bo‘lib o‘saman.
Kulmasdan qanday turaman?
“Kulgin”, deb tursa zamonam.

YOLG‘IZ EMASMAN

Goh-goh kelib yonimga,
Ko‘zingiz namlanar, onajon.
— Jonkuyar og‘a-ining yo‘q,
Yolg‘izsan,— deysiz, onajon.

Og‘adan ortiq og‘am bor
Doim meni qo‘llagan.
Inidan ortiq inim bor
Yiqilib ketsam suyagan.

Baxtiyor ushbu o‘lkada
Tarbiya olib o‘sganman.
Dunyoda tuvg‘on[1], do‘stim ko‘p,
Onajon, yolg‘iz emasman.

[1] **Tuvg‘on** — qarindosh-urug‘.

TUG‘ILGAN YER

Olisga jo‘nar kezimda
— Olgin, — deb, — meni esingga
Onamday suyib — tug‘ilgan yer
Gulingni taqding to‘shimga.

Kipriklarin tinmay qoqib,
Oy, yillar o‘tdi. Men bugun —
Oshiqib seni hidladim,
Saqlar edim u guling.

Charchagan edim ko‘p yurib,
Dam oldim darrov kuch kirib.
Sovqotgandim ayozdan
Ilidim darrov bo‘y kerib.

Sababi, yerim, men uchun
Ayamay ko‘p shart tuzibsan.
Iliqlik bilan quvvatni
Gulingga qo‘shib beribsan.

MEN KIMMAN?

Men kimman, men bir shoir, yomon, sariq,
Qo'limda maqtanganday qalam sopi.
Onajonim eplab tug'ib qo'ysa kerak,
Qirg'izda ko'paysin, deb odam soni.

Kitobda she'rlarimning nochori ko'p,
Qo'rqaman, elga yetmay qolarmi deb.
Gohida ko'k bozorga boraman men
Savdogar nosvoy o'rab sotarmi, deb.

Chindan ham asarlarim chatog'i ko'p,
Yaxshisini yaratishning azobi xo'p.
Kez-kezda qishloqqa ham boraman men
Birovlar kesib, yirtib yoqarmi, deb.

Men kimman, men bir shoir, yomon, sariq,
Qo'limda maqtanganday qalam sopi.
Quvontirsam, deyman, ishim, she'rim bilan
Qirg'izni, qirg'iz suygan zamonani.

JALOLOBOD

Oq oltinga usti boy,
Qora oltinga osti boy.
Yozuvchilar aytganday,
Tuganmas yong‘og‘i bor —
Jalolobod yaxshi joy.

Tog‘ qo‘ynida ko‘li bor,
Keng ko‘ngilli eli bor.
Mehnat botirlari ko‘p
O‘sha yoqda, ko‘rib ol.

Sevgan yigit qizg‘anar,
Suluvi bor suqlanar.
Kuzda qo‘li bo‘shamas —
Kutib turib, qishda bor.

Mevalarning makoni,
Yerning zo‘ri u yoqda.
Ko‘p ishlar bilimdoni —
Elning zo‘ri u yoqda.

Oq oltinga usti boy,
Qora oltinga osti boy.
Ko‘ngling tortsa erta yet —
Jalolobod go‘zal joy.

O‘SH

Qirg‘iziston xo‘p so‘lim,
Anchasidan O‘sh so‘lim.
Ko‘nglim to‘lib, quvonib,
Ko‘p yerda topdim qo‘nim.

Boyliklarin sanasang,
Bosh aylanar sanashdan.
Jalolobodda̧n kam qolmas,
Konlari, ham paxtadan.

Ta’msiz bo‘lar aytganim,
Lof bo‘ladi yozganim.
Atagandan ne foyda
Har turli joy nomlarin.

Ko‘p yerlarni tanlagan,
Tanlab O‘shni saylagan.
Bobolarga aylandim
Dehqon bo‘lgan qadimdan.

Qirg‘iziston xo‘p so‘lim,
Anchasidan O‘sh so‘lim.
Aylanib ko‘p joylarin
Markaziga to‘xtadim.

Tanam yayrab izzatdan,
Bitdi kam-u ko‘stlarim...
“Choy iching”, — deb turishar
Do‘ppi kiygan do‘stlarim.

DO‘STLARIMGA

Yaxshi do‘st jonga malham,
Xafa ko‘ngling shod bo‘lar.
Senga yomon so‘z bo‘lsa,
Aytganlarga yot bo‘lar.

Yomon do‘st borda inoq,
Shirin tilin bol qilar.
O‘zing yo‘qda yomonlab
G‘iybat qilib shol qilar.

Qo‘llar ekan gohisi,
Omad unga boqsa, deb.
Xohlar ekan gohisi,
Jardan uchib ketsa, deb.

Lekin hammangiz yaxshisiz,
Qalbingizda olov bor.
Sizlar bilan do‘st bo‘lgan
Baydildaga siylov bor.

Aylanayin do‘stlarim,
Qaytmayman hech ontimdan.
Hisobingni ko‘paytib,
Yursam bo‘ldi ortingdan.

KO‘KLAMDA

Ko‘klam kelsa, ko‘piklanib, suv kirar,
Suv kuchidan guldurab toshlar oqar.
O‘rkachlanib oqayotgan to‘lqinlar
Hayot kuchin alp ekanin bildirar.

Ko‘klam kelsa, kunga boqib, gul kular,
Gulni ko‘rib, bulbulga ham til kirar...
Hamma yerda muhabbatning mavsumi
Rohat berib, boshlanganin bildirar.

Ko‘klam kelsa, traktorlar kun-u tun,
Tutun purkab, cho‘lda qo‘riq ochadi.
Qanot qoqib to‘rg‘ay sayrar samodan,
Qizg‘in mehnat dovrug‘ini sochadi.

Ko‘klam kelsa, yalqov Janay mudraydi,
Ko‘zin ochmay uxlagani kuydirar.
Olma tushmas, og‘zing katta ochsang ham,
Mehnat qilsang, mehnat qorning to‘ydirar.

Ko‘klam kelsa, yotib olmay sulayib,
O‘tgan yilgi eskilarin tozalar.
Sug‘ur ham o‘tiribdi so‘rrayib.
Ishni qilib, o‘z inining og‘zida.

ISSIQKO‘L

Bunday ko‘lni kim ko‘rgan?
Unutolmas bir ko‘rgan.
Ingrab kelgan bemor ham
O‘ynab ketar bu ko‘ldan.

Bunday yerni kim ko‘rgan?
Yeta olmas suygandan.
Yig‘lab kelgan bemor ham
Kuylab ketar bu yerdan

Kundan kunga ko‘rk olib,
Suluv bo‘lib boryapsan.
Qirg‘iz qolib, boshqaga
Issiq bo‘lib boryapsan.

Senda suzgan ko‘p el bor,
Ichi tor bor, saxiy bor.
Zamzam bo‘lsang chinnida
O‘g‘irlab ketsam, degan bor.

Qo‘l idishga sig‘maysan,
Zo‘r idishga sig‘maysan.
Yer idishda turibsan,
Boylik, merosim sensan,
Kuchim, qudratim sensan.

TIRIK TARIX

(Manaschi Sayaqbay Qaralayevga)

Qadimiy grekning Gomerin
Ko‘rmadik, kitobdan o‘qidik.
Hozirgi qirg‘izning Gomerin
Yurarmiz qo‘shilib, ko‘p ko‘rdik.

Bilmaganga chetdan qarasa,
Yurgan bir oshiqday qariya.
Bilganga ko‘p elni qondirgan
Ertakdan yaralgan daryo.

Gohida o‘zimcha o‘ylayman,
Bu odam odammi, boshqami?
Qanday sig‘di ekan boshiga
“Manas”ning million satrlari.

Tuzalmas dard kelsa umrga,
Toparmiz sog‘aytar dorini.
Biroq biz topmaymiz yo‘qotsak,
Sakem[1]day ummon qarini.

Afsus, u horidi, qaridi,
O‘chmasin so‘zining yolqini.
Yashasin qirg‘izning Gomeri!
Yashasin eng tirik tarixi!..

[1] **Sakem** — Sayaqbayning qirg‘izcha erkalatib aytilgani.

AMUDARYO

Burqiraysan ko‘pik sochgan bo‘g‘raday,
Asovsanmi yoniga jon yo‘latmas?
Och qo‘yningni, to‘lqiningda suzayin,
Amudaryo, sariq daryo menga o‘xshash.

Gulga belab Turkistonning dalasin,
Tinim bilmay kun-u tuni oqasan.
Qisiq joyga olg‘ir burgutday kirib,
Yalanglikda qanotingni yoyasan.

Zamonida Oqqula[1]sin yeldirib,
Necha senday daryolarni hatlagan,
Buxoroga kuyov bo‘lib alp Manas,
Qanikeyga umr yo‘lin atagan.

Mumkin Manas seni kechib o‘tgandir,
Oqizasan, bo‘lsa hamki tog‘-adir.
U vaqtda tulporlar ham zo‘r edi,
U vaqtning alplari ham zo‘r edi.

Alp Manasning urug‘iman men o‘sha,
Toshqinlarni to‘svoraman qo‘yib tosh —
Och qo‘yningni, Oqquladay suzayin,
Amudaryo, sariq daryo menga o‘xshash.

[1] **Oqqula** — Manasning oti shu nom bilan ataladi.

CHINGIZ VA MEN

— Chingiz qani?
— Moskva, Berlin, Londonda.
— Nimaga ketdi?
— Bir muhim masala bor ekan.
— Baydilda qani?
— Mol yoyilgan tog‘larda.
— Nimaga ketdi?
— Tuz berib yurar qo‘ylarga.
— Chingiz qani?
— Praga, Parij, Rimda.
— Nimaga ketdi?
— Xalqaro adabiyotning ahvolini bilishga.
— Baydilda qani?
— Talasdagi uyida.
— Nimaga ketdi?
— Tamaki uzishga, loviya terishga.
— Chingiz qani?
— Jakarta, Qohira, Jazoirda.
Amerikaga borar ekan birida.
— Nimaga ketdi?
— El bilan uchrashadi
Shu kunda.
Yaxshi yozuvchi bilan
Barcha elning joni birga.
— Baydilda qani?
— Bugun Toshkentda.
Ertaga borar Botkenga.
— Nimaga ketdi?
— Suv ombori qurishadi
Suv yetmagan qoq yerga.

— Chingiz qani?
— Varshavada, Bag‘dodda.
Ko‘p el chaqirgan ekan har yoqdan.
— Azamat ekan!
— Azamatligi yozganining salmog‘ida.
— Baydilda qayoqda?
— Olcha terib yurar chorbog‘da.
Yaqinda qizilcha qazishib,
Paxta terimga bormoqda.

— Chingiz qaysi xizmatda?
— Chet elda xizmat bajarar.
— Baydilda qaysi xizmatda?
— Uy tirikchiligini, xo‘jalikni boshqarar.
Chingiz dunyoni qidirar.
Qirg‘izga obro‘ to‘play, deb.
Baydilda tog‘da o‘tirar,
Tog‘larni ko‘zi qiymasdan:
— Tog‘ siljimasa,
Men ham siljimayman, deb.

Chingizni qirg‘iz ko‘tardi,
Qirg‘izni Chingiz ko‘tardi.
Biriktirib
Ahil turmush ko‘tardi.

Yaxshi tilak, yaxshi so‘z
Ikkoviga qut bo‘lsin.
— Baydilda ham ko‘p elga
Borganni yomon demasdir.
Oqinlarday she’r yozar
Bo‘lmasa ham zo‘r, o‘tkir.
Uzoqqa bormay yurganiga
Biror narsa sababdir?
— A, mumkin, Chingiz chetda yursa,
Qishloqqa ham odam kerakdir.

BILMAGANLAR

Bilmaganlar millatchi derlar,
Millatini suymaydi kimlar?
Go‘daklikdan berdi yo‘llanma —
Ko‘kka qarab otdim odimlar.
Qirg‘iz deb kelganman dunyoga,
Qirg‘iz deb ketarman dunyodan.

To‘lqinlanib baland ovoz-la,
To‘planishib, suhbat qurishgan.
To‘qson ming to‘siq bo‘lsa-da,
To‘foncha ko‘rmay surishgan.
Do‘stlik, deb kelganman dunyoga,
Do‘stlik, deb ketarman dunyodan.

MUZLIK VA QARIYA

Kuchga to‘lgan shiddatli bu daryolar
Kecha-kunduz qanchalab yo‘l bosadi.
Ular bilar bu cheksiz kuch-quvvatni
Tog‘lardagi muzliklardan oladi.

Xomsemiz, gohi ko‘pgan yigitlar,
Chol gapirsa, qulog‘iga olmaydi.
Dono fikr, nasihat-u tajriba
Qariyalardan chiqishini bilmaydi.

Erimasa tog‘lardagi muzliklar –
Suv ko‘p joyda cho‘llar gullab-yashnagan.
O‘lmasaydi o‘rnagi ko‘p qarilar,
Yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan boshlagan.

BULBUL BILAN SHOIRLAR

Go‘zal o‘rmon, gul bog‘chani qidirib,
Sen bulbulning o‘zin ko‘rmay kuyin uq.
O‘zin ko‘rsang, hafsalang pir bo‘ladi,
Barmoqdayin ko‘rksizgina bo‘z chumchuq.

Qalbingga bir sokinlik kiradi,
Sen shoirning she’rin o‘qib, she’rin uq.
O‘zin ko‘rsang, oddiygina bir odam,
Ko‘rgan yerdan ketging kelar burilib.

Ilgaridan poeziyaga maftun el,
Shoirlarni bulbul, deydi yosh-qari.
Bulbul bo‘lsa, nimagadir ularning
Biri yomon, biri yaxshi yozadi.

Har kim aytar o‘qib, uqib, bilganin,
Men doimo jar solaman ko‘rganim.
Shoirlarning chalasini ko‘rsam ham,
Bulbullarning chalasini ko‘rmadim.

ALP TALANTGA

Talas desam, Manas kelar o‘yimga,
Manas desam, Talas kelar o‘yimga.
Tug‘ilgan yer, tug‘ ko‘targan alp otam
Hech tuganmas ilhom berar kuyimga.

Qirg‘iz desam, Chingiz kelar yodimga,
Chingiz desam, qirg‘iz kelar yodimga,
Qirg‘izim deb, Chingizim deb kuylasam,
Quvongandan yosh keladi ko‘zimga.

Bobom Manas shon-shuhratga burkalib,
Oqqulasi dong taratib o‘tsaydi.
Chingiz og‘am dunyo eliga yoqib,
Alp talanti o‘sgan sayin o‘ssaydi.

Hozir Chikem[1] oltmishga endi chiqdi.
Ota yurtning farzandi omon bo‘lsin!
El g‘amida ijod qilgan talantimiz
To yuzgacha o‘z yurtida yayrab yursin.

Haqiqatan Chingiz talant... u Chingiz-da,
Yozganlari chiqib ketdi yulduzga.
Xohlaganda qayon borsa, o‘zin erki,
Beshigi bor, o‘z uyi bor qirg‘izda.

[1] **Chike** — Chingizning qirg‘izchada erkalatib aytilgani.

SEN MENGA BIR XAT YOZ-CHI

Sen menga bir xat yoz-chi,
Erkalanib, qiz vaqtingni eslatib.
Tanishgan kez bahormi yo yozmidi?
Maza qilay ko‘z oldimdan o‘tkazib.

Sen menga bir xat yoz-chi,
Eslayin-chi yigit qilib o‘zimni.
Ko‘rsam yana ko‘rgim kelar qaytadan
Qulundayin bola hidli kezingni.

Sen menga bir xat yoz-chi,
To‘ydan keyin yozmay qo‘yding, oltinim.
Ulg‘aydingmi?... Ulg‘aysang ham men uchun
Hali yoshsan, ko‘rinasan qiz doim.

Sen menga bir xat yoz-chi,
Birga yotib, birga yurib, tursam ham,
Yodga kelsin o‘sha shirin lahzalar,
Arazlab, bolacha suyunganing ham.

Sen menga bir xat yoz-chi,
Ish joyingdan, yo uydanmi, tog‘danmi.
Yodga olay sevgi bizni yetaklab,
Past-balandga olib yurgan yo‘llarni.

Sen menga bir xat yoz-chi,
Ilgarigiday chiqarmikin so‘zlaring?
Boyagiday xat ichidan sog‘inib
Qarab turarmikin qora ko‘zlaring?

Sen menga bir xat yoz-chi...

QARMISHOQ TOSHBOYEV

(1935–2018)

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, J. Mamitov nomli adabiy mukofot laureati Qarmishoq Toshboyev Qirg'iziston davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgach, "Lenin jolu" gazetasida dastlab tarjimon, keyinchalik adabiy xodim bo'lib ishladi, shuningdek, "Qirg'iziston pioneri" gazetasining O'sh viloyati bo'yicha muxbiri bo'lib turdi. 1976–1991-yillarda Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasining O'sh viloyati bo'limida mas'ul kotib vazifasida ishladi.

Q. Toshboyevning "Qirg'iz tog'lari", "Mening bahorlarim", "Yo'nalish", "Davr kuyi", "Vaqt — tulpor", "Qanotli tog'lar" kitoblari chop etilgan. Jahon adabiyotidan bir qancha tarjimalarni amalga oshirgan.

BOLG‘A

(Masal)

Tunuka, Sim va Mix
O‘zlarini dono bilishib,
Bolg‘aning qulog‘in qizitib,
O‘tirar g‘iybat qilishib:

— So‘nggi paytlarda ancha
Hovliqib qoldi Bolg‘a.
Chek qo‘yish kerak
Bu zararli holg‘a.

Ish bitsa bo‘ldi deb,
Qarsillatib solar boshga.
Muloyimlikni kasb etmasa,
Bir kun peshonasi tegadi toshga.

To‘g‘ri kelgan joyga qoqib,
Ba’zan devorni buzadi.
Butoqqa qadalib qolsam,
Ombur bilan qalpog‘imni uzadi.

— Gaping to‘g‘ri, uka, —
Ma’qullaydi Tunuka. —
Meni cho‘tir qilgan,
Simni qo‘tir qilgan,
O‘sha esi past Bolg‘a.
Uning ustidan yozamiz
Duradgor cholg‘a.

* * *

Qissadan hissa shulkim,
Bu kabi g‘iybatlar uchadi yelga.
To‘qmog‘i kuchli bo‘lmasa,
Kigiz qoziq ham kirmaydi yerga!..

MO‘JIZALAR

Bahor keldi, shoxda kurtak jilmayib,
Har narsada yashash zavqi ustuvor.
Vertolyotcha — ninachining zabtidan
Mayingina chayqaladi maysazor.
Ajab!
Subhidamni sarxush etib kuylashni
Kimdan olgan to‘rg‘ay degan jonivor?!

Shodlik nuri ruxsorimda mujassam,
O‘tib borar masrurlikda kunlarim.
Muhabbatning mevasidir go‘daklar,
Bolakaylar terar tog‘ning gullarin.
Ajab!
Ustozi kim bo‘ldi ekan bulbulning? —
Ming bir usul bezab turar kuylarin.

Odam nasli zakovatning ganjidir,
Bu olamga cheksiz kenglik taralgan.
Turfa hidlar anqib tursa gullardan,
Sarxush tuyg‘u kelar esgan shamoldan.
Ajab!
Mangulikka hadsiz yukni ko‘targan
Bu alp Yer, bilmam, qanday yaralgan?

Umrimizdir soniyalar tuhfasi,
Turmush bergan shoirga she’r nusxasin.
Mehnat asli farog‘atning boisi,
Er yigitga eshdir elning duosi.
Ajab!
Mangulikka boshimizni silagan,
Manbayi ne bobo Quyosh ziyosin?

CHOYXONADA

Qo‘r to‘kishib farishtadek nuroniylar,
O‘ltirishar turnaqator chorpoyada.
Dasturxonda qaynoqqina tandir noni,
Qarilikning gashti shunda — xush soyada.

Chollar bunda, yosh-yalangi dala-dashtda,
Keksalarga e’zoz — ko‘hna udumlari.
Choydan iching, olib turing payrovdan ham,
Shunday yashar bu vodiyning mardumlari.

Shoir ahli — xayolparast “bolakaylar”,
Choy ichmasdan qondirishar tashnaligin.
Ohanrabo suhbatni deb kunda-shunda,
Ko‘ring, nechun keksalarga oshnaligin.

O‘zi qolib, o‘zgalarning dardi bilan,
Choy bahona charxlab bunda qalamlarin,
Bir piyola choyga qo‘shib sipqorishar
Yer sharining quvonchi-yu alamlarin.

Xohi dehqon, xohi shoir, yo‘lovchiga,
Choyxona — bu hordiq uchun bitta murvat.
Bir piyola choydan sira yuz o‘girmang,
Kayfiyatning shotisi u, belga quvvat.

FURSAT DULDUL

Fursat — duldul-yeldirim,
Qo‘sh eshik orasiga.
Umr degan tasbehning
Yetar nihoyasiga.

Tolar undan oyog‘ing,
Uchqur bo‘lsa qanoting.
Ming yillik archaning ham
Fursat bir kun mamoti.

Chechagidir qo‘li gul,
Fasllarning doyasi.
Ular hayot zanjirin,
Nasllarning doyasi.

Fursatning mo‘jizasi
Sahrodagi binolar.
Koinotdan taralgan
Biz kuylagan navolar.

SOLIJON JIGITOV

(1936–2006)

Taniqli adabiyotshunos, shoir va jamoat arbobi Solijon Jigitov O'sh viloyatining O'zgan tumanida tug'ilgan. Qirg'iziston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, sektor mudiri bo'lib ishlagan.

Shuningdek, Qirg'iz Ensiklopediyasi bosh muharriri o'rinbosari, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Qirg'izistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi, Qirg'iziston davlat universitetining professori, Qirg'iz-Turk "Manas" universiteti Gumanitar fanlar institutining direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan.

"Imonday sirim" she'rlar to'plami, "Kun tug'di" qissasi chop etilgan.

TARVUZ HAQIDA DOSTON

Tarvuzchi dehqon

(Suyunboy Eraliyevga)

O‘tgan katta urushda
Chidab ming bir illatga,
Qiyomatli do‘st bo‘ldim
Turli-tuman millatga.

Ko‘zi qiyiq, burnining
Kataklari beo‘xshov,
Samarqandlik Sog‘ali
Menga ini bo‘ldi-yov.

Turqi-tarovatidan
Qirg‘izligi ko‘rinar.
Lekin sof o‘zbekchalab
“Onangni..!” —
deb so‘kinar.

Sog‘alini o‘zbek der,
Ivan do‘stim — ko‘k ko‘zim.
Lekin men ishonmasdan,
Tildan uchdi shu so‘zim:

— O‘zbek bo‘lsang, Sog‘ali,
Nega burni puchuqsan?
— Yo‘q, men qirg‘iz emasman,
Bilsang, asli qushchiman.

Jinsi erkakligini
Aniq bilar o‘zi ham.
Millatim der urug‘in,
Dunyo shu-da — biri kam.

El-yurtidan olisda
Hozir askar er qushchi.
Urushgacha u yoqda
Bo‘lgan ekan tarvuzchi.

Samarqandlik bu qushchim
Yovga soldi ko‘p qiron.
Tarvuz urug‘ xaltada,
Ham askar-u, ham dehqon.

Bahor kelib, yer ilib,
Jang to‘xtasa bir nafas,
Sog‘alining orzusi —
Yerga urug‘ suqsa, bas.

Tanbeh berar do‘stlari:
— O‘ylasang-chi, devona.
Ketib qolsak olisga,
Tarvuz qolar ardona.

Sog‘ali der ularga:
— Senlarning gaping bekor.
Rizqin berib turmasak,
Ona zamin bo‘lar xor.

Urush topgach nihoya,
Sira solmay paysalga,
Yer yuzin aylantirgum
Tarvuz to‘la paykalga.

Hech tinmadi bu qushchi
Bor urug‘ ekilguncha,
Reyxstagning ustiga
Ol bayroq tikilguncha.

Gazandalar uyasin
Qamal qilib sakkiz kun,

Tarvuz suvidek qizil
Qonga cho‘mdik yer yuzin.

To‘qqizinchi subhidam
Yetib keldi sukunat.
Yemish izlab izg‘igan
O‘qlar tindi, xayriyat.

G‘alabadan shod qushchi,
Chiqib qoldi nokasta —
Oxirgi urug‘ini
Eka boshladi asta.

Qolgan ekan uning-chun
So‘nggi o‘qi urushning,
Iloji yo‘q, eh, attang,
Endi qaytib turishning!

Qolib ketdi jasadi
Do‘stlik degan mozorda.
Esga tushar Sog‘ali
Tarvuz ko‘rsam bozorda.

URUSH VA TARVUZ

(Sovronbay Jusuyevga)

Saxovatli kuz kunida O‘shga bordim,
Yolg‘iz emas, bir yosh shoir hamrohim.
Qiyalab tushib keldim soy bo‘yiga,
Handalak, qovun, tarvuzlarda suq nigohim.

Bozordagi mo‘l-ko‘llikni ko‘rib behad,
Tobora zavq-u shavqim oshar edi.
Qorin qo‘ygan olachopon tarvuzlarni
Ulasholmay tanti dehqon shoshar edi.

Kimdir qilib yeyar edi tilim-tilim,
Qo‘yib olgan kimdir uni qilib kosa.
Bir-biriga tarvuz otar sho‘x bolalar,
To‘qlik yaxshi, bozor avjga chiqqan rosa.

O‘ynayversin sho‘x bolalar g‘amdan yiroq,
G‘am inmasin ularning shod ko‘zlariga.
Nogoh mening xayollarim toyib ketdi
Urush davrin qahri qattiq “muzlari”ga.

...Tarvuzlarni yerga urib burdalab yeb,
Yotgan edik tarvuz pishgan keng dalada.
Bomba tushdi nogahon ustimizga,
Uyquga bosh qo‘yganimiz bir pallada.

Gumburlab yerni o‘yib, chiqib to‘zon,
Shartta turib ketolmadim, ahvolim tang.
Ko‘milib qolgan edim tuproq aro,
Tongga yaqin ko‘zlarimni ochdim arang.

Ko‘tarib zil-u zambil boshim asta,
Atrofimga nazar solsam bemajol,
Chor tarafda parchalangan tarvuz g‘ij-bij,
Cho‘qmor tegib burdalangan boshlar misol.

U yon, bu yon surib tuproq uyumini,
Kalovlanib borayotsam jon talashib,
Payqasam, har qayerda tarvuz suvi
Ko‘lmaklangan odam qoni aralashib...

...Begimchilik, tarvuz o‘yin bolalarga,
Biz ko‘rgan urushni ular qaydan bilsin.
Tarvuzlar soy toshidek paykallarda,
Ular hargiz urush ko‘rmay o‘ynab yursin.

Tafakkurning “tarvuzlari” — inson boshi,
Tarvuz kabi uzilmasdan, omon bo‘lsin.
Paykallarga bomba tushmay, bundan buyon
Yer yuzida tarvuz omon zamon bo‘lsin.

QIRG‘IZIMNING TARVUZI

(Boydilda Sarno‘g‘ayevga)

Qirg‘izim, sen doim xayolda,
Qirg‘iz deb yurib o‘laman.
Tarvuzday boshim omonda,
Tarvuzing kuylab beraman.

She’r bilan, elim, tarvuzing
Palagin otsin osmonga.
Shoirga yondosh yashay deb,
U kelgan bizning tomonga.

Bolalik paytim kosasin
Do‘ppi deb ko‘p bor kiyganman.
Tarvuzga to‘yib kechasi
To‘shakka ko‘p bor ...iyganman.

O‘smirlik paytim tortinmay
Bo‘zalik uyga kelardim.
Parivash qizga kechalar
O‘g‘irlik tarvuz berardim.

Erkatoy edim, o‘zgalar
Menga bosh egib yashardik.
“Pix yorgan” yangam ikkimiz
O‘g‘rincha tarvuz oshardik.

Eh tarvuz, buning nimasi?
O‘tmishda kezar xotiram.
She’rimda chizsam surating,
Ko‘ngil ham bo‘lar xotirjam.

Zehnimni qo‘yib har qachon
Paykalda seni payqasam,
Andijon yoqli qirg‘izday
Olarsan kiyib beqasam.

Ta’ming-chun o‘ysam bir chaqmoq,
Ko‘rinar o‘rni yulduzday.
Kosa qib so‘ysam, qo‘sh yuzing
Qimizga to‘ygan qirg‘izday!

Saratonda yesa tilim,
Har tashnaga davo kelur.
Chertib ko‘rsam po‘stlog‘ingga,
“Qirg‘iz!” degan sado kelur.

Qirg‘iz deb ketib uzlatga,
Urug‘ing yerga ko‘masan.
Azizim, sen ham men kabi
Qirg‘iz deb yurib o‘lasan.

FAZOGIR TARVUZ

(Ramis Risqulovga)

Baytal sutin simirib,
Bosh aylanib g‘uvullab,
Ko‘kka uchdim Ikardek,
Itim qoldi uvullab.

Tovonimdan chang chiqib,
Tolmay uchib talpinib,
Havolandim Yer sharin
O‘rkach qilib ortinib.

Xayollarim Yerda, ko‘kda,
She’r deganing gulduradi.
Ichgan sutim iridimi,
Qornim yomon g‘o‘ldiradi.

Ko‘kka boqib uf tortib,
Yerga qarab tupurdim.
Burov solib og‘rig‘i,
Ichburug‘im “ufurdi”.

Og‘zim yetdi quloqqa,
Kaftimda yulduz, mana.
Zilzilada vujudim,
Yuragimda po‘rtana.

Xandon otib turardi
Salom berdim Quyoshga,
Yulduzning qirrasiga
Tegib Yerim yorildi —
Savdo tushdi bu boshga.

Qo‘lda majruh Yer shari,
Turib qoldim hang-u mang.
Chorasini axtarib,
Holim bo‘ldi juda tang.

Teng bo‘lingan Yerimni
Yamamasdan netayin?
Yetar shuncha sayohat,
Bas, uyimga qaytayin!

Qon bosimim avjida,
Darg‘azabman juda ham.
Bu yorilgan Yer emas,
Tarvuz ekan qarasam.

SEN HAQINGDA

1

Bu tun mening
tushimga kirding.
Ko‘ylak kiyib opsan, yam-yashil, gulgun.
Odamlar ko‘p ekan.
Menga boqib,
Chehrang gul ochildi — bir yayrab kulding.
Bu tun mening
tushimga kirding.
Kulding-da, so‘ng qosh chimirding,
“Endi mening yorim boshqa birov”, deding,
“Kech qolding”, deb go‘yoki sal o‘pkalading,
men ishonmay ko‘zlaringga qarab kuldim.
Bu tun mening
tushimga kirding.

2

Bu tush o‘zi mening uchun bejiz emas,
sening ko‘ngling ham nenidir tuysa kerak,
yuragimning tub-tubida uxlab yotgan
sezgilarni goh uyg‘otib tursa kerak,
qor oldidan so‘nay degan tuyg‘ularga
kelsa kerak bahoriy oy nur sevalab...

3

Duch kelganda odamlar tabassum-la,
mehrin to‘kib izzatingni qilishsa ham,
bosh ustiga ko‘tarib jon do‘stlaring,
erkalatib, e’zozlab yurishsa ham,

baribir, sen g‘irt yetimsan
bu dunyoda,
baribir sen yakka-yolg‘iz
bu dunyoda,

agar seni har tun tushda erkalovchi
bu olamda biron kishi topilmasa,
agar seni yiroqlardan dili vayron,
armon bilan sarg‘ayib sog‘inmasa!

4

Yayrabgina, ko‘ylak kiyib ko‘kish-gulgun,
bu tun mening tushimga kirding...

SO‘NGGI OQSHOM

Bari bitdi,
So‘zlar yitdi.
So‘nggi bor
Qilgan ishim — ta’msiz labdan o‘pkilab,
Chiqib ketdim.
Netay, ko‘ngling to‘ldimi?
Yo qismatdan nolidingmi o‘pkalab?..

Yotgan ekan tosh ko‘chalar huvillab,
Shahar zangor yog‘du ichra munavvar.
O‘shal tunda sevgi mendan quvilib,
O‘shal tunda gulin to‘kdi o‘riklar...

MAYRAMXON ABILQOSIMOVA

(1936–2021)

Qirg'iziston xalq shoiri Mayramxon Abilqosimova Chuy viloyatining Kemin tumanida tug'ilgan, Qirg'iziston ayollar pedinstitutini tamomlab, gazeta va jurnal tahririyatlarida ishlagan. 1961-yilda ilk kitobchasi nashr etilgan.

O'ndan ortiq kitoblari bosilib chiqqan, asarlari ko'plab tillarga o'girilgan.

To'qtag'ul nomidagi davlat mukofoti laureati. Ijodiga Chingiz Aytmatov yuksak baho bergan. "Manas" ordeni sohibi.

DOIM

Seni doim omon ko'rsam deyman, men,
Boyagidek hilpiragan ro'molda.
So'zlay deyman, o'nglolmayman so'zimni,
Bemorga so'z topmoq qiyin bu holda.
Yoz kechikmay kelar degan umid bor,
Uchrashamiz eng birinchi tor bilan.
Ko'ksimizda ancha-muncha tilak yor,
Qutlagaymiz uni nomus, or bilan.

BIR SEN UCHUN

Urildim-da,
Urindim-da, ozaydim,
Ulg‘aydim-da,
Yuragimdan tozardim.
U shiddatkor
Daryolardek to‘kilib,
Uymalandim,
Ich-ichimdan yashardim.
Sindim, bitdim,
Oqsoqlab yurdim,
Mish-mish ichra
Muzday eridim.
Lek, Vatanni
Yoshligimday ardoqlab,
Safarlarda
Tovon bo‘lib yaradim.
Ozod bo‘lding,
Beshikdoshim, jigarim.
Tiriklikdan
Bo‘lmas endi qaytarim.
Bir qaro kun
Maqsadingdan qaytmasang,
Bir sen uchun,
Oqsa mayli, qonlarim.

KO‘RGILIK

O‘rnin buzib ketgan ekan tosh qulab,
Ko‘z ochibdi o‘shal yerdan oq buloq.
O‘rni to‘lmas dunyodayin ko‘rinib,
Tumraygancha qolar yo‘lda har botqoq.
Bulut to‘xtab, tuman to‘xtab, kech tushib,
Ular endi kelmay qolgan ko‘rinar.
Oq qayinni yig‘ishtirib tokchaga,
Yaxshilikdan yomonliklar ko‘p bo‘lar.
Qaysi elning ayollari beparvo,
Momolarning etagidan tutmasa.
O‘shal elning eriga qo‘y aybni,
Bu musibat jon-joningga o‘tmasdan.

JO‘LO‘N MAMITOV

(1940–1988)

Qirg‘iz adabiyoti ko‘kida yorqin yulduz bo‘lib porlagan shoir va tarjimon, prozaik, ssenariychi, librettochi Jo‘lo‘n Mamitov O‘sh viloyatining Qorasuv tumanida dunyoga keldi. O‘ndan ortiq kitoblari nashr qilindi.

Jumladan, “Suv umri”, “Jasur Chelten haqida ertak” to‘plamlari, qo‘g‘irchoq teatri uchun yozgan pyesasi bosilgan. J. Mamitov multfilmlar uchun ssenariy va librettolar ham yozgan. Vafotidan so‘ng, 1989-yili Qirg‘iziston SSRning T. Sotilg‘anov nomidagi mukofotiga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, uning nomida adabiy mukofot ham ta’sis etilgan.

OTA YURT

Ota yurt, tugamas she'rim o'zingsan,
Sen uchun baxsh etgum jon va hayotim.
Sharaf topgan necha asr sadosi
Tinmasdan yangrasin, tashlasang odim.

Qayg'u chekar bo'lsang, bag'rim tilinsin,
Quvonsang, yoshligim jo'shib, suyunsin.
Ota yurt, ko'z yumsam, tuprog'imsan — pok,
Tirik chog'im yashab yurgan uyimsan.

Sen uchun sadaqa bo'lsin oltin bosh,
Hatto baxt ham shirin emasdir sensiz.
Sen uchun yangrasin bahor kulgisi,
Qish ko'zidan yoshlar oqsin tinimsiz.

Zahmatlidir bizlar bosib o'tgan yo'l,
Ulug' ajdodlaring o'zgachadir, zo'r.
Pokiza bo'l, uchqur o'yli, ildam bo'l,
Umidli bo'l, qudratli bo'l, erkin bo'l!

XIRMON

Xirmon desa, tog‘day alvon tusli
qip-qizil ko‘ylak kiygan qiz-juvonlar,
uyoqdan buyoqqa zuvillagan mashinalar,
“Volga” mingan
boshliqlar emas,
qirq uchinchi yilning kuzi tushadi yodimga.
Do‘ppiday bug‘doy uyumi atrofida
miltiqlarini yelkaga ilgan
ikki qariya
yurardi aylanib.
“Qo‘shiq aytib bergin, o‘g‘lim,” —
deyishadi menga titroq ovozda.
“Ota, qachon kelasan?” — deb qo‘shiq aytaman.
“Meni qachon erkalaysan?” — deb qo‘shiq aytaman.
“Ota, seni sog‘indim!” — deb qo‘shiq aytaman.
“Meni yetim qoldirma!” — deb qo‘shiq aytaman.
“Poyezd minib kel!” — deb qo‘shiq aytaman.
“Qonxo‘r Gitler, o‘lib qol!” — deb qo‘shiq aytaman.
Milt-milt yosh tomadi
shilpiq ko‘zlaridan chollarning.
Ulardan biri
tevarakka ehtiyotkorlik bilan qarab,
cho‘ntagimga bir kaft bug‘doy soladi-da,
“Yugur, ketaver endi,” — deydi.
Men u yerdan yo‘qolaman quyun singari.
Xirmon desa,
qirq uchinchi yilning kuzi tushadi yodga...

ROMANTIKA

Afsonaviy suluv qizlar tog‘larning
G‘orlari ichida kechirgay hayot.
Ertakda yashagan ne bahodirlar
Har kuni yaylovda surishadi ot.

Tog‘ bag‘ridan oqqan soy etagida
Yosuman soch tarab o‘ltirar hamon.
Afsonaviy chopqir otlar uyuri,
Tuyalar karvoni oshadi dovon.

Agar tutib olsang, baliqlari ham
Qo‘yib yubor, deya so‘zlab turgaydir.
Ot ustida o‘tib borsang, cho‘qqidan
Ohulari senga salom bergaydir.

Yulduzlar o‘sadi qirda saf tortib,
Bolalar er yetar minib yulduzga.
Qo‘y ortidan yurgan o‘smirlar shomda
Yulduz hadya etar har bitta qizga.

Bunda el umrini o‘tkazar erkin,
Yomonlik istamas o‘zgaga, do‘stga.
Qoyalarda bir payt adashganlarning
Suyaklari hanuz tashlanar ko‘zga.

ERKIN SHE'R

Yig'ini sog'indim.
Ko'pdan buyon sen ham yig'lamagansan.
Tag'in...
Sog'inchga to'lgandir bizning bag'rimiz.
Keling, o'tirib bir yig'laylik bor ovoz bilan!
Buning ustiga
ko'pdan buyon kulganimiz ham yo'q.
Kulgi tizginlandi anchadan buyon.
Hammamiz kulaylik.
Agar barcha odam
bir paytning o'zida
qahqaha ursa,
Yer kurrasi ketadi titrab.
Olam eshitajak bunday kulgini.
Kulaylik!
Qayta-qayta kulaylik.
Yig'i o'rniga ham tag'in kulaylik!
Agar barcha odam
bir paytning o'zida
qahqaha ursa,
Yer kurrasi ketadi titrab.
Olam eshitajak bunday kulgini.
Sog'ingandagina yig'laylik...

TO‘RTLIKLAR

Yeringni sev, jaringni sev, yurting — joningni,
Poklik uchun baxshida et kuch va qoningni.
Hayotingni sarf aylasang bir mushkul chog‘da,
To qiyomat xalq unutmas nasab-nomingni.

* * *

Ey oqin, yengilma, yetishmovchilik —
Seni g‘am-tashvishga solgan chog‘ida.
Sotib olmak uchun oqin shuhratin,
Xon g‘aznasi yetmay qolur gohida.

* * *

Gar odam bo‘lmoqni istasang, hargiz
Demagin: men yaxshi, o‘zgalar — yomon.
Biz-ku... ming “yomon”ga bitta “yaxshi”ning
Keragin ko‘rmabdir hech qaysi zamon.

* * *

Kim xor etsa oqin bilan oqilni,
Unutgay ul oqibatni, aqlni.
Yaxshilik kelgaydir yurtning boshiga,
Kimlar ulug‘lasa dono, oqinni.

* * *

Don bosh olsin, hayot kechir xalq bilan,
Pul almashib, bank do‘st bo‘lsin bank bilan.

O‘ziga uy qurib askar bolalar —
Uylanishsin, yer haydashsin tank bilan.

* * *

Odambanda, baxil bo‘lma, oshiqma,
Ochko‘z bo‘lma, go‘zallikka tosh urma.
Tirik jonni o‘ylantirib shusiz ham,
Ajal degan qilich turar boshingda.

NOYOB MANZARA

Dushman degan ko‘p sirli,
Kuning chiqib kelayotsa,
To‘xtatishni ko‘zlar u.
Kuning botib borayotsa,
Tezlatishni ko‘zlar u.
Ko‘tarilsa obro‘ying,
“Do‘stingman”, deb sayraydi.
Holdan toyib qolsang-chi,
Qilichini qayraydi.

ABADIYAT QONUNI

O‘lim mumtoz insonlarni behisob
Yashirmishdir mangulikka qo‘yniga.
Umr — qudrat, keltiradi qaytadan
Tiriklarni marhumlarning o‘rniga.

Tun ham qiziq, boqsang sira farqi yo‘q,
Uyasiga yopirilgan ariday.
Tonglar aziz, oppoq nuri sehrli,
Kunlar o‘tar tutib uning baridan.

"YELVIZAK"

— Depsima-chi, bezor bo'ldim shuningdan,
Qutulmadim xotin degan bu zotdan! —
Nogiron chol kampiridan norozi. —
— Qaytmay qolsam bo'lar ekan g'azotdan!

Kampiri der: "Aybim nima, isbotla,
Gumrohsan-da yaxshilikni bilmagan.
Gunohimmi ozroq chekkin deganim?
Qaytmay qolsang urushdan,
Do'q qilardim kimga man?"

Pochtachi qiz kirmay ketdi iymanib,
Mashmashani uqqan edi qulog'i.
Qaytib kelsa, o'tib ketgan "yelvizak",
Chol-kampirning shodon edi dimog'i.

Qariyalar bir-biridan o'rgilib,
Singan edi adi-badi "shamshiri".
Cholin qo'lin yo'qligini bildirmay,
Nafaqaga imzo chekar kampiri...

TO‘RTLIKLAR

Odamzod, baxil bo‘lma, hovliqma,
Qo‘ltig‘ingga yashirmagin toshingni.
G‘animatsan bu besh kunlik umrda,
Ajal degan qilich poylar boshingni.

* * *

Inson — o‘qi Fursat degan kamonning,
Lek xiyonat qilar doim Sabrga.
Havolanib, ko‘zlab chiqib nishonni,
Tegib-tegmay qulab tushar qabrga.

* * *

O‘ylayversang kasallig-u ajalni,
Yaqinlatar o‘lim degan mezonni.
Undan ko‘ra kechligingning g‘amin ye,
Olov yoqib qaynataver qozonni.

* * *

Araq degan oylab-yillab, ohista
Rasvo qilar odamzodning oqilin.
Shuning uchun undan yiroq oqillar,
Ne sababdan sen ichasan, oqinim?

* * *

Kun va tunning farqi zulmat, ziyoda,
So‘qim narxi semiz bilan oriqda.
Uyqu — g‘aflat, ozroq uxlab, bedor bo‘l,
Kunduz qilgan ishing qolar tarixda.

* * *

Ey bandasi, bo‘lib ochildasturxon,
Yaxshi niyat bo‘lsin doim tuyg‘ungda.
Ulfatingda o‘tirganning barisi
Kelavermas kulfat kuning, qayg‘ungda.

* * *

Avaylaylik ona zamin, tuproqni,
Avlodlardan yaratmaylik baxilni.
Okeanlar tinch mavjlanib tursa bas,
Dolg‘alanib harob qilmay sohilni.

* * *

Mansab savil mangu emas “mahringga”,
Nashidasi hech taramas xumorday.
Kamtarlikni, yaxshilikni, nomusni
Avaylagin eng muqaddas tumorday.

* * *

Bu dunyodan qo‘rqoq o‘tsa ne qolar?
Ming yil yuvsang sira ketmas zang qolar.
Arvohi ham shuhratga g‘arq uylarning
Eshigida armon bilan lang qolar.

* * *

Bir narsadan hayratlandim, voajab,
Go‘zallarning ko‘rib shohi ko‘ylagin.
Tut bargiga qirq kun to‘yib ipakqurt,
Suluvlarga ipak berib o‘lganin.

* * *

Odamizod, senda mavjud barchasi —
Oqil, qaysar, o‘jar, sabr, to‘zimsan.
Ari bilan chumolidan keyingi
Tabiatning zahmatkashi o‘zingsan.

TURAR QO‘JO‘MBERDIYEV

(1941–1989)

Qirg‘iz xalqining mashhur shoiri Turar Qo‘jo‘mberdiyev Chuy viloyatida tug‘ilgan. Gazeta tahririyatlarida adabiy xodim, nashriyotlarda muharrir bo‘lib ishlagan, 1976-yildan esa Qirg‘iziston Madaniyat vazirligida xizmat qilgan. O‘n oltita she’riy to‘plam muallifi, qator she’rlari taniqli bastakorlar tomonidan kuyga solinib, qirg‘iz xalqining sevimli qo‘shiqlariga aylangan.

T. Qo‘jo‘mberdiyevning she’rlari rus, ukrain, belarus, moldovan, o‘zbek, latish, tatar, xakas tillariga tarjima qilingan. 1970-yili shoir “Qizil olma” va “Tonggi simfoniya” kitoblari uchun Qirg‘iziston yoshlar mukofotiga sazovor bo‘lgan.

CHARCHAGAN YEL

Shamol bugun, axir, qayga borgani yo‘q,
Bir hilpirab o‘ynab keldi, armoni yo‘q.
Va entikib yaproqlarga yotib qoldi,
Shu o‘rnidan jilmoqqa ham darmoni yo‘q.
Quyun kabi yana qayga borgani yo‘q,
Bir quturib o‘ynab keldi, armoni yo‘q.
Keng dalaga yotib oldi to‘rt oyoqlab,
Bir qo‘zg‘alib qo‘ymoqqa-da darmoni yo‘q.
Ko‘p izlanib qayga yana borgani yo‘q,
Qiziq kunlar o‘tkazdi-ku, armoni yo‘q.
Qilt etmasdan uxlab qoldi yastangancha,
Bir qimirlab qo‘ymoqqa-da darmoni yo‘q.

SUYGAN SHAHRIM

Bir so‘rayin, so‘ramoqqa haqqim bo‘lsa,
Baxtiyorlik doim senga oqin bo‘lsa.
Faqat meni kechirgil, ey suygan shahrim,
Qishloqlarim sendan biroz yaqin bo‘lsa.

Ko‘rkamliging bu ko‘nglimni ko‘taradi,
Jilvalari kun nurida aks ettirar.
Qachon, seni qancha ko‘rsam, shuncha yaxshi,
Lekin qishloq meni ko‘proq sog‘intirar.

Qishlog‘imni sog‘intirib borgandanmi,
Oz bo‘lsa-da undan mehr ko‘rgandanmi?
O‘shal tomon bo‘lar doim xayollarim,
Oydekkina bolaligim qolgandanmi?!

Meni kechir, suygan shahrim, iltimosim,
Kelbatingni ko‘rganda-ku, quvonaman.
Qishloq tomon ketsam deyman, senda yursam,
Men negadir quchog‘ingda begonaman...

BOLAKAYLAR SAVOLI

Kunning bormi yotog‘i?
Qurtning yurak, jigari?
Kuchuklar ham kularmi
Xuddi bizlar singari?

OYNING BOLASI

Sirtga chiqib jilmayar
Qanibekning bobosi:
— Buyoqqa chiq, tentagim,
Oy tug‘ibdi, qara-chi.
— Ko‘rsating-chi, opoqi,
Qani oyning bolasi?

G‘AROYIB KURASH

(Lof)

Ikki polvon bellashib,
Qarang, kirdi kurashib...
Ko‘tarib urgan palla,
Nortuya bo‘lgach alla,
El qiyqirdi: “Yasha!” deb,
“Bu eng zo‘r bir pashsha”, deb.

MEHRIBON ANASH

— Nega buncha hovliqding? —
Savol berdi xolasi.
— Tutib oldim ko‘chadan
Qarang, o‘rdak bolasin.
Panjalarin qizartib,
Turgan ekan mung‘ayib.
Qo‘ltig‘imda isitdim,
Bo‘lib qolmasin mayib.

QANOTBEKNING ORZUSI

Eh oyijon, qushlardek
Uchib qolsam mabodo,
Maskovdagi akamga
Bormas edim piyoda.

— Ana, qara, samolyot,
U osmonning kemasi.
Uchuvchilik kasbi ham
Asli bilim mevasi.

Mehr qo‘ysang ilmga,
Niyatingga yetasan.
Meni olib yoningga,
Moskvaga ketasan.

SAVOB

Tizzalari qaltirab,
Qari chol chiqdi yo‘limdan.
Eltib qo‘ydim uyiga,
Yetaklab olib qo‘lidan.

QALB JAROHATI

Gohida ko‘rmaganga olsak o‘zni,
— Ko‘rding-ku, — deb chirqiraydi imonimiz.
Yolg‘onga kafan bichgin deb shivirlab,
Azob bilan qiynaladi vijdonimiz.

Tug‘ilgandan to o‘lguncha barchasiga
Ikki darcha — shu ko‘zimiz xolis guvoh.
Yomonlikni ko‘rib turib ko‘zni yumish —
Shu guvohlar oldidagi cheksiz gunoh.

Riyo, yolg‘on, yomonliklar — bari-bari
Bolalaydi bizlar qilgan xiyonatdan.
Shuning uchun soxta so‘qir inson qalbi
To qiyomat arimaydi jarohatdan.

JUDOLIK FOJIASI

Tug‘yon urar farzand qalbi judolikdan,
Ajratdi o‘lim uni onasidan.
Ishonmay onasining o‘lganiga,
Axtaradi tiriklarning orasidan.

— Onajon, gavharmiding ummondagi?
Mangu botmas Quyoshmiding, lekin yiroq.
Ona bilan jigarbandning shamoyili —
Birisi et bo‘lsa magar, biri tirnoq.

Safaringning nomi borsa-kelmasmidi?
Topolmasman axtarib hech daragingni.
Qay muddatga ketgan eding, onajon,
Qon yig‘latib farzandingning yuragini.

Farzandingning rangi somon judolikdan,
Uning uchun yolg‘iz armon — sendan darak.
Mahrum bo‘lding jigarbanding kamolidan,
Endi urar ikkimizda bitta yurak.

MENGDI MAMAZOIROVA

1943-yilda O‘shning To‘lo‘yko‘n mahallasida tug‘ilgan. Qirg‘iziston davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan. Gazeta va jurnal tahririyatlarida ishlagan. Ilk kitobi 1975-yili bosilgan. Nazm va nasriy asarlar yozadi.

Dramatik asarlari ham anchagina. O‘ndan ortiq to‘plami nashr etilgan. Qirg‘iziston xalq yozuvchisi.

BULOQ

Sen nechun umr bo‘yi bilmay tinim,
Ne haqda, qanaqa o‘y o‘ylagaysan?
Sen nega umr bo‘yi qaynab, tinib,
Kimni o‘ylab, kim haqda kuylagaysan?
Ammo sen tili zahar g‘iybatchining
O‘rtovchi izzasiga kuyib yurma.
Ehtimol ko‘ngil to‘la umid bilan
Menga o‘xshab birovni suyib yurma!

YOMG‘IR

Yomg‘ir yoqqan mahal o‘ta go‘zaldir.
Olam qolur chalaridan arilib...
Maysa o‘rlar oshiqqancha osmonga
Gullar unar g‘unchalari yorilib...

Yomg‘ir yog‘ib turgan palla tilsimkor,
Yaproqlari suyunadi daraxtning.
O, tabiat, yomg‘ir faslin ayama,
Unish, o‘sish axir nomi bu baxtning!

Dunyo yayrar yomgir yog‘ib turganda,
Dilga to‘lar bir tozalik bilinmay.
Bir qusurdan qutuladi ona Yer,
Yasanar so‘ng kilkillagan kelinday.

* * *

Bemorman. Darmonim yo‘q. Xohish
so‘ngan.
Ezilib so‘zlashlardan qoldim
tolib...
Tek turguncha olislarda
miltillagan
Dengizning to‘lqinlarin kelin olib.

Yig‘layapman bolakayday o‘pkam to‘lib,
But vujud, but tanamni so‘lqillatib.
Ko‘ngillarni bog‘lagan, xabar bergan
Oldindan —
O‘rtamizda o‘ta pishiq ip bor edi
oltindan.

O‘sha ipni uzmay, saqlab, ketolmadik
tuz qilib,
Falokatga uchradi-da, shu ip ketdi uzilib.
Xayot ekan, bog‘laylik deb ikki yurak
berdi un,
Uladik ham, biroq unda qolib qoldi
bir tugun...

TOL

Bahorda ko‘rkli, suygun, yashil eding.
Ro‘yingga ko‘zim tushib, oshiq edim.
Ko‘ylagimni senikiga o‘xshatay deb,
Necha bora urinib, berganman zeb...
Tek turguncha Nozim Hikmat
she’rlaridan
O‘qib ber bu yurakni to‘lqinlantirib!..
Majnuntollar silasin sochlarimni —
Sevgilimni mehrli qo‘li bo‘lib.
Bizning yaqin, ko‘ngli to‘g‘ri
do‘stlarimiz
Safarlardan qaytishsin tez — yo‘li bo‘lib!

* * *

Onajon, bir yig‘lagim kelib turar,
Nima uchun tuqqansan bu zamonga?
Ro‘paramda g‘uvillagan shamol urar,
Sochadi umidlarim to‘rt tomonga.
Onajon, nega tushim o‘ngdan kelmas?
Aytmaydi niyatlarim folbin bo‘lib.
Ishongan otim terlar, chopa olmas —
Xayolimni jinni qilib, telba qilib?
...Onajon, shatir-shutur yomg‘ir to‘kdi,
O‘zgartirdi bahor qizing o‘ylarini.
Ana, qara, derazamga bulut cho‘kdi,
Keltiryapti yel boychechak bo‘ylarini.

TUGUN

Kuz keldi... Barglaring qoldi so‘lib...
Men yuribman hali ham yashil bo‘lib!

* * *

Kun chiqdi baland-pastga to‘kib nurin
Bolaning ko‘zi kabi shu’la yoyib.
Kun chiqdi qiliqlanib, yop-yosh, toza,
Tun pardasi yig‘ildi, bo‘ldi g‘oyib.
Bu yosh kun safar chog‘i aylanadi,
Yo‘li bor o‘zgarmovchi taqdir yozgan.
Umr ham shu kun kabi o‘tar-ketar,
Yo‘l arir — o‘zim tugul bolam bosgan.
Yo‘l arir, umr arir kun oldida,
Jo bo‘lur oq tolaga bechora bosh.
Aylanar og‘ishmasdan Yer o‘qida,
Turaverar Vatanimiz doim yop-yosh!

NODIRBEK ALIMBEKOV

1944-yili Talas tumanida tug'ilgan. 1967-yili Toshkent to'qimachilik institutini tamomlab, O'shdagi paxta zavodi, Ip-gazlama kombinatida muhandis, so'ng bosh direktor bo'lib ishlagan.

1983-yili Qorabolta gilam fabrikasi qurilishiga boshliq qilib yuborilgan va bu yerda o'n yildan ortiq direktor vazifasida ishlagan.

1996–2004-yillarda Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan.

O'ttizga yaqin she'riy kitobi bor. Qirg'iziston xalq shoiri, Respublikada xizmat ko'rsatgan ixtirochi.

YARATGANGA ILTIJO

Yurtinig posbon sarvari
O'rgilayin, Olatog'im.
Issiqko'lning qo'riqchisi,
Zo'r tayanchim, sara tog'im.

Sadqa bo'lay bir umr
Boylikka kon dalasiga.
Ko'z tegmasin, iloyim,
Bishkekdayin qal'asiga.

To tirikman, shu yurtga
Fido bo'lgay jon-u tanim.
Olatog'ni, Issiqko'lni
O'zing saqla, Yaratganim.

TASVIR

Chizmoq bo‘lsang ona yurtim tasvirin,
Yaylovlari bo‘lsin senga zar qatim.
Tog‘ gulidan rang tanlagin, boisi,
Gul bo‘yog‘i o‘chmasligin payqadim.

Unga qo‘shib o‘t-olovli umringni,
Omuxta qil muhabbat-u dilingni.
Va yo‘g‘irgin uni yurak qoning-la,
Singib ketsin jo‘mardligi elingning.

Bayroq qilib alp Manasning shuhratin,
Unga qo‘shgin To‘qtag‘ulning satridan.
Issiqko‘lning beshik-beshik to‘lqini,
Arslonbobning archa, yovshan atridan.

Kindik qoning tomgan tuproq hurmati,
Ulkan burchni o‘z zimmangga ortasan.
Shundagina Olatog‘ning kelbatin
Ancha-muncha tasvirini tortasan.

BIR SHAYTON...

O‘tgan kuning oqqan suvday bir chayqam,
Kelajak kun ulashilgan ming arqon.
Arqon tugab, suvlar tinsa, o‘lim haq,
O‘lmaydigan bir Allohdir, bir shayton.

Chopib ketdi o‘tgan umr shoshtirib,
Kelar kunim orzu-tilak yaxshilik.
Orzularning qanotida nihoyat
Ulg‘ayamiz umidlarga bosh urib.

Oz emasdir o‘tganlarning armoni,
Qurib bitgan ne insonlar darmoni.
Avlodlarga jang-jadalsiz kun qolib,
Osoyishta, cheksiz bo‘lsa har oni.

O‘tgan kuning oqqan suvday bir chayqam,
Kelgusi kun ulashilgan ming arqon.
Arqon tugab, suvlar tinsa, o‘lim haq,
O‘lmaydigan bir Xudodir, bir shayton.

SUV VA IMON

Suvlar oqsa maysa unib, chim bosar,
Kun qizdirsa, daryo qurib, qum bosar.
Imon esa ahillikning asosi,
Imon ketsa, yurtni qayg‘u-mung bosar.

Yomg‘ir yog‘sa, o‘zan yashnab, mol bo‘lar,
Suv qurisa, ko‘l qovjirab, sho‘r bo‘lar.
Imon kelsa, qut-baraka ko‘payib,
Imon ketsa, bechora el xor bo‘lar.

Obihayot Ona yerga qon demak,
Suv tugasa kunpayakun jon demak.
Odamlardan imon qochsa agarda,
Bu aslida qo‘sh oyoqli mol demak.

O‘SH

Mevangni uzib emas, kurab yeyman,
Sharbati zamzam suvi, jannat deyman.
Dasturxon to‘lib-toshgan ajab, sarxil,
Yil bo‘yi totsam hamki, tugatmayman.

Tog‘laring tillaga boy, simobga boy,
Paxtaga, pillaga boy, kimxobga boy.
Oqbura beling uzra kumush kamar,
Rosti gap bunday shahar yo‘q hoynahoy.

Bu yurtning zo‘r boyligi odamlari,
Ularning qutlug‘ ishi, qadamlari.
Diyorning shon-shuhratin ko‘targuvchi
Mehnatda charchoq bilmas badanlari.

Vatanda bu joy oltin zirak deyman,
O‘zbek-qirg‘iz tayanch-u, tirik deyman,
Bog‘-rog‘laring behishtning o‘zginasi,
O‘sh shahri urib turgan yurak deyman.

JALOLOBOD

Farg‘ona vodiysiga oltin jig‘a,
Bu yerda to‘kinlikning koni borday.
Ayyubbobo yurtining zuryodlarin
Yuraklari pokiza oppoq qorday.

Bu kentning bunyodkori — charog‘boni —
Onajonim tabiat zukko usta.
Tog‘ ko‘ksida taxti ravon, atrofida
Oxiri — adog‘i yo‘q xandonpista.

Ostida Ko‘gart daryo ko‘zi-u qoshday,
Qoradaryo nahriga borib yetar.
Nazdimda gulgun shahar Jalolobod
Bag‘ri keng volidaga o‘xshab ketar.

SHUKRONA

Yaratganim yana bersa baxt-tole,
Olarmidim nasibamni oqlamay.
Mening baxtim — go'zal yorim, farzandim,
Qutlug' uyim — boshim uzra oq saroy.

Tekin bo'lsa kunlik non-u nasibam,
Bepul ishlab, yashaganim ma'qulmi?
Kunda uch bor tayin oziq-ovqatim,
Bunga ko'nmay, yana degan oqilmi?

Insondagi aql-hush-u farosat,
Tangrimizdan marhamat deb bilgayman.
Hayvon emas, odam bo'lib tug'ilib,
Yurganimga shukronalar qilgayman.

O‘XSHAYDI

Ko‘zlaring sim-siyoh-u qora tunga o‘xshaydi,
Tabassuming, kulganing go‘yo gulga o‘xshaydi.
Qora tun qarog‘idan izlagayman, dilbarim,
Shu’lasi Asqar tog‘dan tekkan kunga o‘xshaydi.

Yurishing ham aslida mashqlarimga joylanar,
Biror kun uchratmasam, hatto yilga aylanar.
Chigillashib hayolim, o‘zligimni unutib,
Kokillarim yo‘limda bir tushovga aylanar.

Axir kimdan yashiray, bir o‘zingga xumorman,
Yomon ko‘zdan asrovchi ko‘ksing uzra xumorman.
Qafasdagi lochindek hapriqadi yuragim,
Jazmanlaring safida yakka-yolg‘iz men borman.

Rashk balosi misoli azozilga o‘xshaydi,
Istig‘nolar oldida jonim filga o‘xshaydi.
Ey sanam, orzularim tush bo‘lib qolmasaydi,
Baxt so‘zining zalvari toshdek zilga o‘xshaydi.

OQIB TURGAN SUV DUNYO

Oltin beshik keng dunyo,
Har bandaga teng dunyo.
To‘kis emas bu jahon,
Aslida bir kam dunyo.

Ko‘zi to‘qqa bor dunyo,
Ichqoraga tor dunyo.
Gul umrni yashnatib,
Yonib turgan sham dunyo.

Baxti borga nur to‘kkan,
Boyqushlarga yo‘q dunyo.
Shoir zotin aslida,
She’rdan ko‘ngli to‘q dunyo.

Goho g‘arib, gohida
Mo‘l-ko‘l dunyo, boy dunyo.
Tiriklikka kuch berib,
Porlab turgan oy dunyo.

Olishganda chuv dunyo,
Oqibatsiz quv dunyo.
Azro‘y-azal sarosar,
Oqib turgan suv dunyo.

KO‘NGILLARNI RANJITMAY

Bu dunyoda shodlik zarur kulmoqqa,
Tinchlik kerak hayot gashtin surmoqqa.
Sevgi darkor bir umrga so‘lmagan,
Bog‘lar lozim mutlaq xazon bo‘lmagan.

Yo‘llar kerak, tog‘lar kerak ko‘k o‘par,
Havo lozim eng beg‘ubor shu nafas.
Umr zarur hamda kerak sergaklik,
Inson go‘yo bu hayotda cho‘p-u xas.

Do‘stlar, sanab o‘tdim hayot mujdasin,
Balki bu hol juz’iy nuqsonim manim.
Lek ularga yurak zarra achishmas,
Ne qilurman sensiz qolsam, Vatanim?!

DO‘STLARIM

(Toshkentda birga o‘qigan teng-tushlarga)

Yodingizdan chiqmadimi, do‘stlarim,
Bu shaharning non-u tuzin yeganmiz.
Talabalik gashtin surib, azizlar,
Kelgusining g‘am-tashvishin deganmiz.

Talabalik “oltin davrim” deganda,
Teng-tushlarim niyatiga yetishdi.
Shahar ko‘rgan, uddaburon parilar
Ayrimlarni laqillatib ketishdi.

O‘z ishiga pishiq bo‘lgan oshnalar
Behudaga o‘tkazmadi vaqtini.
Har kim bo‘lgay niyatiga yarasha,
Xizmatdan topdi ko‘plar baxtini.

O‘ylab ko‘rsam, azizlarim, do‘stlarim,
Ellikka ham yetib qopti yoshimiz.
Menga yodgor sizdan totli xotira,
Qayda bo‘lsa, omon bo‘lsin boshimiz.

Bizdan qolgan odamiylik, yaxshilik,
Kajraftorning ishlari ko‘p alomat.
Teng-tushlarim, qay diyorda yurmaylik,
Bo‘lingizlar doim sog‘-u salomat.

TOSHKENTIM

O‘qib, bilim olgani
Toshkent sari otlandim.
Ishim kelib o‘ngidan,
Shodlandim, qanotlandim.

Markaziy Osiyoning
Zo‘r tayanchi—bosh shahrim.
Qo‘yningda topdim kamol,
Omon bo‘lgin, Shosh shahrim.

Doshqozonda osh tayyor,
Osh yurtisan azali.
Ixlos bilan o‘qiyman
Mir Alisher g‘azalin.

Chorak asr, ajabo,
Toshkent sari chopaman.
Binolarni ko‘rganda,
Dildan taskin topaman.

CHIROQ BO‘LIB...

(Sharifaxonga)

O‘chmagan umidlarga chiroq bo‘lib,
O‘ksigan tilaklarga inoq bo‘lib,
Ketmaydi ko‘z o‘ngimdan totli damlar,
Duch kelmasin hech kimga firoq bo‘lib.

Ko‘ksimda pirpiragan yog‘du bo‘lib,
Tog‘ning aks sadosidek “yo huv” bo‘lib,
Ilojim yo‘q netayki olisdasan,
Qo‘lga tushmas jayron bo‘lib, ohu bo‘lib.

Suluvim, diydoringga to‘ymas bo‘ldim,
O‘tda yonmas, olovda kuymas bo‘ldim.
Taqdir ekan, ayro tushdi yo‘limiz,
Suratingni qo‘limdan qo‘ymas bo‘ldim.

XUDO BERSA

O‘ng‘aymi o‘ttiz yoshni Xudo bersa,
Yigirma beshni unga ulay bersa.
Kuzakning olma bo‘yli tunlarida
Ushbu yosh oltin ekan so‘ray bersa.

Qimmatmi qirq degan yosh Xudo bersa,
Qiyinmi suluv bo‘lish chiroy bersa.
Yaylovning atir isli havosiday,
Yoshlik — bu eng soz ekan so‘ray kelsa.

Hayotning tamal toshin sanay bersa,
Taqdirim meni qancha sinay bersa.
Chiniqib dovon oshgan arg‘umoqday,
Totlidir ellik yoshni Xudo bersa.

Buyog‘i yashamoqqa yil, oy bersa,
Bir ming oy — sakson to‘rt yil Xudo bersa.
Insonning asilligi yuksaklanib,
Haromning tubi nurab, qulay bersa.

NORIN DARYO, SIRDARYO

Kiyik misol sakrab tog‘-u toshlardan,
Dala-tuzni go‘zal qilgan nur daryo.
Rizqi ro‘zning omilkori o‘zingsan,
Yalakatsan — Norin daryo, Sirdaryo.

O‘jar Norin Sirdaryoga aylanar
Shiddat bilan Axsikentning so‘ngida.
Vodiy uzra oltin belbog‘ go‘yoki,
Sharbat bitar qirlarida — do‘ngida.

Obihayot — tiriklikning asosi,
Qo‘sh daryoning suvi har dam bor bo‘lsin.
Mehri ulkan qirg‘izimga o‘zbekning,
Omon bo‘lsin, pirlar madadkor bo‘lsin.

Men o‘lanni bitganim yo‘q bekorga,
Kelib qoldi, do‘stlar, gapning xonasi.
Turmush tarzi bir-biriga omuxta,
Ikki daryo — ikki xalqning onasi.

ER YIGITGA

Ko‘ngil xushi havolansa,
Qalbing ishqdan navolansa,
Boyligingdan o‘zga yonsa,
Hovliqmagin, er yigit.

To‘fon tursa, yer yursa,
Chaqib, chaqib, sel yursa,
Bir muhtoj qarab tursa,
Belni bog‘la, er yigit.

Dono bo‘lsang, fikr qil,
Olim ersang, zikr qil,
Dehqon bo‘lsang, ishlay bil,
Adashmagin, er yigit.

Ona yurtni nomusga
Qoldirmagin, er yigit.
Kerak bo‘lsa, boshingni
Vatan uchun ber, yigit.

ERKA BO‘LSAM...

Erka bo‘lsam, onam ortiq suygandir,
Sho‘xlik qilsam, otam so‘kmay yurgandir.
Loqayd bo‘lsam, har qadamda qamchi yeb,
Ota-onam nomus qilib turgandir.

Boyoqish bo‘lsam, boshga tushgan armondir,
Botir bo‘lsam, oriyat-u erk bordir.
Tekkan bo‘lsa biror nafim sizlarga,
Eng muhimi, menga olqish qolgandir.

Odam bo‘lmoq — bu insoniy farzimdir,
Qilgan ishim — siyratimdir, tarzimdir.
Elatimning bir koriga asqatish —
Bo‘ynimdagi eng muqaddas qarzimdir.

ORIYAT

O‘g‘il deysan, qiz boladan yaxshimi?
Qiz buyummas, qirq yilqiga sotguday.
Qaliniga sog‘in sigir, qo‘y olib,
Qaymoq bilan moyga botib yotguday.

Shirin-shakar qizlarim ko‘p, yoronlar,
Barchasidan badavlatman, bardam men.
Qizdan yaqin mehribon yo‘q otaga,
Baxtiyorman kecha-kunduz, har dam men.

AJRASHMOQLIK

Ajrashmoqlik urfmidi, odatmidi?
Og‘ir kasal yo yuqumli dardmidi?
O‘z holicha kun o‘tkazgan odamga —
Ayolgami, erkakkami shartmidi?

Ajrashmoqlik oppa-oson bizlarda,
Nuqta qo‘yib, to‘yda totgan tuzlarga.
“Tirik yetim” tamg‘asini bosgancha
Gunohi yo‘q qancha o‘g‘il-qizlarga.

Ayb kimda, kuyovdami, yorida?
Qiziqmaymiz, tushmagaymiz koriga.
Ma’no nedir bu dunyoda yashashdan,
Dog‘ qolmasin elning nomus-origa.

QIRG‘IZLAR

Qirg‘izning o‘ta ko‘hna bayoni bor,
O‘ziga xos fe’li bor, xoqoni bor.
Urfi bor, odati bor, masali bor,
Bedavo — urug‘chilik kasali bor.

Qirg‘izning qirg‘iz degan dushmani bor,
O‘rtada nizo qo‘zib, buzgani bor.
Misoli qashqirdayin tishin qayrab,
Qonida ko‘rolmaslik, qizg‘anish bor.

Qirg‘izning o‘ta ko‘hna bayoni bor,
Munduzi, sarbag‘ishi, sayog‘i bor.
Ko‘kargani qo‘ymaydi farzandlarin,
Qo‘lidan tushmaydigan tayog‘i bor.

QISHLOG‘IM

Ona qishloq— ovulim
Olis emas Talasdan.
Ruhan madad olaman
Buyuk bobom Manasdan.

Onajonim xoki ham
Shu tuproqqa qorishgan.
Fotihasi tufayli
Kelajagim yorishgan.

Qayda bo‘lmay, hamisha
Talpinaman shu yoqqa.
Archazor orasiga,
Turna ko‘zli buloqqa.

KO‘PCHILIK

Toma-toma ko‘l bo‘ladi, bu bor gap,
El biladi shoir bilan baxshini.
“Xalq daryodir, xalq ummondir, xalq dengiz”,
O‘z bag‘rida saqlar yomon, yaxshini.

Birlik ketsa, tuganmag‘an sho‘ri bor,
Yakdil bo‘lsa, o‘ta ravon yo‘li bor.
Bir kam dunyo, teng emasdir besh panja,
Ne iloji, bori bilan yo‘g‘i bor.

Polvoni ko‘p, zukkosi ko‘p, mardi ko‘p,
Og‘rig‘i bor, azobi bor, dardi ko‘p.
Ba’zi biri burgut yasar chumchuqdan,
Palidi bor, g‘ubori bor, gardi ko‘p.

El-u xalqqa jonim qurbon, sadag‘a,
Biri bobo, biri momo, og‘adir.
Qurimasin oqqan daryo — ko‘pchilik,
Ahil bo‘lsak, ketmas davlat, yog‘adir.

YAYLOVDA

Bir to‘p bulut keldi-yu,
Yomg‘ir yog‘di shovullab.
Ufq orti lolarang,
Cho‘qqi yonar lovullab.

Kosa to‘la qimizni
Ichdim imkon boricha.
Jala tinib, oftob
Ko‘kdan ochdi daricha.

Tanam qizib, bol qimiz
Sarxush etdi har holda.
Uloqchi yigitlarday
To‘p bulutlar tarqaldi.

Susamir yaylovida
Zavqli o‘tar har chog‘im.
Qushdek yengil bo‘laman,
Qolmay zarra charchog‘im.

UY TASHVISHI

Yog‘och kerak, temir kerak, tosh kerak,
Mablag‘ zarur, farosat-u bosh kerak.
Belni bog‘lab loyga tushgan paytingda,
Oqibatli do‘stlar-u qurdosh kerak.

Ming bir tashvish — oziq-ovqat, non kerak,
Qassobga yog‘, echkiga-chi jon kerak
Qurgan hujrang ulkan Vatan timsoli,
Senga quvvat, ustaga imon kerak.

Uying bitgach, demakkim ro‘zg‘or kerak,
Osh tortasan, nomus kerak, or kerak.
Beshik uzra quvnab alla aytguvchi
Sadoqatli, mehribon dildor kerak.

GUVOH

O‘rtamizda sharqiragan soy guvoh,
Avji to‘lgan o‘n besh kunlik oy guvoh.

O‘ng‘ay emas sevganin olib qochish,
Bo‘ydoq uchun yor so‘z bergan joy guvoh.

To‘riq bedov yelib o‘tgan shamol guvoh,
Dugonasi — uch-to‘rt sohibjamol guvoh.

Ayting axir iloji yo‘q bechoraga,
Qaddi bastli, qoshlari hilol guvoh.

To‘yga kelgan hamqishloqlar, ovul guvoh,
Safdoshlarim, qarindoshlar doim guvoh.

Ikkimizga sidqidildan baxt tilagan
Qiblagohim — otam bilan onam guvoh.

MEHMONDO‘ST OG‘AYNIMGA

Aytmasam ham fe’li to‘q tog‘liklarim,
Tortishib sen boshingni og‘ritmagin.
Oylikka kun o‘tkazgan shaharlikning
So‘ziga quloq solgin, hovliqmagin.

Eldan o‘tgan boymisan, ochiq so‘yla,
Esankirab yurmasdan puxta o‘yla.
Mehnating topganingdan besh hissa oz,
Ko‘pchilikning mulkiga hirsing qo‘yma.

Ayrimlar umoch, choyga mehmon kutar,
Ko‘ngli ochildasturxon, bag‘rin tutar.
Xushomad-chun qo‘y so‘yib o‘tirmasdan,
Mehmon uchun hattoki og‘u yutar.

Xazinang omonatdir qo‘lingdagi,
Niyatingdan oshgani — bo‘lingani.
Aslida yashay berar sensiz, mensiz
Yaxshi urf, mehmondo‘stlik elimdagi.

TIL BOBIDA

Tug‘ilib tog‘da, dalada,
O‘qidik qishloq, qal’ada[1].
Rus tilida so‘zlashmoqqa
Intilgandik yanada.

O‘qishga berib dilimni,
Ruscha oldim ilmni.
Erinmasdan o‘rgandik
“Ikkinchi ona tilim”ni.

Ruscha so‘zlab ishda ham,
Gapirdim hatto tushda ham.
Kuylaganman qo‘shig‘in
Saratonda, qishda ham.

Pokizadir imonim,
Tillarga qurbon jonim.
O‘rganardim ko‘p tilni
Agar bo‘lsa imkonim.

Do‘stim, puxta o‘ylaylik,
Yetti o‘lchab so‘ylaylik,
O‘zga millat tilini
O‘gaylatib qo‘ymaylik.

[1] **Qal’a** — shahar.

TAVAKKAL

Ishchanga mezon tavakkal,
G‘am-tashvishi yo‘q ekan.
Erinib turib otsa ham,
Butoqqa tekkan o‘q ekan.

Botirning ishi tavakkal,
Qo‘rqoqda yurak yo‘q ekan.
Ko‘zin yumib otsa ham,
Ko‘krakka tekkan o‘q ekan.

Oltin bosh omon bo‘lsa,
Ishing olchi, o‘ng ekan.
Tog‘ aylanib yurguncha,
Dovon oshgan jo‘n ekan.

O‘ychi yetib o‘yiga,
Bitirguncha yumushin,
Tavakkalchi “gardkam” deb,
Sanar oltin, kumushin.

ODAM YOSHI

Agar inson zotining
Oltmish bo‘lsa mo‘ljali,
Oltindan ham o‘n bora,
Ardoqlang ushbu o‘ljani.

Agar inson zotining
Yetmish bo‘lsa mo‘ljali,
Yaxshilik bilan o‘tkazsak
Tangri bergan o‘ljani.

To‘qson tog‘dan oshmoqdir,
To‘qsonning qaltis yo‘llari.
Qo‘lingdan kelsa, odamzod,
Xor bo‘lmay o‘tsang bo‘lgani.

Yuz yosh buyuk qo‘rg‘onmi?
Shu yoshga chiqqan to‘yganmi?
Shuning-chun Alloh ortini
Armonli qilib qo‘yganmi?..

ISTAGIM

Bag‘ridan buloq oqib iyib tursa,
Qo‘yni-qo‘nji boylikka uyub tursa.
Tog‘ demay, ona desam arzir asli,
Muborak farzandlarin suyub tursa.

Daryolar sohillarni tepib tursa,
Daraxtlar ko‘k toqini o‘pib tursa.
Qo‘sh sohil bo‘ylariga o‘tov tikib,
Odamlar rizq-ro‘zini sepib tursa.

Oymomo ko‘l bag‘rida uxlab yotsa,
Oshiq esa moshig‘ini iskab yotsa.
Yulduzlarga ko‘zin qisib qo‘rli o‘choq,
Sarin sabo gard qo‘ndirmay puflab yotsa.

G‘anim og‘u solmasa oshimizga,
Baxt qushi mudom qo‘nsa boshimizga.
Izzat-u e’tiqodni yo‘qotmasak,
Insof bersa keksa-yu yoshimizga.

Tiriklik o‘chmaydigan chiroq bo‘lsa,
Qo‘ni-qo‘shni adovatdan yiroq bo‘lsa,
Qisqa umr uzayib ketarmidi...
Odamlarning bag‘ri keng, inoq bo‘lsa.

NE GO‘ZAL

Suv bo‘ylab chiqqan tol go‘zal,
Guborsiz otgan tong go‘zal.
Suluvlik izlab to‘ymagan
Oshufta qalb, ong go‘zal.

Tekis o‘sgan tol go‘zal,
Shishadek tiniq tong go‘zal.
To‘y-to‘rkinga sababkor
Qizdayin qirmiż jon go‘zal.

Quyosh suluv, kun go‘zal,
Tong bilan sirdosh gul go‘zal.
Ko‘zga quvvat, nur bergan
Tabiat asli ming go‘zal.

Oq shu’lali oy go‘zal,
Tongga tutash joy go‘zal.
Kindik qon tomgan yerdan,
Ayting, yana qay go‘zal?

O‘ZING

Ho‘pladimmi og‘u to‘la qoshiqni,
Ajab, nega shu zaharga oshiqdim.
Xumo qushday meni yo‘ldan ozdirib,
Sarson qilding, ora yo‘lda shoshirding.

Sezdim chog‘i bolga to‘la qoshiqni,
Bol ta’midan naflanmoqqa oshiqdim.
Neki desang, barchasiga roziman,
Sho‘x anhorning to‘lqiniday toshiqdim.

Axir nega bilib turib shoshildim,
Qo‘lim yetmas yuksak dorga osildim.
Rostin aytsam, bu og‘riqni, bu dardni
Muhabbatning yo‘rig‘iga xos bildim.

Asalmikin, zaharmikin totganim,
Hech sir emas og‘ir dardga botganim.
Yolg‘iz o‘zing mening hamdam-habibim,
Bu kasalni tuzatguvchi tabibim.

SURATING

Sutga chayib olganday,
Nim kulasan suzilib.
Suratingga qarasam,
Yuragim ketar ezilib.

Kim biladi ko‘zimga
Jamoling ortiq sezilib,
Oromimni yo‘qotdim
Ich-ichimdan ezilib.

Qo‘sh yanog‘ing o‘ymoqday,
Lablaring olov sezilib,
Boqqan sarin, azizim,
Oh deganman ezilib.

Olisdan yaqin sezilar
Suratda turib jilmaysang.
Har kun yuz bor qarayman
Oshig‘ingman, bilmaysan.

TOG‘ OQSHOMI

Quyosh o‘tab xizmatin,
Ko‘kda yulduz yashnadi.
Yorib oqshom bag‘rini
Ko‘ppak hura boshladi.

Bulutlarga yastanib,
To‘shi to‘shga ulanib,
Yuksak tog‘lar uxlashar
Bir-biriga suyanib.

Adir-qirlar nortuya
Ulkan qoplar yuklangan.
Oy cho‘qqidan mo‘ralar
Biroz cheti buklangan.

Nur ho‘plar archa, qarag‘ay,
Nur elar keksa-yoshgacha.
Gul iforin ayamas,
Tog‘da oqshom boshqacha.

O‘ZGA DUNYO KERAKMAS

Ko‘zingda yonib turgan o‘t,
Olovlanib yurgan o‘t.
Orom bermay tunlari
O‘y-xayolim buzgan o‘t.

Yuragingda yonib turgan o‘t,
Yuragimdan urgan o‘t.
Dilni kov-kov qilgan o‘t,
Alg‘ov-dalg‘ov qilgan o‘t.

Jamolingday yongan o‘t,
Goho aldab – tongan o‘t.
Yashnatib dil chorbog‘in,
Simobdayin tomgan o‘t.

Umring o‘zi — kuygan o‘t,
Ko‘ngilga yaqin suygan o‘t.
Ishqsiz yurak yurakmas,
O‘zga dunyo kerakmas.

GUL

Guldan o‘tgan nozik bor,
Boldan shirin oziq bor.
Uni sevsak — barimiz,
Unda istar oshiq yor,
Unda qanday yozuq bor?

Yelimday erib — iygan bor,
Guldan chopon kiygan bor.
Haddan ortik sevsak biz,
Unda netar suygan yor,
Oshiq bo‘lib kuygan yor?

Ko‘zida yorqin nuri bor,
Jabr ko‘rgan turi bor.
Bunday totli dunyoda
O‘ksimasin suygan yor,
Lol qolmasin suluvlar.

Gulning guli birinchi,
Parilarning yo‘q tinchi.
Farzand degan gul yolg‘iz,
Eram bog‘in ko‘ring-chi —
Bu go‘zalning sevinchi.

QAYDA EKAN?

Betashvish hayot bormikan?
Ko‘plar unga zormikan?
Chaqmoqday qisqa umrda
Yayragan odam bormikan?

Go‘zallik asli qaydadir,
Go‘zalga dunyo boymikan?
Suluvlarning suluvi
Ko‘kdagi ko‘rkli Oymikan?

Odamga qimmat jonmikan,
O‘lmas odam bormikan?
Beshafqat ajal teng boqar
Aslida gado, xonga ham.

Yashamoq o‘zi rohatdir,
Ollohga yetgay chin ohi.
Kim cho‘chiydi o‘limdan
Bo‘lmasa agar gunohi.

XULOSA

Otajonim qo‘sha-qo‘sha uy qurib,
Tom bitkuncha holimizni tang qildi.
Mol-u jonga, ot-ulovga zo‘r berib,
Joni tinib, rejasini “vang” qildi.

Onamizning o‘y-xayoli gilamda,
Xonalarni to‘ldirishdi unnashib.
Chol-kampirning ko‘ngli tushib o‘rniga,
Oshxonada gashtak qilar tunashib.

Birin-sirin oq ham qo‘ndi sochimga,
Tushmasaydi bu hol mening boshimga.
Topganlarim faqat to‘yga buyurib,
Tangrim esa yosh qo‘shsaydi yoshimga...

OQBURA

Ko‘z ilg‘amas moviy ko‘kni yopinib,
Milyon-milyon toshni etib poyandoz —
Ko‘pik sochib, ko‘kka, yerga topinib,
Qo‘shiq aytib oqishlaring muncha soz!

Zilollikda tenging bo‘lmas kelsa kuz,
Oqishingga qiz kulgusin bitasan...
Erir ekan cho‘qqilarda mo‘ngi-muz
Chopqillagan bo‘ta bo‘lib ketasan.

Goh taqdirning shamolidan yengilib,
Orom izlab, sezgi ber deb bo‘ylayman.
Dardlarimni do‘stday bilib, teng bilib,
Do‘stlar yo‘qda faqat senga so‘ylayman.

Senga qaytgum men bormayin qay yoqqa,
Senga kelgum g‘am osilsa bo‘ynimga.
Saqlaysanmi tushirmasdan qarmoqqa
Baliq bo‘lib kirib olsam qo‘yningga?

Qancha jonni xushtor etgan sho‘x kuying,
Qancha yilni ildi ekan egningga?
Yulduzlarning, tuyqus boqsa bu ro‘ying,
Qanchasini qadadiykan tubingga?

SALOM

Salom senga, qardosh qo‘shni o‘zbegim,
Jilovdorsan sen uloqda o‘zingsan.
Salom senga, hamisha yosh Toshkentim,
Qadim Sharqning darvozasi o‘zingsan.

Salom senga, qiyosi yo‘q dalalar,
Kuy taralar qo‘bizimdan — torimdan.
Qulluq senga saxovatli Sirdaryo,
Paxta ekib, suv ichasiz Norindan.

Salom senga, bobokalon Samarqand,
Noming dilga muhrlangan es tanib.
Olqish senga Ulug‘bekning diyori,
Ming yillarga shohid bo‘lgan esdalik.

Salom senga Shirinlarning avlodi,
O‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshar kamoling.
Talaslikman, qaychi-quda elatmiz,
Farg‘onalik mening sohib jamolim.

Salom senga qardosh qo‘shni o‘zbegim,
Mirzacho‘lni qiyos etdim barqutga.
Bu gal endi o‘zing mehmon bo‘lib kel,
Arslonbobga, O‘sh shahriga, Arqitga.

DILBARIM

O‘n ming emas — bir jonim,
Bir jonimni sev jonim.
Yurakka cho‘g‘ tashlading,
Sababini ayt barin.
Oh, Dilbarim, Dilbarim!

Boyqush bilar tun gashtin,
Bulbul bilar gul gashtin...
Men-chi buni sezmayin,
O‘z yo‘limdan adashdim.
Oh, Dilbarim, Dilbarim!

Paxtadan tog‘ uyganing,
Mening esa kuyganim.
Bilinmasmi sen uchun,
Bormi o‘zga suyganing?
Ayt, Dilbarim, Dilbarim?

O‘tar yigit yillarim,
Senga ayon sirlarim.
Ishq o‘tiga dosh bermay,
Yonayotir dillarim,
Oh, Dilbarim, Dilbarim!

ONA QISHLOQ

Fasli bahor, gullaringni sog‘indim,
O‘sha sokin tunlaringni sog‘indim.
Yalangoyoq ishqin, qarag‘at[1] terib,
Daralarda yurganimni sog‘indim.

Yig‘it bo‘lib tanibmanki esimni,
Xotirlayman qachon yoshlik chog‘imni.
Erta-yu kech talpinaman o‘zingga,
Yuragimga shuncha yaqin edingmi?

Ona yurtim, kindik qonim tomgan yer,
O‘yinqaroq, sho‘xligimga qongan yer.
Yo‘rgaklading, ulg‘aytirding, sen o‘zing,
Birinchi bor quchog‘ingda yozdim she’r.

Navro‘z payti gullaringni sog‘indim,
Sokin, oyli tunlaringni sog‘indim.
Xarsang toshga ayri minib, pishloq yeb,
Qo‘zi boqib yurganimni sog‘indim.

[1] **Ishqin, qarag‘at** — tog‘ mevalari.

BULBUL VA SHOIR

Bulbul zoti, bilasizmi, gullarga
So‘ylab o‘tar, kuylab o‘tar, ishq rozin.
O‘zi esa sinchalakdek ko‘rimsiz,
Lekin do‘stlar, mast qiladi ovozi.

Qolishmaydi shoirlarning she’ri ham,
Har qatori ijodining naqshidir.
O‘zi oddiy va xayolkash bir kishi,
Maslahatim, ko‘rmaganing yaxshidir.

Shu borada bahs ketsa, gohida,
Shoirlarni bulbul deydi ko‘plari.
Bulbul bo‘lsa, nima uchun ularning,
Biri yaxshi, biri yomon she’rlari.

Har kim aytar o‘qiganin, bilganin,
Bu taqqosga sira rozi bo‘lmadim.
“Xaltura”chi shoirlar-ku bor, ammo,
“Xaltura”chi bulbullarni ko‘rmadim.

SO‘Z O‘TMAS

O‘tganni yozgan tarix bor,
Ko‘ngli g‘amdan darig‘ bor.
Qattol ajal bor ekan,
Yem bo‘lguvchi g‘arib bor.

Hayotni taqdir varaqlar,
Turmush suvday shar oqmas.
Mehnatning orti rohatdir,
Peshonang undan yaraqlar.

Umrni muddat hisoblar,
Ajabo, ba’zan tez o‘tmas.
Vaqt haqida kim o‘ylar?
Faqat shunga so‘z o‘tmas.

KITOBXONA

Topay desang dil dardimning izlarin,
Yig‘lab yozgan she’rlarimdan izlagin.
Misralari agarda rom etmasa,
Qo‘ntiq dema, jaydari so‘z tizmasin.

Uqmoq bo‘lsang yuragimning sof gapin,
Uxlamagin, yozganimdan izlagin.
Ishq va mehr qo‘shilmasa jonimga,
She’r demagin, so‘zlar tizmasin.

Tushmasang ham xayolimning ko‘liga,
Tunab o‘tgin o‘shal ko‘lning bo‘yida.
Orom olgin, do‘stim, imkon boricha,
Mashrab bo‘ldim men ilhomning ko‘yida.

Lov-lov yonsa, ushalgusi tilagim,
O‘sha tilak imonim deb bilaman.
Armon bormi, o‘rgilayin kitobxon,
Oq qog‘ozni sutday tavof qilaman.

QAYG‘U

Qayg‘u tushdi izimga,
Uyimni tark etar on.
Peshonamga muhr bos,
Lablaring-la, onajon.

Istagim bor, bir umr
Quchog‘ingda qolgudek.
Ammo orzu bir jahon
Olis yo‘lga solgudek.

Safar sari, yo‘l sari
O‘ngarilgan kavushim.
Qaratadi qizlarni
Dag‘al tortgan tovushim.

Olislarning shamoli
Uriladi yuzimga.
Oldinda quvonch imlar,
Qayg‘u tushgan izimga.

SEVGI

Sevgining ko‘zi ko‘r, deydilar,
To‘g‘ri yo‘l tegmagan Tangridan.
Ibtidodan intiho qadar
Boshlanar har safar yangidan.

Kim uni malham deb ataydi,
Kim unga balo deb qo‘ymish nom.
Birovlar tun-u ḳun maqtaydi,
Kimgadir — ozodlik, kimga — dom.

Har qalay, u doim muzaffar,
Maysadek yorolgan toshlarni.
Azaldan merosiy olovni
Bag‘riga joylaydi yoshlarni.

CHORLASH

Kumush jomda uzatding og‘u,
Ko‘zni yumib, uni ichibman.
Sevging menga misli mayog‘-u,
Uni deb bor-buddan kechibman.

Bir nafas-la ichga yutganim
Og‘u ekan bolga qorishgan.
Vasling istab tunni kutganim,
Sening husning bilan yorishgan.

Sirli eding sirsiz dunyoda,
Kunlarimga ma’no baxsh etding.
Bir boqishda, bitta qiyoda
Yuragimga sevgi bahsh etding.

Dardin bergan darmonga ham tan,
Kelgil, shifo topay jomingdan.
Noming bilan boshlanadi tong,
Shomim tugar yana nomingdan.

BIR BOR KO‘RIB

Zulfing zanjiriga qilding band meni,
Asirlik chekimga tushdi nogahon.
Shafqat tark etganmi butunlay seni,
Ko‘zimga tirqishdir endi bor jahon.

Yurar yo‘llarimda choh ortidan choh,
O‘zin yo‘lga urmas endi samanim.
Holimdan bo‘lmading bir lahza ogoh,
Otashda — yuragim, kuymoqda — tanim.

Tilimga so‘z ketmas, ko‘zimga — uyqu,
Judoman sokinlik ila rohatdan.
Sen bilan ro‘baro‘ kelgan kundanoq,
Naqd qayg‘u a’loday nasya baxtdan.

Ammo bu ham ko‘pdek ko‘rindimi, oh,
O‘zingni, izingni topmay mushtoqman
Tushday o‘tib ketding o‘ngimdan, ey moh,
Hatto qayg‘ungdan ham ayrilib toqman.

QIZGINA

Dam kulasan qiqirlab,
Dam yig‘laysan hiqillab.
Arpangni xom o‘rganday
Kuyunasan pichirlab.

Turmush — bu oq-qora yo‘l,
Sening makring buncha mo‘l.
Tanho gulman, demagin,
Atrofga boq, g‘uncha mo‘l.

Shudir she’rimning bayti;
Har ishning bor o‘z payti.
O‘sma qo‘yding, qurimay,
Yoshlik ortiga qaytdi.

Qara sochim oqiga,
Hech kim qolmas boqiyga.
Umr bo‘yi qo‘l cho‘zib,
Yetmadim ko‘k toqiga.

SEN BILAN

Ayro tushdik ikkimiz,
Oramizdan qil o‘tdi.
Kunlar orti keldi oy,
Oy ortidan yil o‘tdi.

O‘zimiz tugul, endi
Uchrashmaydi soyamiz.
Ilgari but, endi-chi,
Chaqmoq bo‘lgan qoyamiz.

Yoshlik ham o‘tib ketdi,
Umr oqar suv ekan.
Baxting — otliq, sen — yayov,
Orqasidan quv ekan.

Sog‘inch yo‘lga ko‘zimni
Qaratgani qaratgan.
Ayirmasin ekan hech
Sevganingdan Yaratgan.

MO‘JIZA

Kutsang ham, chorlasang ham
Sevgi o‘zi kelmaydi.
Uning yurar yo‘lini
Axir hech kim bilmaydi.

U keladi daf’atan,
Shifosi yo‘q dardmikin?
Ishqli bilar, ishqsizga
Tushuntirish shartmikin?

Ming ko‘chani kezdirar,
Sezmaganing sezdirar.
Ko‘zdan — uyqu, dilingdan
Oromlarni bezdirar.

Mo‘jiza u har dilga,
Bilagingga kuch bo‘lar.
Usiz o‘tgan umrning
Mohiyati puch bo‘lar.

TULPORLARIM

She'r yozganda yorilgudek
Zavqdan yurak devori.
Ilhom mening uchqur otim,
O'zim uchqur suvoriy.

Old-ortimga qaramasdan,
Qamchilayman, tulporim mast.
O'ngirlarda menga ne bor?
Cho'qqilarga qilganman qasd.

Satrlardan satrlarga
O'tgan sari qonim jo'shar.
Har bitta she'r boyligimga
Bitta yangi tulpor qo'shar.

QAYG‘URMA

Qayg‘urma, azizim! O‘tgusi
Bu kunlar o‘tmishni qoralab.
Yashadik shu kunga yetguncha,
Eh, qancha alamlar oralab.

Quvonchning umri ko‘p qisqadir,
Yilt etgan chaqmoqdir qiyosi.
Va lekin shu lahza umrida
Zulmatni parchalar ziyosi.

Qayg‘urma, meni ham qilma esh,
Bu mahzun damlarga, dildora.
Yoshlikdek qaytmovchi damlarda
G‘amlardan bo‘lmasin dil pora.

Qo‘lingni qo‘limga tashlagin,
Kiftimga qo‘y asta boshingni.
Kiprigim aritsin yuzingdan
Sirg‘algan bir tomchi yoshingni.

LAHZALIK BAXT

O‘tib borar qizlar galasi,
Nigohlarni tortib o‘ziga.
Esga tushib yoshlik pallasi,
Hayot aziz chollar ko‘ziga.

Chaqirsang-da, qayrilmas biri,
O‘tib ketar shitob bu karvon.
Shundadir lahzalik baxt siri,
Izida bir umrlik armon.

YAKKA QAYIN

Yolg‘iz edim. Yo‘l uzoq.
Ayoz avjga minardi.
Go‘yo bu dam tabiat
Sabotimni sinardi.

Yo‘l chetida oq qayin
Turardi yakka-yolg‘iz.
Go‘yo mendek charchagan,
Joyida qotgan holsiz.

U bahor sari yo‘lda,
Men yorimga intilgan.
Ikkimiz — bir, kiftiga
Safar xaltasin ilgan.

SEVGI NIMA?

Nima asli muhabbat?
Oy nuri, qush sayrog‘i.
Yelda yengil o‘ynagan
Yor sochining bayrog‘i.

Asiriman, bandiman
Qarori yo‘q qilchalik.
Yorim yo‘q har daqiqa
Tuyuladi yilchalik.

Oshiq uchun visol — tush,
Men-chi, uyquga yotman.
Dunyoda bevafolar
Uchirar toshingga botmon.

Ammo, sening ko‘zlaring
Makr-u riyodan xoli.
Ummon kabi tubi yo‘q,
Sadoqatning timsoli.

Meni sevging so‘qmog‘i
Boshlab borgusi qayon?
Qorachiqlaring siri
Faqat Allohga ayon.

Umrimning ardog‘i ishq.
Usiz hayot puch yong‘oq.
Sevgining shiori shu:
Yonmoq, yonmoq va yonmoq.

SENSIZ

Kamolingni ko‘rib, hayron
Bo‘lib qolsam, ajablanma.
Tohir shu hol, Majnun shu hol
O‘tgan bo‘lsa, ayt-chi, man na?!

Ishq — abadiy! Oshiqlar-chi
Kelib-ketar karvon kabi.
Abadlik ishq azobidan
Dil o‘tli, chanqoq labi.

Yolg‘iz edim uzoq damlar,
Yo‘qlamasdi quvonch, g‘amlar.
Menga edi yot sevgidan
Dili o‘tli, ko‘zi namlar.

Endi esa o‘zim bandi,
Ko‘zim lol-u, dilim behol.
Umidimni senga tikdim,
Baxsh aylagin menga visol.

ACHINISH

Seni sevib, ham sevilib dunyoda,
Topgan baxtim o‘zing axir, yagonam.
Nega endi boshing xam-u, ko‘zing — nam,
Nega endi quvonch senga begona?
Kuni bilan yomg‘ir yog‘sa yog‘ibdi,
Nega bundan senga tundlik yopishdi?
Kech ham tushdi, bulutlar ham qolmadi,
To‘lin oydan oqshom sutdek yorishdi.
Tabiatga kuz tashrifi oddiy hol,
Diling bundan o‘kinmog‘i ravomi?
Qor ostidan bo‘y ko‘rsatgan gul yanglig‘,
Sevgidadir umrimizning davomi.

GUL VA KO‘NGIL

Guljonga

Guljon, ya’ni jon gulisan,
Ko‘ngil uchun ochilgan.
Shoir tilim to‘xtamasdan
Madhing qilgani qilgan.
Gul — hayotning ko‘z quvonchi,
Jondek bizga arzanda.
Gul quyoshning va zaminning
Eng ardoqli farzandi.
Aslida gap nomda emas,
Taqdir ila toleda.
Men umrimni his etmasman
Guldan xoli holida.

RAD ETILGAN SEVGI

Sendan qoldi dilda dog‘,
Sen o‘ngi yo‘q tush bo‘lding.
Meni qo‘yvormas tuzoq,
Sen-chi, erkin qush bo‘lding.

Izingni izlab o‘tgum,
Vaslingni ko‘zlab o‘tgum.
Sevgisiga yetolmay
O‘tganlar yuzlab, o‘tgum.

Sensiz o‘tman tutunsiz,
O‘choqdayin o‘tinsiz.
Baxt degani baliqdek
Bo‘ldi bizga tutumsiz.

Sevganiga yetganlar,
Va bearmon ketganlar.
Bizga sira o‘xshamas
O‘lanlarni bitganlar.

AYOL

Ayollarni momo tabiat
Hayot ko‘rki deya yaratgan.
Zilol suvlar ko‘zgusi bo‘lib,
Osmonlardan oyni qaratgan.

Mohichehra, munis ayollar
Pari monand turmush ziynati.
Ulardadir doim xayollar
Ko‘zim usti doim minnati.

Onamiz u, yor hamda singil,
O‘chog‘imiz qo‘riga posbon.
Hech bo‘lmagan yuklari yengil,
Biz yor bo‘lsak, ulardir — Osmon.

Hayot asli ayolga bog‘liq,
Uyg‘oq bo‘lsin yoki xobida.
Quyosh bo‘lar dunyoda tanho,
Ayolga mos mangu obida.

SEN TANHO

Senga yetmoq uchun turli
Yo‘llar bosdim, oshdim dovon.
Xayol surdim nurli-nurli,
Tuyg‘ularim karvon-karvon.

Sen bir o‘zing egallading
Yuragimning bo‘y-u enin.
Yuzlab oqqush bo‘yinlarni
Bir karashma bilan yengding.

O‘zing tanho malikasan,
Ko‘nglimning oq saroyida.
Bir so‘zingga tenglasholmas
Ming qonun-u, ming qoida.

Raqiba yo‘q senga biror,
Poyingdadir mudom joyim.
Sen men uchun bir umrga
Kunduz — quyosh, tunda — oyim.

* * *

Barcha gullardan a'lo
Men sungan gul chamamda.
Undan go'zalrog'i yo'q
Bu dunyoyi chamanda.

Orolanar kun sari,
Xazon bilmas yaprog'i.
U ko'zimni quvnatar
Alam daf qilgan chog'i.

Tuproq va suv balosi,
Go'yo kesakdan uchqun.
Dahri dundan roziman
Unga duch qilgan uchun.

SO‘NGSIZLIK

Yoshlikda ko‘p azob chekdim, cho‘kkanim yo‘q,
Keyin boylik keldi — shishib-ko‘pganim yo‘q.
Tiyinlarni tejab so‘mlar to‘pladim, lek
Bu qurg‘urning tubiga hech yetganim yo‘q.

Mansab tegdi, boli shirin ekan — totdim,
Ammo demang, men hovliqib yo‘l yo‘qotdim.
Ketmon qo‘lda bo‘lmasa-da, dehqon misol
Bir umrga ishlab-ishlab, terga botdim.

Goh yanglishib, zahar yutdim, o‘lganim yo‘q,
Razolat xo‘p ishva qildi, ko‘nganim yo‘q.
Menga kim tosh otsa, unga osh otibman,
Ammo biron palid kasni yengganim yo‘q.

Ayo do‘stim, yaxshilikning so‘ngi yo‘qdir,
Kimdir bilar, bilmaganning ongi yo‘qdir.
Halol mehnat qilgan elim — she’r mavzuyi,
Busiz yozgan ash’orimning dongi yo‘qdir.

ANATAY O‘MURQANOV

Qirg‘iziston xalq shoiri Anatay O‘murqanov 1945-yilda Talas viloyatida tug‘ilgan. Qirg‘iziston davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Gazetalarda muxbir bo‘lib ishlagan. Keyinchalik “Adabiyat” nashriyotida bosh muharrirlik qilgan.

A. O‘murqanov 2006–2007-yillarda Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qildi. Birinchi she’riy to‘plami 1973-yili nashr etilgan. Shoir yigirmaga yaqin kitob muallifidir.

OTA VASIYATI

O‘stirdim niholdek avaylab,
O‘qitdim zor qilmay tiyinga.
Roziman eplasang o‘zingni,
Egasan hamto‘shak, uyingga.

Otamdan meros bu tashvishing,
Orqalab ketaman go‘rimga.
Otangdan bo‘linsang bo‘lingin,
Elingdan, yeringdan bo‘linma.

Nodonlik yo‘liga yurmagin,
Aldanib yoshlikka-mastlikka.
Mol-dunyo — qo‘l kiri, obro‘ni —
Boy berib, qulama pastlikka.

Hayotning o‘ri-yu qirida
Baxting yor bo‘lsin, qarog‘im.
Otangning qadrini farzandli —
Bo‘lganda bilasan, chirog‘im.

ONAJON

Onajon, munisim, sen bilan
Umrimning rizqi-yu halovat.
Sen uchun ko‘rmay hech zavolni,
Baxtimga doim bo‘l salomat.

Adashib qaydadir qolibdi
Beqaror bolalik bechora.
Sochingni oqartgan beboshni
Endi hech topolmam, nachora.

Bugun-chi, otaman aslida,
Lek hanuz sen uchun bolaman.
Ostona hatlasam har safar
Ortimdan mung‘ayib qolasan.

Yoshlikning olovli zabtida
Adashdim, goh quvnab, goh kuydim.
Men endi quyilib, benazir
Onalik mehringni kech tuydim.

Oq ingan sochimni silagin,
Ko‘ksingga qo‘yayin boshimni.
To‘kayin o‘zgalar oldida
Hech qachon to‘kmagan yoshimni.

Onajon, munisim, sen bilan
Umrimning rizqi-yu halovat.
Sen uchun ko‘rmay hech zavolni,
Baxtimga sen bo‘lgin salomat.

HIJRON

Uyqudan qildi benasib
Ayriliq degan ushbu dam.
Xayollar ipi chuvalgan,
Bir uchin topsam, biri kam.

Lahzalar yilga barobar,
Qalbimda muhrdek bo‘yog‘i.
Tug‘yonga solar to hanuz
Bo‘sasi dilbarning dudog‘in.

Yer-u ko‘k jo bo‘lib ko‘zimga,
Erigan edim naq simobday.
Ketdimi borsa kelmasga
O‘sha kun mavhum sarobday.

Xotirim band etgan qahqahang,
Aks sado bersa yonimda.
Ko‘pirar ruhimda po‘rtana,
Dolg‘ali ummon qonimda.

YOMG‘IRDAN SO‘NG

Simobmi, yomg‘ir tomchisi?
Bilolmay qoldim hoynahoy.
Bulutni yirtib ketmoqda
”C” harf shakl yarimoy.

Bir-biriga gal bermay
Xonishda qushlar barchasi.
O‘ziday qilib kim yamar
Oy yirtgan bulut parchasin.

Ohista kelib omuxta
Jilg‘alar o‘zan suviga.
Qirdagi qizil qizg‘aldoq
O‘xshaydi bahor tug‘iga.

Sog‘ingan chog‘i uyini,
Chuvalchang siljir erinmay.
Maftunkor buncha tabiat,
Yasangan yangi kelinday.

ABDURASHID URBAYEV

(1946–2011)

Shoir, tarjimon, jurnalist Abdurashid Urbayev O'zgan tumanida tug'ilgan. Moskva davlat madaniyat institutida tahsil olgan. "Exo Osha", "Vecherniy Bishkek" gazetalarida ishlagan. 1991–1998-yillarda "Osh oqshomi" shahar gazetasiga muharrirlik qilgan, O'sh davlat universitetida talabalarga dars bergan.

A. Urbayev "Tongni kutib", "Yoshlik ekspressi", "Oqbura ohanglari" kabi o'nlab she'riy to'plamlar muallifi. Asarlari J. Mamitov nomli adabiy mukofotga sazovor bo'lgan.

OTA YURT

Ota Yurt, sen haqingda o'yga botsam,
Ko'zlarim ilinmaydi o'ylab yotsam.
Men senga bola emas, otadekman,
Sen menga bolamdaysan o'ynayotgan.

Uqma, deb, umringda hech dag'al so'z,
Bolalar-la betashvish o'ynasin, deb.
Avaylab bir chekkada tikaman ko'z,
Seni birov yig'latib qo'ymasin, deb.

Buloqning suvlariga chayintirib,
Egningga gard yuqtirmay, kiyintirib,
To'ydirib, o'zim ochga qolsam hamki,
Yurgim bor senga berib birinchilik...

YOLQIN

Porillatib umr chirog‘in yoqqan,
To‘kis ro‘zg‘or uddasidan tez chiqqan.
Qahrli turmushga ham suyib boqqan,
She’riyat, sensan mening yolqinim!

Tinmay charxlab, xayolim o‘tkirlagan,
To‘siqlardan o‘t, deb olg‘a chorlagan.
Ulkan umid bo‘lib dilda porlagan,
She’riyat, sensan mening yolqinim!

Muhitning ham to‘lqiniga cho‘kmagan,
Tog‘day toshlar urilsa-da, ko‘chmagan.
Eng vayronkor bo‘ronda ham o‘chmagan,
She’riyat, sensan mening yolqinim!

Bu hayotga chek-hududsiz xumorim,
Dilda imon, e’tiqodim, tumorim.
Ota yurtga baxshida yolg‘iz borim,
She’riyat, sensan mening yolqinim!

BIZNING UMR

Bizning umr xizmat safari kabi
Vaqti kelib, so‘zsiz tugar muddati.
Ba’zilarning yo‘qqa chiqib mehnati,
Ishi bitmay, tishlab qolarlar labin.

Bizning turmush xizmat safari yanglig‘,
Kimdir qisqa, kimdir uzoq yuramiz.
Kimdir ozroq, kimdir ko‘proq kulamiz,
Biroq bir kun so‘zsiz so‘nar ikki cho‘g‘.

Umrni ish safariga mengzayman,
Ko‘p yashar-u kimdir ishlaydi ozroq.
Oz yurib kim, erta toyilar biroq...
Umrni ish safariga mengzayman...

TAZARRU

Parvardigor, O‘zing kechir bizlarni,
Osiyga ham bisyor sening karaming.
Qarab turib bandalaring a’molin,
Arshga o‘rlar oh-u fig‘on, alaming.

Elni aldab, tutar soxta emizak,
Afsungardek bosh riyokor — xonimiz.
Shirin-shakar so‘zlariga ishonsak,
Naq jannatdir ertangi kun — tongimiz.

Odamiylik yetdi borsa kelmasga,
Haq, diyonat tark ayladi ommani.
O‘girib ko‘r axloq degan g‘alvirni —
Aldamchilik chori bosgan hammani.

Bugun bizga “oshi halol” o‘g‘rilik,
Fatvo berar bunga oliy hakamlar.
Suvdan quruq chiqib ketar hamisha
Xalq nonini “tuya qilgan” akamlar.

Nozaninlar or-nomusi bozorda,
Yigitlarning Ka’basidir islovot.
Xalq g‘amidan yiroq mansab ahliga
Kunora to‘y, bazmi jamshid-islohot.

Mansab uchun pora jufti-haloli,
Olchi tursa oshig‘i bas, er — da’yus!
Ilm ahli unvon uchun yukinib,
Xon qoshida turar zabun, xor, ma’yus.

Imonsizlik kasri urdi zamonga,
Ko‘rinmaydi yaxshi kundan nishona.
Kelib qoldik tubsiz chohning bo‘yiga,
Erta-indin toshga tegar peshona.

Tangrim, kechir gumrohlarning podasin,
Karaming keng, ayla endi shafoat.
Bandalaring gunohining ajriga
Gar arzisa, boshim bo‘lsin kaforat![1]

[1] **Kaforat** — tovon, jarima.

METINDAN BIZNING ONALAR

Ocharchilik, urush, tullik dastidan,
Yuvsa hamki etagini ko‘z yoshi,
Zuvalasi yo‘g‘irilgan metindan,
Mayishmagan asqar tog‘dek bardoshi.

Qo‘sh haydagan, xo‘p haydagan er bo‘lib,
Qaddin egib, dastgohlarni “emizgan”.
O‘zi yemay, yig‘ib dona bug‘doyni,
Janggohdagi askariga yegizgan.

Yuragiga muhrin bosib “qora xat”,
Sochin yoyib, yuzin yulib bo‘zlatdi.
“Nanna”ga zor go‘dagining o‘limi
Qahratondek saratonin muzlatdi.

G‘olib ona, yengib o‘tding borini,
Sabr tubi — sariq oltin, degansan.
Istiqbolni yo‘rgagingda avaylab,
Vatanga ham mehr sutin bergansan.

Bugun yana charxpalak ters aylandi,
Qattol turmush bo‘ldi sinov maydoni.
Mazlum xalqning yuki yana yelkada,
Chaqir toshli yo‘lda ona karvoni.

Belda yana g‘ayrat, himmat kamaring,
Chiqarmaysan sirtga oh-u zoringni.
O‘zing ibrat tanfurush qiz, juvonga,
Alishmaysan zarga nomus, oringni.

Bardoshing tog‘, qalbing ummon benazir,
Mashaqqatlar dog‘da taslim etolmay.
Yana g‘olib poygaboshi o‘zingsan,
Ta’zimdaman to‘zoningga yetolmay.

PARNAS BEKATIDA

(Ellik yoshimga)

Qiyo boqsam vaqt degan beshafqat
Sezdirmasdan ellik yoshim olibdi.
Lek, xayriyat, Parnas degan cho‘qqiga
Eltar yo‘lda, harna, izim qolibdi.

Yetib keldim “elliginchi bekat”ga,
Ko‘p narsaga ulgurib, ham ulgurmay.
Endi ahdim — faqat olg‘a, hamisha
She’r — duldulim suvliq chaynab shunga shay!

Kutayotir muzalarning gulxani,
Tog‘ boshida chorlar meni chirog‘i.
Ellik yoshim — avj pardaning marrasi,
Tobga keldi tulporimning tuyog‘i.

Qani, yo‘l ber, minbar menga muntazir,
She’rim malham tushunganning dardiga.
Yetishgaysan bunga manglay ter bilan,
Sovrin loyiq chavandozning mardiga!

KURASH MAYDONI

(Bemorligimda)

Tabiatim qiziq, ravon yo‘l qolib,
Xavf-xatarli so‘qmoqlarda izim bor.
Taqdir degan temirchi xo‘b toblagan,
Tegsa hamki toshga qaytmas mizim bor.

To‘pig‘imcha kelmas tog‘dek to‘siqlar,
Gar hatlasam, omad eshik ochadi.
Sohibchangal burgut ǫ‘zim, raqiblar
Hamla qilsam tumtaraqay qochadi.

Haqsizlikni ko‘rsam ko‘zim basirmas,
Yuragimda ojizlarga mehr bor.
Iymanadi nigohimdan ajal ham,
Qarog‘imda yonib turgan sehr bor.

Menga hayot — hayot emas kurashsiz,
Kurash umrim mazmuniga sarhisob.
Maydonni tark etma, zahmat, men uchun,
Senga mendan mangulikka shu xitob!

ABGOR MUHABBAT

Yigit kelar qo‘lda nozik guldasta,
Ishq kayfidan samolarda xayoli.
Otash yonar siymosida lovullab,
Ko‘z o‘ngida yorning qaddi-niholi.

Visol chog‘i chertar ko‘ngil torini,
Izhori dil so‘zi mushkin gulobday.
Muhabbatin tafti tegsa qiz emas,
Tog‘lar toshi erigunday simobday.

Ketdi majnun qiyo-qiyo qayrilib,
Lablarida bo‘sa ta’mi jo beshak.
Laylisi-chi, oshiq izi sovimay,
Begonaga bo‘lar, attang, hamto‘shak!

Yigit ketar... baxti qaro guldasta,
Dilim yig‘lar, tilim qodir so‘ylashga.
Bir gul so‘lib, biri masrur ishratdan,
Ikki gul ham oyoqosti o‘ynashga.

Yana kelar majnun, qo‘lda guldasta,
Tuyg‘ulari doshqozondek qaynagan.
Bo‘sa olib so‘rar yorning tilini,
Qaydan bilsin — kecha kimlar chaynagan?!

ALMASH CHOYBEKOVA

(1947–2017)

To'qtag'ul tumanidagi mashhur Ketmontepa qishlog'ida tug'ilgan. Jalolobod pedagogika bilim yurtini, so'ng Qirg'iziston davlat universitetining jurnalistika bo'limini tamomlagan.

O'sh viloyat qirg'iz drama teatrida aktrisa, bolalar tarbiyachisi, Davlat teleradioqo'mitasining muxbiri bo'lib ishlagan.

1981-yildan Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. "Oq bulut" nomli ilk she'riy to'plami 1979-yili nashr etilgan.

IZTIROB

Sutdek oq tonglarga qoqinib,
Sutdek oq bulutni yopinib,
Sevgilim kelishin kutaman,
Qop-qora ko'zlarin sog'inib.

Oq shu'la yog'ilar, qaqqaygan —
Cho'qqilar osmonga sanchilib.
Men o'yga cho'mganman g'am ila
Gunohsiz sevgimga achinib.

TOZAGUL ZOKIROVA

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira Tozagul Zokirova 1948-yili Jalolobod viloyatida dunyoga kelgan.

"She'rlar", "Sirli tuyg'u", "Bo'zto'rg'ayning navolari", "Muqaddas shahrim", "Olatog'im — Vatanim" kitoblari chop etilgan. Asarlari rus, ingliz, qozoq, o'zbek, gruzin, turkman va boshqa tillarga tarjima qilingan.

BAHOR FALSAFASI

Dil yayratib kelmoqda bahor,
Hatto tuproq hansirab "mavjda".
Novdalarda kurtak jilmayib,
Chigirtkalar xonishi avjda.

Sadqang bo'lay, kelgan ko'klamim,
Ko'plar ketdi sensiz armonda.
Qolaverdik olib qololmay,
Banda ekan ojiz, zormanda.

Yana ko'plar keldi "ingalab",
Hali g'am-u tashvishdan yiroq.
Ablah umrin uzunligin ayt,
Yashar o'zin sezib shamchiroq.

Baxil yashar yelib-yugurib,
Jonin fido qilib foydaga.
Muddaosi mansab, to'r faqat,
Elni farqlab katta, maydaga.

Dong‘i chiqsa biror yaxshining,
Zaharlaydi u ichar oshni.
Ko‘zi to‘ymay mahriga bosar
Go‘r ustiga uyilgan toshni.

Bahorning-chi, unda ishi yo‘q,
Avj oldirar ko‘klam to‘yini.
Quvonsin deb jonli mavjudot,
Taratmoqda gullar bo‘yini.

Bahor bilan toleyim tugal,
O‘ltiribman qo‘limda qalam.
Elga tilab bahoriy umr,
Shuning uchun menda yo‘q alam.

BOLALIKNING IZLARI

Bolalikning tovonlari
Ortda qolgan ma'sum iz.
Oyim bilan buvimning
"Dumi" edim — ermagi.
Xotiramdan o'chmas sira
Ular aytgan ertagi.
Toshbaqani erkalatib,
Silab, qo'lda ko'tarib,
Chang, to'zonli so'qmoqda
Qo'yar edim yo'talib.
Qir, adirda yo'rg'alagan
Omonmisan, qoqindiq —
Yoshlik izim — xotiram.
Sizlar bilan yashayapman,
Men baxtiyor, xotirjam.
Men sog'indim, sog'indingmi?
Qoldirganim bolalikda
Izlarimni qirma-qir.
So'qmoq yo'llar chirmovuq ham
Kalavadek chuvalgan.
Unda qolgan izlarimni
Eslayapman birma-bir.
So'qmoq yo'llar sizda muhr,
Bolaligim hislari.
Tuprog'ingda qolib ketgan
Tovonlarim izlari.

NEVARAMGA ILTIJO

Koshki bilsang soz bo‘lardi, Azamat,
Buvijoning ne o‘ylarga asira.
Gazetaga va’da qilgan maqolam
Yozilmadi, qolib ketdi kasringga.

Bilsang, bolam, soniyasi fursatning
Qarib qolgan buving uchun g‘animat.
Naq seningdek qaysar edi otang ham...
Men sizlar-chun bo‘g‘cha xodimasiman,
Mayli, shukr, xizmat qilgum beminnat.

Birin bitsam, birisiga ulgurmay,
Ketmoqdaman tortib ro‘zg‘or ko‘chimni.
Vaqti kelib chiqib qolsa o‘zingdek,
Bitta bolang olib berar “o‘chimni”.

Mening kunim tushar senga o‘shanda,
Buni hozir tushunmasing chakki-da.
Azamatim, qaysarliging urchitma,
Odamlardan qo‘yma meni dakkiga.

Horib qoldim turmush tashvishlaridan,
Tentak bolam, hisobga ol yoshimni.
Vaqti kelsa bitta tobutkashimsan,
Umring tilab, silayvergum boshingni.

“XAYR!” DEGAN SO‘Z

“Xayr!” degan so‘z labni kuydirib,
Vujuding o‘rtab, yaralar jonni.
“Xayr!” degan so‘z xarsang tosh kabi
Qalbim tubida manguga qoldi.

“Xayr!” degan so‘z erkingni olib,
Zulmatga mahkum sohilga boshlar.
“Xayr!” degan so‘z shafqatni bilmas,
Uzlatda ezib, ko‘zingni yoshlar.

“Xayr!” degan so‘z — ilohiy bo‘sa,
Jonni jo qilgan ikkita dudoq.
“Xayr!” degan so‘z — xilvat talab so‘z,
Gar qilsa nasib, aytaver uzoq.

“Xayr!” degan so‘z — naq bolning o‘zi,
Badhazm taom, ortiqcha totsang.
“Xayr!” degan so‘z — og‘udan achchiq,
Aytmagan ma’qul ilojin topsang!

“Xayr!” degan so‘z — jonim ozig‘i,
Eng maxfiy sirim undadir pinhon.
“Xayr!” degan so‘z — koni mo‘jiza,
Asrga barobar bir lahza, bir on.

NU'MAN SA'DIY

(1949–2018)

Nu'man Sa'diy (asl ismi — Nu'mon Sa'dullayev) Laylak tumanida tug'ilgan.

Qirg'iziston Milliy universitetini bitirgan. "Otash", "O'n ikki lahza", "Kunning boshlanishi", "Pastlik va tepaliklar", "Yo'qolgan kun", "Nazm va navo", "To'marisbegim", "Qizil" singari she'riy va nasriy kitoblari nashr etilgan. Asosan rus tilida ijod qilgan.

Asarlari axloqiy-falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan.

O'LANLAR

O'lan, o'lan, o'lanim-ey, san'at ekan,
O'lanlarim umrimga qo'sh qanot ekan.
O'lan aytgan shoirlarning yuragida
O'zgacha bir yorug' yulduz hayot ekan.

* * *

Xizmatingni qadrlaydi oshing qolib,
Ko'zlaringni maqtab yurar qoshing qolib.
Pullaringga sig'inadi boshing qolib,
Mansabingni ulug'laydi yoshing qolib.

* * *

O'z farzanding ishlarini maqtab yurgin,
Yomon kimsa bad amalin taxlab yurgin.
Yaxshi oqin she'rlarini yoqlab yurgin,
Yaxshi inson yaxshiligin saqlab yurgin.

* * *

O‘zgani ham o‘zi kabi suygan yaxshi,
O‘zi uchun izzat-ikrom tuygan yaxshi.
O‘zing uchun qancha kuysang, o‘shanchalik —
O‘zgani deb joning o‘rtab kuygan yaxshi.

* * *

O‘tin uchun kesmoq bo‘lsang, daraxt mana,
Bir miriqib ichay desang, araq mana.
Ajabtovur ishlar qilding bir mahallar,
Hojatingga oxiri men yarabman-a?

* * *

O‘z ishingni o‘zgalarga ortmay yurgin,
O‘z kishingni birovlarga sotmay yurgin.
Boshqalarning jon sirini saqlab yurgin,
Yaxshi ishni duch kelganga maqtab yurgin.

* * *

Otadan saboq olgan o‘g‘il ish qiladi,
Onadan saboq olgan o‘g‘il o‘shqiradi.
Otasidan saboq olgan qiz ter sidirar,
Onasidan saboq olgan qiz yer supurar.

* * *

Qadamingni o‘ylab bossang, qadam yaxshi,
Qayg‘u bilmas, hur fikrli odam yaxshi.
Allaqaysi injiq zotga yondoshguncha,
Ma’nosi yo‘q so‘zni aytgan nodon yaxshi.

* * *

Zor-u nolon yashamoq — zor kishining ishi,
Keng dunyoga sig‘maslik — tor kishining ishi.
Bor mahali mard bo‘lmoq — har kishining ishi,
Yo‘q paytida mard bo‘lmoq — er kishining ishi.

* * *

Fe'li keng bandasi duo beradi,
Savdogari libos — mato beradi.
Urinib turg'azmoq bo'lsang ham, ammo
Farosatsiz kishi yota beradi.

* * *

Odamning komili ziyrak bo'ladi,
Suyanchiq bo'ladi, tirgak bo'ladi.
Otaning duosi quvvat va mador,
Ona so'zi oppoq tilak bo'ladi.

* * *

Qaytmas kishi tortinmasdan naqdin aytar,
Oqil kishi so'zni yaxshi yoqdin aytar.
Dono esa ishning o'zak-mag'zin aytar,
Tentak esa ezma so'zni tag'in aytar.

ASAN JAQSHILIQOV

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Asan Jaqshiliqov 1949-yilda tug'ilgan, qirg'iz va rus tillarida ijod qiladi. 1983–1985-yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil olgan. Ilk she'riy to'plami yigirma yoshida chop etilgan.

A. Jaqshiliqovning qirg'iz tilida yigirmadan ortiq, rus tilida o'n to'rtta, boshqa tillarda oltita nazmiy kitoblari chop etilgan. Uning "Tong gashti", "Yaylovda", "Ixlos", "Mehr", "Muhabbat bahori go'zal" to'plamlariga kirgan she'rlarini adabiyot muxlislari sevib mutolaa qilishadi.

2007-yilda Qirg'iziston Xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'lgan.

SHUKRONA

Koinot — bu mo'jiza,
Hayotda bor ming jilo.
Tog'lar boshi yuksakdan
Ko'rinadi beado.

Dori-darmon manbayi
Og'u ekan aslida.
Tamal toshi qo'yilar
Kuzda bahor fasliga.

Bir qo'ling bor olishga,
Bir qo'lingda uzatsang.

Aylangan kun-u tunni
Lol qolasan kuzatsang.

Osmoningda oymomo,
Ko‘z quvnatar ziyosi.
Charx urgan bu falakning
Yo‘q zavoli, adosi.

FOJIA

Qo‘ldan tushib ko‘k munchoq,
Gumdon bo‘ldi, eh attang!
Narxi edi osmonda,
Go‘zal qizning holi tang.

Izlab kirdik har yondan,
(Qarab turish uyat-da).
Xalal beradi shudring,
Soxta munchoq uvatda.

To‘zim bersin sabrga,
Izlay berdik erinmay.
Boylikning bori, yo‘g‘i,
Kulfat ekan u birday.

Topilishi dargumon,
Lek qaytmadik niyatdan,
Ko‘z nuri-yu halovat
Payhon bo‘ldi uvatda.

Baxtimizning zavoli
Boylik degan betamiz.
Yo‘q munchoqni axtarib,
Umrni boy beramiz.

MUSIBAT

Qumursqavoy kelar shoshib,
Qo‘lga olib oyog‘in.
O‘ng-u so‘lda ko‘rinmas
Ining — yotar qo‘nog‘i.

Tubsiz jarga duch kelib,
O‘ta olmay urindi.
Bir oh urib alamdan,
So‘ng qiblaga burildi.

Odimlari sustlashdi,
Xo‘b horigan siyog‘i.
Tirikchilik dastidan
Yo qarigan siyog‘i.

Bir kam dunyo tashvishi,
Jabr nozik ilikka.
Tun kirmasdan gugurtni
Tekkizsam der pilikka...

Yolg‘izlikning oldida
Barcha g‘urbat chikaro.
Qomati dol, boshi xam
Ketib borar bechora.

XOTIRA

Kechqurun asta borsammi,
Orzuga qilmay xiyonat.
Xayoliy mening hamxonam,
Bor bo‘lsang bo‘ldi salomat.

G‘am-g‘ussaga botganda,
Talpinar senga yuragim.
Visolga noil kezlarda
Sirimga sirdosh malagim.

Unutmas mening qo‘llarim
Tafting muhrin — issig‘in.
Armonsiz totdik visolda
Hayotning sehr, qizig‘in.

Hijronda seni sog‘inish
Dildagi dardning davosi.
Yo‘limni borar yoritib
Xotira, hislar ziyosi.

SHAYLO‘O‘BEK DUYSHEYEV

Shaylo‘o‘bek Duysheyev 1950-yili Norin viloyatida tug‘ilgan. Asarlari 1968-yildan boshlab chop etiladi. “Oftob”, “Loqaydlik”, “Aravadagi qo‘shiq”, “Shamol”, “Oltoy poyezdi”, “Sham”, “Oqindilar” nomli kitoblari nashrdan chiqqan.

Shoir “Manas” ordeni bilan mukofotlangan, B. Sarno‘g‘ayev nomli xalqaro mukofot laureati.

2005-yili unga Qirg‘iziston Xalq oqini nomi berilgan. “Ikki tog‘ kurashi” kitobi uchun Qirg‘izistonning To‘qtag‘ul nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

ONA TILINI UNUTGANLAR

Eng murakkab ishning ham yechimi bor,
Afsus, ba’zan haqiqat bo‘lur mag‘lub.
Changalzorning xudosi filgina emas,
Chivin degan ojiz ham yashashga mansub.

Daryoning ham boshlangan nuqtasi bor,
Chavandozning e’zozlagan taqasi bor.
Vodiydagi mittigina jilg‘aning ham
O‘z tilida kuylagan baqasi bor.

“Qirg‘izman” deb gerdayasan
Pala-partish raqsing bilan.
Basharamga tutun purkding,
Sigareting — nahsing bilan.
Millatni ham qilding zabun
Chalaqirg‘iz bahsing bilan.

Qirg‘izni aylantirding olqindiga,
Ming yildan mo‘l tarixni unutganlar.
Hech munosib emas sizga oppoq qalpoq,
Qirg‘iz emas ona tilin quritganlar!

Til yo‘qolmas, yo‘qolsa
Tilga qo‘sha yo‘qolar dil!
Tilga qo‘sha o‘g‘ling, qizing —
Avlodlar ham yo‘qolar, bil!

Tiling bo‘lsa, ro‘yi zamin seni olar tan,
Millatingning dovrug‘i doston bo‘lar.
Tili yo‘q xalq — o‘lik xalqdir tirik turib,
Tili yo‘q xalq yer bilan yakson bo‘lar.

Uying kuysa issig‘iga isinganlar,
Undaylarning topingani riyo — mulki.
Qirg‘iz emas qirg‘izni qirqqa bo‘lib,
Lek odamcha so‘zlaganlar — ayyor tulki.

Bedanaday “pistirma”da “bitbildiq” deb,
Bo‘rk ol desa, boshingni olgan shitob.
Ona tilga tupurib mansab uchun,
Eh, qanchalar manqurtcha kiygan niqob!

Mana, misol Muratning fojiasi.
Murat deydi:
“Aziz elim, tuzlug‘ingga tupurmayman!
Lek ilojim qancha mening?
Onamni tushunsam ham,
Ona til deganni hech tushunmayman.

Aziz elim, tuzlug‘ingga tupurmayman,
Lek ilojim qancha mening?
Tushunmayman she’ringni, qo‘mizingni,
Maqolingni.
Tushunmayman Qo‘shoying, Baqayingni!..

Sindirdim qobirg‘angni,
Rasvo qildim zotingni.
Zil qildim yuragingni,
Yuldirdim qanotingni...

Sen kimsan?
Ukammisan, og‘asanmi?
Kattamisan, bolasanmi?
O‘zgalarning tarixin bilgan bilan,
Bilmasman Manasingni!
Bilmam, mendan tonasanmi?!

Muratman men!
Do‘stlarim Murik deydi.
Ruslarning orasida “durak”man men,
Murik emas, Murat edim!..
Qirg‘izlarning orasida
Guruchdagi kurmakman men!”

Eh Murat, Murat, Murat!
Tiling bor-u, soqovsan!
Tili bor bo‘lgan bilan,
Qanchalar sen singari duduq bo‘ldi.
Ona tilin tilmochsiz so‘zlay olmay,
Qanchalari senday “suvsiz quduq” bo‘ldi.

Kemtigi bor farog‘at turmush emas,
“Yalt” etganning barisi yulduz emas.
“Bilamiz” deb ko‘ksiga urgan bilan,
Ona tilin bilmaganlar qirg‘iz emas!

Gar parvozga yaramasa qanot emas,
Botirlarning barisi ham Manas emas.
Xalqdan tonib, ona tilin unutganlar
Xon bo‘lsa ham, bu qusurdan xalos emas.

Til yo‘qolmas!
Gar yo‘qolsa, yo‘qolib dil,
Avloding-u
Tamal toshing yo‘qolar, bil,
Sendan qolar
Hovuchgina beqadr chil!

Millatning ildizi-yu mevasi ham
Faqatgina tildan olar hayot-nafas.
Tili yo‘q xalq — tirik murda, sharpa, xolos.
Tili yo‘q xalq mangulikka bo‘lar abas!

JENGISHGUL O‘ZUBEKOVA

Bugungi qirg‘iz poeziyasining yetuk vakillaridan biri Jengishgul O‘zubekova Issiqko‘l viloyatida tug‘ilgan.

U videofilmlarda rollar ijro etadi, poeziya va dramaturgiyada mahorat bilan qalam tebratadi.

Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

ERKDAN MAHRUM QILMASIN

Chakka o‘tar yomon uyim tomidan,
Men ularga qo‘yib chiqdim kosa, lagan.
“Chak-chak” ovoz mening uchun ilohiy kuy,
Ilhombaxsh, hislarim erkalagan.

Etak silkib ostonasi tillo uyga,
Chiqib ketdim tupurib men barchasiga.
O‘z ishimdan o‘kinmayman, lek o‘kingum
Umrimning unda qolgan parchasiga.

Qancha she’rlar qazo qildi ruhsizlikdan,
Dosh berolmay zil taqdirning qamchisiga.
Qafasdek oppoq saroy, siym-u zarni
Alishmayman yomon uyim tomchisiga.

KO‘HNA UDUM FOJIASI

Shartta ushlab katta ko‘chadan,
Zo‘rlab olib keltirdik qizni.
Ko‘hna udum qonuni shunday,
Kim gunohkor qilardi bizni?

Peshonangga yozgani shu deb,
Yoppasiga o‘rtaga oldik.
Qiz xohishi bizga bir puldir,
Shohi ro‘mol boshiga soldik.

Qiz bo‘zlaydi sevganim bor deb,
Tug‘yon urar ro‘mol soldirmay.
Olib qochgan gumroh to‘dani
La’natlaydi birin qoldirmay.

“Baxt qushi qo‘ndi boshingga”,
Deb qaytadan ro‘mol solamiz.
Uloqtirsa ro‘molni yana,
“Noshukr!” deb qarg‘ab qolamiz.

Mung‘ayadi shohi go‘shanga,
Avjga chiqar taloto‘p, “bozor”.
Qurbi yetsa qilib ketardi
Gumrohlarni barin bir mozor.

O‘tdi tun ham qo‘rqinchli tushday,
Armonli tong otmoqda asta.
Bechora-chi, najot axtarib
Derazaga boqar shikasta.

Xazon qildi pokiza gulni
Ko‘hna udum degan kasofat.
Qismat, uni avayla endi,
Qolgan umri senga omonat.

GO‘SHANGANING ILK OQSHOMI

Qiz keldi kelinlik libosda,
Buyursin yangi bu ostona.
Shodlikdan ismin ham topolmay,
Baxtidan quvonchda qaynana.

Go‘shanga mavjida ajib sir,
Kelgan el havas-la tikilar.
Kelinchak ta’zimda barchaga,
Navnihol qomati bukilar.

Asira hislarning domiga,
Uyalar yoshlar-u qaridan.
Shumtaka qaynilar o‘g‘rincha
Mo‘ralar chimildiq baridan.

Xo‘rozlar xonishda — tong yaqin,
Oy suzar muloyim samoda.
Baxt tilab kelinga qo‘noqlar
Ketishar, qo‘llari duoda.

Qo‘sh yostiq yonma-yon bitta joy,
To‘shaldi yangalar mehridan.
Ilohiy ne’mat bu — oila
Tug‘ilsa muhabbat muhridan.

Titraydi visol nasmidan
Pok g‘uncha bilan bolari.
Tong otmay tursa qaniydi,
Charx urmay Yerning mehvari.

ARMONING O‘ZIM

Harir ko‘ylak kiyib har kecha,
Tushlaringdan ketmayman olis.
Qo‘ling yetmas qoyalar uzra,
Shu’lam chorlar — sehrli fonus.

Pardoz-andoz qilib binoyi,
Erta-yu kech ta’zimingdaman.
Kulsang kulib, yig‘lasang mahzun,
Alyor aytsang gar, bazmingdaman.

Vaslim nasib etib nihoyat,
Omad tilar bizlarga yanga.
Boshing ko‘kda — yoningda yoring,
Chorlab turar sirli go‘shanga.

Uyg‘onasan, barisi yolg‘on,
Men sen uchun manguga armon.

ABDUJABBOR EGAMBERDIYEV

Qirg'iziston xalq shoiri, tarjimon va tanqidchi Abdujabbor Egamberdiyev 1951-yil Issiqko'l viloyatining Tup tumanida tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetining filologiya fakultetini hamda Toshkent siyosat va boshqaruv institutining jurnalistika bo'limini tamomlagan. Ko'plab vaqtli matbuot organlarining rahbari bo'lib ishlagan. Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar uyushmasi a'zosi. Ko'plab she'riy kitoblari nashr etilgan. Qirg'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Aliqul O'smonov mukofoti sovrindori.

TUMORIM

(Qo'shiq)

Men sevsam-da, sen sevmaysan, Tumorim,
Yuzi oyday, qaro ko'zi xumorim.
Toshbag'irsan, yuragingda shafqat yo'q,
Ayasang-chi, mening sevgan Tumorim.

Tumorim, Tumorim, oh-oh, Tumorim,
Ayasang-chi, mening sevgan Tumorim...

Yuragimga olov solgan muhabbat,
Qayg'um bo'lib, hushim olgan muhabbat.
Sening oting, sening yoding, nigohing...
Dilda tumor bo'lib qolgan muhabbat.

Tumorim, Tumorim, oh-oh, Tumorim,
Ayasang-chi, mening sevgan Tumorim...

QAYTAR YO‘LING UNUTMA

Ketay deysan chet ellarga — olisga,
Qadr topmay, tushib qolding nolishga.
Tole qayda — buni bilar kishi yo‘q,
Bormikin u yaqinda yo olisda?

Mayli, dunyo chor tarafin kezarsan,
Mayli, dunyo gasht-azobin sezarsan.
Yaxshilar ham uchrab qolar ahyonda,
Yomonga ko‘p duch kelarsan, bezarsan.

Olis yerda biz bilmagan gaplar ko‘p,
Odam chidar, chiyraladi toblar xo‘p.
O‘ylab-o‘ylab olis qolgan makoning,
Tonglar otar, o‘talmagay xoblar ko‘p.

Ul olisga aniq bo‘lsa choparing,
Yo‘qotish — naqd, balki mumkin toparing.
Sog‘intirsa bunda qolgan bir kishing,
O‘ylandingmi ko‘zdan yoshing tomarin?

Begona yurt, shaylab turmas tortig‘in,
Ko‘rib uning kamchilig-u ortig‘in,
Borar yo‘lning tayinin xo‘p bilsang ham,
Qaytar yo‘ling unutmay yur, oltinim!

* * *

Izlasak bir-birimiz,
Bu dunyoning ne ishi?
Men — go‘yo bir orolda
Bir o‘zi qolgan kishi.

Uzun tunda ko‘z yummay,
Isming aytib, yodlayman.
Yigitlik esdan chiqib,
Ich-ichimdan dodlayman.

Bu dunyoning oshiga
Ilon og‘u solganday.
Ko‘kragim to‘la armon,
Faqat g‘ussa qolganday.

Qo‘msab gulday yanog‘ing,
Har kun-har kun kutarman.
Qalbing urishin tinglab,
Irning totin yutarman.

Sog‘inchlardan sarg‘ayib,
Qurg‘agan bo‘lsa sabrim.
Olov qilib yoqarman,
Yo‘qolar dardi, jabri...

TO‘RABAY JO‘ROYEV

Shoir To‘rabay Jo‘ro‘yev 1951-yili Laylak tumanida tug‘ilgan. 1972—1979-yillarda Moskvadagi adabiyot institutida o‘qigan. “Haqiqiy do‘st” hikoyasi 1966-yili bosilgan. “Iymon”, “Avaz” kabi 7 ta she’riy to‘plam muallifi. She’rlari rus, turk, o‘zbek, tojik tillariga tarjima qilingan. Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

PURHIKMAT KALAVALAR

Urchuqdagi kalavaday
Bu ona-Yer charx urar.
Oy nurini oshamlab,
Kun nurini shimirar.

Kalavada qo‘sh xislat,
Razm solsang, bu yog‘i:
Biri borar olislab,
Biri yetgan siyog‘i.

Tanga rohat bol qimiz,
Qonar zumda tashnalik.
Yorug‘ tongga intilar
Ona zamin, Quyosh ham...
Bor ularda shoshmalik.

Hayot yuki yelkangda,
Yugurasan quvganday.
Yer-u Oy kalavasi
Quvvat berib turganday.

Manzil olis, yo‘l turfa,
Hushyor bo‘lib qaragin.
Urchuqdagi kalavaday
Ezgu ishga yaragin.

Mayli, bo‘lsin murakkab,
Yo‘l-kalava ardoqli.
Ona-Yerning yukiday
Yuking bo‘lsin salmoqli.

MINNATDORLIK

Ilk tilagim, jonim, sening sihating,
El ichida obro‘yim — sof xislating.
Yo‘lak, tirgak, hayotim rishtasisan,
Jonga darmon, qalbim farishtasisan.

Ko‘p avaylab kelmoqdasan, omon bo‘l,
Ruhim tushgan kulfatli har onimda.
Sen tufayli tozarib dil shishasi,
Quyosh porlar musaffo osmonimda.

Har so‘zimga javobing bo‘lgach “labbay...”,
Shohanshohday his etaman o‘zimni.
G‘ubori yo‘q pokiza ich-tashing-la
Hayotimga bag‘ishlading o‘zingni.

Xislatlaring yetkazmoqda kamolga
O‘zing nusxa voris o‘g‘il, qizimni.
Hisoblab hech adog‘iga yetolmam
Hayotimda qoldirgan pok izingni.

DULDUL PADARIMGA

Mangulikka yangrab turar ovozi,
To‘qtag‘ulim — padar, qirg‘iz yulduzi.
O‘zi — o‘rnak, so‘zi o‘chmas muhrdek,
Meroslari ezgulikning ildizi.

Rohatni kam, xo‘rliklarni ko‘p ko‘rdi,
Etik bilan kechdi talay suvlarni.
Bir she’rida kuylasa buyuklikni,
Bir she’rida musibat, og‘ularni.

Bir kuyida orzu, armon, ming qayg‘u,
Zamonaning zayli cho‘ng dog‘ ekan-da.
To‘qtag‘ulday Tog‘ yaratgan Olatog‘
Zamindagi eng buyuk tog‘ ekan-da.

Tog‘ elining tolmas uchqur dulduli,
Mangulikka tili qotmas bulbuli.
She’riyatga tashna bo‘lsa qay yurak,
Hanuzgacha sochib turar she’r nurin.

Zilol suvday qalblarga jo va lekin,
Dilga armon qismatining nolasi.
Bugun madhin tinmay kuylar To‘rabay,
To‘qtag‘ulning chindan kuyov bolasi[1].

[1] Muallif To‘qtag‘ulning yurtidan uylangan.

ANIQ TA'RIF

Shallaqi, badrashk xotindan
Botqoqda yotgan baqa a'lo.
Xitoyga ketgan temirdan
Vatanda qolgan taqa a'lo.

IT HURAR,
KARVON O'TAR

Jam bo'lishib jo'ralar,
Boshlar chog'i zo'r ishni.
Duoga qo'l ochganda
Devor osha tosh tushdi...

Tosh irg'itgan kim bo'ldi,
Qora niyat, kekchilmi?
Yo hasadgo'y, yugurdak,
Izg'ib yurgan epchilmi?

Mayli, qo'ying, ishboshi,
Xayrli ish boshlansin.
Irg'itilgan tosh savil
Poydevorga tashlansin.

INSONIYAT

Bir yurakdan muzlik ufursa,
Bir yurakda qaynoq harorat.
Keng maydonda birov yolg‘izdir,
Birov dorda osilib karaxt.

Birov kulib, qahqaha otgay,
Birov yig‘lar ichi ezilib.
Birov yetmay qoldi maqsadga,
Baxtin topdi birov kezinib...

Qumursqaday tinmay erta-kech,
Birov tinmay yig‘sa qishligin.
Birov borin to‘kib-sochmoqda,
Qozonay deb dilrabo ishqin.

Sonsiz yillar yuki tushovlab,
Salobati bosib ketmoqda.
Birov esa jonin qiynamay,
Manziliga oson yetmoqda...

...Uzun-qisqa umr safaring,
Chida, achchiq-chuchuk oniga.
Issiq joning tanda omonat,
Yetmoq baxtdir hayot tongiga!

Ulug‘ maqsad, o‘tli yurak-la,
Yengib uning kenglik-torligin,
Yitsang hamki shamolday izsiz,
Vatan qolsa — shudir borliging!

SONET

Ortingdan izma-iz borardim,
Sen beparvo ko‘ngil nolamga.
Singardi hayajon, dil dardim
O‘rim soch-u, har bir tolangga.

Chok-chok so‘kilsa ham bardoshim,
Vaslingni kutardim umidvor.
Topmasdim izhorning ilojin,
Sen-da holim sezmasding, nigor!

O‘ljasin boy bergan ovchiday,
O‘kinchlar limmo-lim dilimda.
Lek, fursat shiddatkor lochinday
Obketdi tutgancha belingdan...

Men-ku topdim afsus fe’limdan,
Sen-chi, baxt topdingmi yo‘lingda?

UYQU HAQIDA SHE'R

I

Siz miriqib uxlaganda,
Men yayrayman uxlamay.
Gohi yozuv... oppoq qog'oz,
Qalam uchlab paydar-pay.

Shirin tushlar ko'rasizlar
Uyqu ichra jilmayib.
Men nechundir yosharaman,
Siz borasiz ulg'ayib...

II

Men uyquning odatdagi
Qoidasin buzaman.
Men tun bo'yi uyqu bilmas
Oq tongdagi Muzaman!

Siz yoyilib uxlayvering,
Sizlarga huzur kerak.
Mangu uyg'oq yashasam, deb
Uradi shoir yurak!

* * *

Baxt uchun ham ko‘z yosh kerak,
Ko‘p yig‘lama hozirdan.
Yonajakdir go‘shangangda
Zoriqtirgan zangor sham!

Bo‘z o‘g‘lonni yigit atab,
El sevinar kezida,
O‘zing g‘uncha gulday yashnab,
Munchoq titrar ko‘zingda...

* * *

Pichan o‘rimidan charchab,
Uxlar qizlar dong qotib.
“G‘udurlashib” bo‘z bolalar
Uxlolmas tinchi ketib...

Oq bilakdan Oy uyalar,
Mo‘jaz gumbaz siynalar.
Goh qizishib, goh muzlashib,
Bo‘z yigitlar qiynalar...

* * *

Vaqt ayni tush. Qiz. Buloq.
U qirg‘oqda qo‘ychivon.
Yo‘rg‘a misol yo‘rtib yel,
Naqd tepada Kun posbon.

Suvga yetmay idishi,
Qiz egilar chamasi:
Aks etadi buloqda —
Oppoq ko‘krak... yoqasi!

Yondi yigit ko‘zlari,
Qizgina duv qizardi.
Nim jilmaygan yigitning
O‘yi gulzor kezardi...

Cho‘chigan qiz yalt etdi,
Qaqrab tomoq “qult” etdi.
Rangi o‘chgan qo‘sh chelak
Suvga to‘lmay, bo‘sh ketdi...

OQ RO‘MOL

(Qalbuga)

Sog‘liq — boyliging, desa,
Ishongay qiz-u ayol.
Bunga sabab boshingdan
Tushmaguvchi oq ro‘mol.

Azallardan poklik deb,
So‘ralib kelar oq ro‘mol.
Asrlarni qaritib,
O‘ralib kelar oq ro‘mol.

Ko‘k tangri,
Zamin o‘qi —
Ko‘rkday bo‘lgan oq ro‘mol.
Ahil elimga aziz
Bo‘rkday bo‘lgan oq ro‘mol.

Balog‘atga yetganni
Xumor qilgan oq ro‘mol.
Tuyg‘u to‘la ko‘ngliga
Tumor bo‘lgan oq ro‘mol.

Qora tunni yoritgan
Tong shu’lasi oq ro‘mol.
Keksalarni yoshartgan
Gul novdasi oq ro‘mol.

Turmushingga turumday
Tayanch bo‘lgan oq ro‘mol.
Yo‘qchilikda gul oziq,
Yupanch bo‘lgan oq ro‘mol.

Umr tongi otganda
Qutlug‘ yo‘lak oq ro‘mol.
Past-u baland martaba —
Rizqi bo‘lak oq ro‘mol.

Yoshlik o‘ti yonganda
Yulduz bo‘lar oq ro‘mol.
Ko‘z kuydirib qulf urgan
Qunduz bo‘lar oq ro‘mol.

Toliqqanda charchog‘ing
Yoza olar oq ro‘mol.
Bir boshingni o‘n qilar,
Bozor qilar oq ro‘mol.

Uyingga qut kiritgan
Farishtaday oq ro‘mol.
Xiyonatli ish o‘tsa —
Yarashmagay oq ro‘mol.

Vaqt-fursati yetganda
Kechirolgan oq ro‘mol.
Adovatni ko‘ngildan
O‘chirolgan oq ro‘mol.

Oltmish yoshdan oshganda
Asl bo‘lar oq ro‘mol.
Aql-hushing shoshganda
Aql bo‘lar oq ro‘mol.

Tiriklik binosiga
Poydevordir oq ro‘mol.
Yomonga — yot, yaxshiga —
Doim yordir oq ro‘mol.

SURMA KO‘Z

Chakkamga taqsam, degan,
Qirdagi loladeksan.
Kuydirmajon surma ko‘z,
Dildagi noladeksan.

Nayday kuylay deganman
Sen uchun tuyg‘ularim.
Buni sezmay, surma ko‘z,
Olding-ku uyqularim!

Tavakkal deb necha bor,
Uzatsam-da qo‘limni.
Noz qildingmi yoki or,
Adashtirding yo‘limni.

Ko‘zgu bo‘lsang, qaniydi,
Borsam tez-tez qoshingga.
Sen arazda tumtayib,
Savdo solding boshimga.

Bilganim shu: surma ko‘z,
Gul emassan chakana!
Nasib qilsa, albatta,
Taqadirman chakkamga!

MARQABAY AAMATOV

Shoir, tarjimon, publitsist Marqabay Aamatov 1953-yilda Qorag'ulja tumanida tug'ilgan. Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qirg'iziston xalq shoiri.

1975-yili O'sh davlat pedagogika institutini tamomlab, maktabda muallim, viloyat va respublika teleradioqo'mitasida muxbir va muharrir bo'lib ishlagan.

1981–1996-yillarda Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, so'ng raisi bo'lib ishlagan.

Qirqdan ortiq she'riy, publitsistik va tarjima kitoblari bosilib chiqqan. Qirg'iziston yoshlar mukofoti va Ozarbayjonning Mahmud Koshg'ariy nomidagi xalqaro mukofoti sovrindori.

IKKI XALQNING O'G'LI

(Tursunboy Adashboyev xotirasi)

Teng o'g'lisan o'zbek bilan qirg'izning,
Kichik she'rga qancha o'yni kirgizding.
Kitoblaring hech qo'lidan tushmaydi
Baxti kulgan har bir o'g'il va qizning.

Bo'lmasak ham bitta ota-onadan,
Deyishadi hamma bizni bir tuvg'on.
An'analar sendan ketdi ulanib,
Ulab ketsin endi uni har bir jon.

Og'irini, og'a, olib yelkaga,
Jon koyitib bizlar bir payt el desak,

Do‘stlik bog‘i gullab, mana, mevasin
Yosh nasllar totajakdir, zo‘r beshak!

Ruhing ko‘rib shodlanadi shularni,
Etadilar hali senga ko‘p ta’zim.
Sendaylarni unutmaydi el aslo,
Jonim og‘am, ey sevimli Ustozim!

OQSOCH O‘SHIM

Odamlarning fe’li yana buzildi,
O‘t chiqdimi oldi-berdi savdodan?
Nega qochdi egiz eldan ahillik,
Bu baxtsizlik ketdi qaysi xatodan?

Qirg‘iz, o‘zbek do‘st bo‘lgandir ko‘p asr,
Qiz olishib, qiz berishgan hamisha.
Qaydan chiqdi arazlashuv balosi,
O‘t ichida qolmagan hech bu go‘sha.

Oqsoch O‘shim, qolsang deyman O‘sh bo‘ydan,
O‘zbek, qirg‘iz avvalgidek do‘st bo‘ydan.
El nomidan doim qarg‘ish aytaman
Buzuqlarga fitna qilib o‘t qo‘ygan.

Qaydasizlar, O‘sh, Toshkentda uchrashgan,
To‘lib-toshib she’r o‘qigan do‘stlarim?
Qora kuchlar fitnasini fosh etib,
Yo‘q qilaylik qurol-yarog‘, o‘qlarin!

Ko‘chalarda qon oqmasin daryodek,
Yuraklarni vahimaga to‘ldirib.
Ishonch qaytsin o‘zbek bilan qirg‘izga,
Payrov qilsin choyxonada o‘tirib,
Barchamizga xosiyatli O‘sh ulug‘!

UCHRAMADIK

Nazar qilsam ba'zan taqdir yo'li ravon,
Goho shodman, yurakda qon jo'shib urar,
Asli o'zing, mehr-u ishqing jonga darmon,
O'tli nigohlaring olma jovdiragan.

Ko'ngling ochib kelmasang-da ko'zqiymasim,
Dil orziqar, ado bo'lmas armonlarim,
"Qani edi yoshlik bir bor qaytib kelsa,
Shunqordayin o'zim ilib ketar edim!.."

Xayolan sayr etib kezdim, dilim yayrab,
Shivirlaring eshitilar qulog'imga —
Kechikkan ishq bog'larida kezib nogoh,
Begim, qolding muhabbatning uvoliga!

But aylading g'arib umrim kemtigini,
Dil tozarib otayotir yorug' tongdek.
Attang, sendan oldin kelib adashganman,
Kechikdik biz, afsus avval uchrashmadik!..

ADO BO‘LSAM

O‘y-xayolim chigallarin yozolmayman,
Qandoq qilay, bu savdodan chiqolmayman?
Ko‘zlarining jodusiga cho‘kib ketdim,
Endi zabun ahvolimni naylayin man?..

Ayting, shul gul g‘unchasiga bo‘ylayinmi,
Yo kulgiga qolib, tomosha bo‘laymi?
Ayta olmas biror kimsa bu adashgan —
Muhabbatim taqdirini, naylayin men?!.

Ishqining oftobida kuydi jonim,
Yo‘l topolmay, qurib bitdi xonumonim.
Aytinglar-ey, do‘st-yoronlar ishq bog‘ida,
Qay oshiqni telba qilmas gul ifori?

Kim orzuga yetgay taqdir dovonida,
Yoki butkul g‘arq bo‘larmi ummonida?
Mendan o‘zga bir baxtiyor topilmasdi,
Ishq ayb bo‘lsa, ado bo‘lsam gunohida!

MEN

Yonganlarim balki endi ayb bo‘ldi,
Yoshlik faslim yiroqlashib, g‘oyib bo‘ldi.
Adashdim-ey, qaylarga men boshim uray,
Attang, afsus, armonlarim toydi yo‘ldan?!.

Bir chora yo‘q, sarsonlikdan kim qutqarar,
O‘rtanarman, ohlar urib bag‘rim yonar.
Qandoq qilay, alam ichra to‘lg‘onaman,
Ko‘kragini toshga urgan burgut misol.

Oh, mayliga armon bo‘lsin, qayg‘uray man,
Ko‘ngliga yo‘l topolmadim, naylayin man?
Olisdagi sohiliga intilguvchi,
Tog‘-u toshga bo‘yin urgan to‘lqindayman!..

Qanot qoqib, garchi xayolda ucharman,
Umid bilan bir quvonchga ko‘z tikarman.
Muhabbat, sen — qanday ulug‘, qanday buyuk —
Shoir qalbin hislar ila ko‘kartirgan!..

TAVAKKAL

Farqlay olmay tong otganin, kech kirganin,
Farqlay olmay o‘tli kezlarning so‘nganin,
Fasllarning mezonidan chetlab biroz,
Baxtli yoshlik kezlarimga qaytay dedim!

Bilaman men sochimda oq oralagan,
O‘tdi damlar lochin kabi qanot qoqqan,
Yo ertakni chinga aylantirmas taqdir,
Obihayot suvin tutmas buloqlardan...

Shunchaki bir armonlarim orzuladim,
O‘t yoshlikning qaytmasligin bilar edim.
Lek, naylayin keksaygan chog‘ muhabbatning,
Qarshisida boshim egik, tiz cho‘kaymi?!.

Goh gizlanib aybsinib, ne bo‘lsa ham,
Muhabbat bir yorug‘likka olib chiqar.
Go‘yo xanjar tig‘i uzra yuribman men,
Mayli, toyib, yiqilsam ham bor tavakkal!!!

ARMON BO‘LAR

Ko‘k lochinim ko‘k bag‘rida qanot qoqqan,
Bo‘ylaringni o‘xshatib goh erkalagan,
Yoshligimni yodga solgan armonlarim
Boshim uzra bor dunyomni qoplab olgan...

“Og‘a” degan ovozingdan aylanayin,
Xumorim hech yozilmaydi, netay armon.
Muhabbating kamonidan yaralanib,
Yuragimdan oqayotir har tomchi qon.

Sevdim, suydim xayolimda kuyib-yonib,
Ruhim aro yorishar ming tun-u kecham.
Muhabbatning lazzatini tatib ko‘rmay,
Bu dunyodan o‘tib ketgim kelmas hech ham!

Balki dilda yongan umid sarobmikin,
Yo kun kelar ham rohat-u bolin so‘rar?
Agar bir bor ishq sharobin totolmasam,
Kechayotgan umrim bekor, armon bo‘lar!

TUSHUNSANG-CHI

Biz aslida bu dunyoga bir mehmonmiz,
Biroz haddan oshsak — elda afsonamiz.
Jam bo'lingiz, sochilmayin, deydi donish,
Uchib ketgan qo'shiqlarim naylay hargiz?

O'zgalardan ortiq ko'rgan bandasiga,
Baxt-saodat yo'lida bir sinov bergan.
Asli meni shoir qilib yaratmoq-chun,
Taqdirimda farishtadek yaralgansan...

Kuyub-yonib, adashamiz, bir bandamiz,
Taqdir ajab sahnasida tomoshamiz.
Umrimizni fido aylab ne bo'lsa-da,
Borimizni muhabbatga almashamiz...

Munchalar ham sarsonasan, joning halak,
Qalbim ezar sizib-sizib javdirashing.
Tushunsang-chi, tiriklik hech arzirmikin,
Oqizmoqqa na bir tomchi ko'zda yoshing?!.

MUHABBATNING UVOLI

Sevganimdan qolgan mo‘jaz xotira,
Oq bulutday olam kezib ketarmi?
Yuragida sevgisi yo‘q odamlar
Yuragimni ezib-ezib ketarmi?..

Yerga sig‘mas armonimni ko‘l ko‘rib,
Bir qorayib, bir bo‘zarib o‘zgagar.
Darvesh misol bu dunyoga sig‘magan,
Telba yanglig‘ muhabbatim ne bo‘lar?..

Vulqon kabi otilgandi betizgin,
Muhabbatim sarson kezar oh urib.
Dilbilmaslar, anglamaslar tufayli
Jonidan ham kechar hargiz seni deb...

Charxi dunning kar bo‘lmagay qulog‘i,
Yuraklarning mungli, zorli savoli.
Agar inson kabi yashay bilmasak,
Muhabbatning kimga qolar uvoli?!.

TILAK

Karomati yolg‘on bo‘lgan dunyoda,
Tabiatni o‘zi kabi sevaman.
Bulbul kabi to‘kilganman qo‘shiqqa,
Buloqlarga o‘xshab shodon kulaman...

Oq bulutlar bag‘rin urur har yona,
Qay til bilan “sen mening” deb aytayin.
To‘rg‘ay kabi aylanib bir qo‘shiqqa,
Tog‘ qo‘ynida sen, deb yonib kuylayin.

Sen ertakdan chiqib kelgan sarvinoz,
Yuragimga lovullagan o‘t solgan.
Aks sadosi qulog‘imda jaranglab,
Bir tush kabi tutib bo‘lmas, yo‘qolgan.

Tun kechalar, zulmat aro jonimni,
Solmasaydi she’r dunyosin bulog‘i.
Sinmasaydi ohanglarning sezimi,
O‘tkir qilich toshga urilgan kabi!..

SEN IKKIMIZ

Charx aylanib umr fasli yozga yetib,
Yiqilgan har yona turarkan sirpanib.
Oh, armonim, armonginam, yolg‘izgina
Yoshlik payti kelmas ekan bir bor qaytib!

Qaytadan suvlar kelar daryo bo‘lib,
Gupullab avvalgidek soylar to‘lib.
Attang-ey, attang, attang, oh, birgina,
Umr qisqa, kechar ekan qaytmas bo‘lib.

Ammo, hargiz yurmasak-da tavba demay,
Umrimiz qumday sochib yo‘lga bilmay.
Goh qayrilib, goh yanglishib bir-birimiz
Izladik Odam ato, Momo havoday!..

Umidimiz so‘ndirmayin o‘t yoqamiz,
Bu yolg‘onchi dunyosiga tik boqamiz.
Ayamasdan kechiksak-da baxtimizdan,
Bir kun kelib bir ikkimiz uchrashamiz,
Bir kun kelib bir ikkimiz qo‘shilamiz!..

BAXTLI DAMLAR

Ko‘nglim to‘lib, isming shivirlab,
Sochlaringni ohista silab,
Muhabbatli ko‘zingdan o‘psam,
Ko‘ksimga bosh qo‘yding avaylab.

Bu olamda ochilsa gullar,
Yurakkinam jo‘sh urib ketar.
Sog‘intirib, sarson aylagach,
Kimlar murodiga yetkarar!

Balki sen ham orzu qilgandek,
“Jon aka!” deb, turarsan oydek.
Muhabbatning og‘ushida mast,
Diydor shirin, diydor mangudek.

Mendan baxtli inson yo‘q bugun,
Xayollarim, yayraydi ko‘nglim.
Kuyib-yonib, armonlar kechdik,
Ko‘zqiymasim, bebaho gulim!

KECHIRGIL

Qarashlaring ko‘z o‘ngimda, yaraqlagan,
Oydek chehrang quyosh kabi charaqlagan.
Oh, bu armon, yetmasa-da bir umrga
Banda bormi orzusiga talpinmagan?..

Bo‘lsa hamki ko‘p mushkulga ko‘nikkanim,
Huvullaydi bo‘m-bo‘sh uyday kechib kunim.
Bag‘ri kuygan bulbul yang‘lig‘ nola cheksam,
Bir beqadr ketar chog‘i ochiq ko‘zim.

Oh-u zorim tutib ketar “Oh!” urganda,
Quvonaman ko‘zda yoshim, eslaganda.
Peshonamga sig‘magandir bizning taqdir,
Nasib bo‘lmas nasibasi yetmaganga...

Umr ham bir tushga o‘xshash, eh, qarasam,
Kuyib-yonib, ayting kimdan baxt talasham?
Meni kechir, kechir jonim, naylay axir,
Umidingni, orzuyingni oqlamasam?!.

QANIYDI...

Qaniydi bo‘yingga bo‘y bog‘lab tursam,
Xayolimga o‘xshab quchoqlab tursam.
Nur kechib tong mahal menga intilsang,
Yel o‘pgan manglaydan dudoqlab tursam!..

Qaniydi eritsang gar, to‘ngib tursam,
Og‘ushimda oy misol to‘lib tursang.
Izmasin ko‘kragimning yechib tashlab,
Bolidan muhabbatning so‘rib tursam!..

Qaniydi... Kunim bo‘lib yonib tursang,
Shivirlab shirin so‘zing aytib tursang.
Ko‘zingdan, lablaringdan nozik suyib,
Qo‘lida ehtirosning qalqib tursam!..

Qaniydi... xomush bo‘lmay, kulib tursang,
Eshigin bo‘z uyimning chertib tursang.
Men uchun yaralganing ayon bo‘lib,
Men seni mangu, abad sevib tursam!..
Qaniydi!..

BULUTLAR

Bulutlar, sizni chorlar nega osmon,
Tashvishi mo‘l, dimiqqan bandasimon?
Umrning qisqaligin tuydirdinglar,
O‘kirib yig‘lagim bor bolasimon!..

Bulutlar, qay manzilga boryapsizlar,
Qay yerda yosh kabi duv tomyapsizlar?
Men quchoqlay olmayman qo‘msaganim,
Tog‘ quchoqlab sizlar-chi olyapsizlar!.

Bulutlar, to‘xtangizlar, to‘xtangizlar,
Tog‘dek uygan tolaga o‘xshaysizlar.
To‘sganday sizlar nurni, ko‘ngil hijil,
Odamlar, pok sevgimni to‘smangizlar!..

Shu’lani yashirmangiz, ziyo yetsin,
Cho‘ldan-da olislarga omon yeting.
Yelvizak quvalasa bu muhitdan,
Yetaklab qayg‘umni ham ola keting!..

To‘kinglar olam kezib yoshinglarni,
Shamolga, yelga urib boshinglarni.
Sizlarday ma’shuqamni olib qochar,
Taqdirning menda qasdi, haqqi bormi?!

QIMMATIM

Yuragim olib uchib hovliqmoqda,
Yo'l izlab, oh, ildamroq uchrashmoqqa.
Lablarim erib ketsin lablaringda,
Qo'llarim qadding qisib boz quchoqqa.

Xushini yo'qotarmi sog'ingan yo?
Hasratim tubi yo'qdir, ko'zim giryon.
Buyursa taqdir bizga — qo'shilarmiz,
Irmoqda qo'shilganday ikki daryo!..

Umidning shahrin buzib, vayron etma,
Hislarga g'avg'o solib hayron etma.
Bog'lanib bu Yolg'onga umr qolmas,
Qolsa ham mung, ohanggi she'r, dostonda.

Sir bosib, ibo tutar — imon bor-da,
Atrofda razm solib turgan bor-da...
Yaratgan kechirmasdir, bo'lsak agar,
Muhabbatning daraxtin keskanlardan!

* * *

Tebrandim ko‘ksim urib, tepsang, yurak,
She’rlarim madad berar bo‘lib tirgak.
Umrimda qalam, qog‘oz yo‘ldosh bo‘ldi,
Qo‘limdan tushmaganday ketmon, kurak.

Tabiat bahor isin yoygan misol,
She’r tuhfa qoltirsam deb surgum xayol.
O‘g‘limning jo‘n chiqqani hech gap emas,
Avlodning jo‘n chiqqani jiddiy savol.

AKBAR RISQUL

Davlat va jamoat arbobi Akbar Risqul 1953-yilda Kemin tumanida tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan.

Dastlab gazeta va jurnallar tahririyatida ishlagan. Uning "Kabutarlar baland uchadi", "Umid — hadik" va boshqa ko'plab she'riy to'plamlari hamda tarjima kitoblari chop etilgan.

1991-yildan mamlakat miqyosidagi rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan, so'ng elchi lavozimida Qozog'iston va Malayziyada bo'lgan.

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat arbobi, Qirg'iziston xalq shoiri.

INILARIM

O'ng qanotim misoli biri mening,
Chap qanotim misoli biri mening.
Qo'sh qaptolday qo'shlashib kirib kelar,
Bo'y-basti ko'rimli inilarim.

Bo'ylariga tikilib, niyat qildim —
Beklar chiqsin, inilarim, orangizdan.
Og'am yo'q deb o'kinmayman bu dunyoda,
Chunki o'zim sizlarning og'angizman.

Yaxshilikda sizlardan qolishmayman,
Yaxshi so'z, niyatimni bag'ishlayman.
Asqar tog'day ko'raman Asqarimni,
Omon bo'lsin Janishtoyim, Bayishtoyim.

XOTIRA

Otamni qo‘ydim o‘rniga,
Onamni qo‘ydim joyiga,
O‘limning haqligin keksalar
Eslatib turishar doimo.

Otang qartayganin bilmaysan,
Onang bukchayganin bilmaysan,
Keyin bu xatoni qaytarar —
Beg‘am bo‘y cho‘zishgan bolalar.

Yo‘q, bunday demaylik koyinib,
Ularning umr yo‘li xo‘b uzoq.
O‘lim haq, demakki, birodar,
Umringni bezagin yaxshiroq.

Otamning qabriga tosh qo‘ydim,
Onamning qabriga tosh qo‘ydim,
Vaqt o‘tib yemrilar temir, tosh,
Xotira qolajak, u — bardosh.

BISHKEK BAHORI

Bahor kelsa chiroy ochar Bishkegim,
Xayolingiz o‘g‘irlaydi nozlanib.
Qarag‘aylar emin-erkin bog‘larda
Qayinlarga intiladi suqlanib.

Kelib ko‘r-chi, Bishkegimni ko‘klamda,
Ko‘chalarin yomg‘ir yuvib o‘tganda.
Bir-biriga suyunchilar qiz-juvon
Gul yaproqlar yaproqlarni o‘pganda.

Jonga rohat, dilga davo bu onlar,
Ko‘chalardan o‘tib borar mehmonlar.
Yoshlaring-chi, bir-biriga qoqar im,
Bular bari — oshig‘ingdir, Bishkegim.

Dunyo kezib, ko‘p suluv shahar ko‘rdim,
Ammo sog‘inch hissi chulg‘ar tanimni.
O‘z yerini sevmagan kas hech qachon
Sog‘inmagay o‘rdasi — Vatanini.

London, Parij, Moskva — o‘z yo‘liga,
Bishkegimga hurmatimni bildirsam.
Barq uraver yashil shahrim, yosh qal’am,
O‘rda qal’am, qirg‘izimga bosh qal’am.

Jon-tanimiz birligi taqdirimdir,
Bahorda u muhabbatday erkali.
Bishkegimning oyog‘iga to‘shalgan
Olatog‘ning alvonrang lolalari.

QIRG‘IZISTON

(Vano Muradeli kuyiga)

Azaliy qirg‘iz elimiz,
Erkinlik izlab kelganmiz.
Do‘zaxni ham ko‘rganmiz,
Azobni ham ko‘rganmiz.

Yo‘limizni ko‘p to‘sdi
Tarixning ne-ne bo‘roni.
Zulmat og‘ushida qolsak-da,
Tug‘imizni tutdik yuqori.

Osmonda gar bulut ko‘rinsa,
Men seni o‘ylayman, Ota yurt.
Sen borsan, yuraman sherlanib,
Sen borsan, elim tinch, bag‘rim but.

G‘animlar xurujin qaytargan
G‘ayratli elmiz biz hur, omon,
Erk tug‘i hilpirab, qirg‘izim
Ko‘ksiga yel tegsin bu zamon.

NATYURMORT

Qora kofe.
Bir chaqmoq qand.
Bir burda non.
Chovgum qaynar. Piyola. Labi uchgan.
Turayin, yegulik mo‘l dasturxonda,
Quruq qolmay ertalabki nasibamdan.

Bir oy muddat. Bir nima yozmoqchiman.
Ammo... yil o‘tib ketar. Bitmaydi u.
Og‘ir mehnat peshonamda bor ekan-da,
Demakki, Xudoyimning buyrug‘i bu.

Quruq qolmay tongdagi nasibamdan.
Chovgum qaynar. Piyola. Labi uchgan.
Qaranglar, bu o‘zgarmas natyurmortga:
Qora kofe,
Bir chaqmoq qand,
Bir burda non.

YUZ O‘NINCHI MARSHRUT

Keng shaharni aylanib,
Xizmatga xo‘b shaylanib,
Yurardi bizning Bishkekda
Yuz o‘ninchi marshrut.

Qo‘shnilar kutar edi,
Kuttirmay o‘tar edi.
Tongda boshlangan bozor
Kech mahal bitar edi.

Ulug‘lar bilan birga,
Suluvlar bilan birga,
Besh-olti yil yo‘l bosdim,
O‘zim ham bu marshrutda.

Boy bo‘lib qopmiz, chog‘i,
Hamma yoqda o‘zgarish.
Marshrutning raqami
Naqd bir yuzga ko‘paymish.

Ma’murlar sal shoshdimi?
Yo raqam ham oshdimi?
Bu o‘zgarish sababli
Xazinamiz toshdimi?

MAOSH TEGSA

Maosh tegsa, ayg‘ir sotib olsammi?
Uni minib, Oyga uchib ketsammi?
Boylik nima? Bilmam, qanday yaralar,
Maosh bilan murodimga yetsammi?

Qulmat bu yil dabdabali uy soldi,
Oyjamollar arzon-garov mol oldi.
Yaqin do‘stim, dollar topib olganmi,
Dardanell bo‘g‘ozida orom oldi.

Yangi yilni kutish sizga osonmi?
Yangi zamon qimmatmi yo arzonmi?
Maosh tegsa, nima bo‘lsa bo‘lar deb,
Ayg‘irimda Oyga ketib qolsammi?

SEVIMLI QO‘SHIQ

Dilga yaqin, sevimli qo‘shiq —
El oldida aytilgan o‘lan.
Agar uni tinglasam jo‘shib,
Sehrlaydi ohangi bilan.

Yurakda hislarim toshmasa,
Olmasa buloqdan andoza,
Yaralmabdi sevimli qo‘shiq
Ma’sum go‘dak qalbiday toza.

Sehrli, yoqimli tuyg‘ular
Baxsh etmasa ko‘nglimga safo,
Yaralmabdi hali u qo‘shiq —
Ilk muhabbat kabi musaffo.

El oldida aytilgan o‘lan
Sel qiladi meni oshiqib.
Qani, ko‘kka yuksal, havolan,
Dilga yaqin, sevimli qo‘shiq!

OTA YURT O‘G‘LONLARIGA

(Nozim Hikmatona)

Men suymasam,
sen suymasang,
u suymasa,
Ota Yurtni kim suyar?!

Men kuymasam,
sen kuymasang,
u kuymasa,
Ota Yurtga kim kuyar?!

Men gunohkor,
sen gunohkor,
u gunohkor bo‘lmasin...

Yuragingda Ota Yurt deb yashnagan
mehr guli so‘lmasin!
Bir-birovga tish qayrashgan zamonda
Xizr bo‘lib yo‘ldoshing,
Olloh o‘zi qo‘llasin!

PALAPON BILAN ODAM

Mushtdekkina palapondan so‘rdim bir kun:
— Qish qahridan qochib yurar qushlar nechun?

“Chirq-chirq” etdi butog‘ida qushcha shu dam:
— Sen bandasan, chida, — dedi, — bo‘ronga ham!

— Javob bergin savolimga, — dedim yana, —
Og‘riqlarga yo‘liqadi nega tana?

U shunday der, qanot qoqib kenglik sari:
— Odam uchun sinov erur buning bari!..

O‘xshash chiqib o‘ylarimiz qish kunida,
Bizlar keldik bir fikrga qush tilida:

Taqdirga tan bermoq palaponga mosdir,
Kurashib yashamoqlik odamga xosdir!

UMID VA HADIK

Taqdir menga topishmoqday ko‘rindi.
O‘ylab-o‘ylab xayollarim bo‘lindi:

kim tarqatgan
yo‘qlov bilan bayotni,
kim yaratgan
o‘lim bilan hayotni?!

Topishmoqday bir berilgan umrni
anglay deya, qirq qoburg‘am egilar:

shodlik nadir,
alam nima —
kim bilar,
to‘r va go‘r ne,
yurak sho‘rlik
siqilar?!

Taqdir chigal!..
Totimasdan talx mayni,
netar chalsam karnay ila surnayni?!

Yashar shodlik bilan qayg‘u
yonma-yon,
egizakdir umid-hadik
begumon!

TOMCHILAR

Rafiqam Pakdenayga

Tomchilar mo‘ltirar uzumday,
tomiri uzilib-uzilmay...
Hovuchimni to‘ldiray deyman,
sababi sezilib-sezilmay.

Naqorat:
Derazam yonidan uzilmay,
tomchilar mo‘ltirar uzumday,
uzsam-da qo‘limni tekkizmay,
so‘ng bersam birgina o‘zingga-ay!

Taqdiri kengmikin yoki tor,
tomiri yo‘qmikin yoki bor?..
Derazam yonida mo‘ltirar
tomchilar... tomchilar... tomchilar...

Naqorat:
Derazam yonidan uzilmay,
tomchilar mo‘ltirar uzumday,
uzsam-da qo‘limni tekkizmay,
so‘ng bersam birgina o‘zingga-ay!

Tomchining ko‘zyoshi xumormi,
“chak” etib to‘kilmay turarmi?
Bo‘yningga taqolsam tip-tiniq
tomchidan yasalgan tumorni.

Naqorat:
Derazam yonidan uzilmay,
tomchilar mo‘ltirar uzumday,
uzsam-da qo‘limni tekkizmay,
so‘ng bersam birgina o‘zingga-ay!

ABDILAAT DOUROV

1953-yili Botken viloyatining Laylak tumanida tug'ilgan. 1988-yilda Qirg'iziston davlat universtitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan.

1989-yildan beri Laylak tumanining "Alg'a" gazetasida bo'lim mudiri va muharrir bo'lib ishlab keladi.

Bir necha she'riy kitobi nashr etilgan. Qirg'iziston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosi.

UCHLIKLAR

Manglayidan ter quyilib,
Ko'za yasab o'tiribdi bir odam.
Zamon zavol topgay,
deb uqtirgan kim?!

* * *

Bemorman.
Tomirimni ushlab ko'radi tabib.
Men kabi xastadir yangi asr ham.

* * *

Ismim aytib chaqirganday bo'ldi bir tovush.
Uydan shoshib chiqib qaradim:
Olma shoxlariga ilinibdi Oy.

* * *

Bu yoz qurg'oq keldi har yilgidan,
Yaproqlari qovjiradi har bir og'ochning.
...Arava sudraydi oriq ot.

* * *

Qamishzorda yurgan qoplonday,
Bulut ichra ko‘rindi —
Oy.

* * *

Darvoza, eshigim ochiq.
Yuragim — dargohim ham.
Kel, qo‘nog‘im.

* * *

Terakzor. Sirli go‘sha.
Kumush tanli baliqlar kabi
Quyosh nuri to‘kiladi shoxlar orasidan.

* * *

Ko‘zing — dengiz...
Tanimay turibman —
Qayiqdagi notanish odamni.

* * *

Birodar, bilmadim,
yo‘l oldim qayon?
So‘qir ko‘zim, kar quloqlarim,
Pishib yetilmagan bu boshim bilan.

* * *

Olcha guli turar yo‘limni to‘sib,
Shoyi ko‘ylaklaring singari oppoq —
Bulutlar o‘tadi tog‘ni aylanib.

* * *

Oh! Mittigina, nozik yashillik,
Umrimni yoshartib, uzaytib,
O‘ralsam bo‘yningga iforing bo‘lib...

* * *

Samo yulduzlari
Kirib keldi bir-birin boshlab.
Bir xonaga sig‘dik hammamiz.

* * *

Ulkan yig‘in.
To‘ydaman.
Unim o‘chgan, noxush o‘ydaman.
Qo‘rqaman ichimdagi it ulishidan.

* * *

Tosh nolasini eshitdim tutib quloq.
Qayg‘usi qaynab turar —
Buloq, buloq, buloq.

* * *

Uxlamay yotibman xayol surib.
O‘chirmadim hatto shamni ham.
Subhidamda sayradi kakku.

* * *

Ota, Sizday pand-nasihat
Qilmas menga hech kim, bilaman.
...Qarshimda oysiz tun.

* * *

Oqdim osmon, yer bilan,
Oqdim mazgil, yel bilan
Miltiragan shudringday.

* * *

O‘zing boqib, anglab yet, bolam,
Bir og‘och ildiziga
Ming daraxt bog‘langanin.

* * *

Tuproqqa aylanaman maydalanib.
Yoz guli, maysa o‘sar yozib tomir,
O‘z lafzida tiriklikka aytib yangi she’r.

* * *

Shirin so‘zga aldangan qizday,
Yanvarning oftobida
Gul ochibdi bodom niholi.

* * *

Azim daryo oqar yoyilib,
Yoyilgandir o‘zan, dalada.
Yoyilgin jonim, sadag‘a.

* * *

Azizlar, sizlarga ko‘z bo‘layin,
Karlarga quloq,
Dahri dunga buloq.

* * *

Bu dunyo — yolg‘onu,
Tugamas armonu,
Hech tugamas shalg‘ami bilan.

* * *

Deraza sirtiga urilar yoz yomg‘iri.
Dilimdan sizadi sog‘inch yoshlari.
Ko‘pi o‘tib,
qoldi umrning ozi.

* * *

Kul ostida kumushim bor,
Qor ostida — oltinim.
Sir-asrorim pinhon jonim ichida.

* * *

Cho‘qqiga qo‘nib o‘tirgan
Burgutni bugun yo‘qotdim.
Tugagani shumi ertakning?

* * *

G‘aroyib tush buzdi mening uyqumni.
O‘tiribman darvozaga ko‘zimni tikib,
Deraza raxiga yelkamni tirab.

* * *

Olis yo‘ldan toliqib, chanqab keldim-da,
Umr oqqan, she’r ǫqqan
Chashmadan suv ichdim hovuchlarimda.

* * *

Hayotimda ko‘p yanglishib, aldandim,
Tushovdagi tulpor kabi bog‘landim.
Yelni quvib, oq bulutday haydaldim.

ATAQUL JAQIPOV

1953-yili Laylak tumanidagi Isfana qishlog'ida tug'ilgan. O'sh davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. Tuman "Alg'a" gazetasida muxbir, bo'lim mudiri bo'lib ishlagan.

Ko'pgina she'rlari rus, o'zbek, tojik tillariga tarjima qilingan, xalq ta'limi a'lochisi.

SHOIR BULBUL

Hasrat olovida qovrilib qancha,
Ko'zim yoshlarini tiymadim qilcha.

Bir musofir kabi yukundim yig'lab,
Mung'aygan jonimni baliqday tig'lab.

Bormikan dunyoda men kabi suygan,
Vasling orzusida bu qadar kuygan.

Majnun edim balki, yurdim ezilib,
Qayg'u arig'iday turdim buzilib.

Sen esa balandda, hur, go'zal eding,
Men bir buloq bo'lsam, sen o'zan eding.

Ochilgan gul kabi kulgan chog'ingda,
Oshiq bulbul edim har tong bog'ingda.

To'liqib sayradim tunda uyg'onib,
Xumorim qonmadi, tursam ham yonib.

Bulbulning tili ham qotdimi deyman,
Qayg‘usi jonimga botdimi deyman.

Shoirning tuyg‘usin his qilmay turib,
O‘tding unga emas, she’rga yuz burib.

Majnuntol egildi — qayg‘udan nishon,
Muloyim sochlaring gullamas... armon.

Bulbul-qush qaqshaydi, qayg‘usi tanda,
Baxt topmas musofir o‘zga vatanda.

Azobga soldimi... sevgisi yolg‘on —
Ul boyoqish qayerda turgandi pinhon.

Asir tushgan jonday armonda qolib,
Muhabbat sozini har tongda chalib.

G‘ussasi yurakka sig‘masdan toshib,
Qayg‘uni ohangga solgan der shoshib.

Jamoli gul kabi ochilgan suluv,
Oydinda ko‘ngilga solgaysan g‘uluv.

Tun chog‘i ko‘ksini tuproqqa bergay,
Shoiring seni deb, seni deb o‘lgay.

O, go‘zal, suluv qiz, chehrasi tiniq,
Seni deb jismimning yuragi siniq.

Uchsa ham falakda aytolmay sirin,
Tinglagin gohida turnalar she’rin.

Anglab yet oshiqning dardini, alhol,
Bilmagan jonlarga ne deyin... mahol.

Muhabbat nimadir, yomg‘irmi ko‘kdan —
Yog‘ilib suluvning chehrasin o‘pgan?

Muhabbat degani azobdir, mahzun,
Ishq baytin yozadir birgina Majnun.

Sevgi gullarini yurakka taqib,
Tunda ham yorishib turgaysan boqib.

Oq yuzing oymidi, nurli quyoshmi,
Holsizman, hadikdan ko‘zimda yoshmi?

Qo‘lim yetmas yerda moh eding — yorug‘,
Anduhga belandim, ko‘kragimda tug‘.

Oy bo‘lsang, chindan ham yetmaydi qo‘lim,
Oppoq shu’la sochgin, yorishsin yo‘lim.

Kun bo‘lsang, shubhasiz, tunlarni qorib,
Axir yurmasmidim tushimda ko‘rib.

Qizg‘aldoq singari ko‘zing cho‘g‘lari
Kuydirib bormoqda qorachiqlarni.

Qizg‘aldoq singari xush bo‘ying anqib,
Ko‘zlaring bunchalar turadi balqib.

Atlas ko‘ylak bilan oq shoyi nimcha,
Oshiqning ko‘zlarin o‘g‘irlar muncha.

Boychechakday bo‘lib yashnagan ko‘zing
Qorachig‘i chaqnar... qurbon yolg‘izing.

Oyjamol parisan, bir jonsan asil,
Meni adashtirib turgan muttasil.

Jamoling munchoqdir, belingni sirib,
Qo‘ng‘iroq ovozin yurakdan surib.

Shaftoli guliday pushti ko‘ylakda
Kelasan sen mening ko‘zim o‘ymoqqa.

Eng chiroyli gulim, isingni sochding,
Tong nuri misoli bog‘imni ochding.

Tilagimdan ajib munchoqlar taqib,
Ishq ahlin kuydirding o‘t-olov yoqib.

Har oqshom qaytadan chulg‘anib g‘amga,
Sharpangni izlayman boqib olamga.

Oppoq tong nurlarin taratgan chog‘da,
Atirgullar atrin anqigan bog‘da.

Qizargan shom kelib, botganida kun,
Og‘riqdan dilimda paydo bir tugun.

Tuyg‘uga chulg‘anib, yo‘lingga boqib,
Suv bo‘lib o‘tarman oldingdan oqib.

Go‘zal yuzin nurga chayib olgan qiz,
Yoshlik ham o‘tadi, qolursan yolg‘iz.

Bugun sog‘inyapman, suyukli dildor,
Xumorim kun sayin ortadi takror.

Sensiz aftodahol, sensiz yolg‘izman,
Yuragimga tushgin, mitti yulduzsan.

Mening baxtim uchun cho‘lponday porlab,
Pirpirab nur sochgin o‘zingga chorlab.

Jimirlagan daryo bo‘yiga kelib,
Yuzduzli tunlari sochingni o‘rib,

Intizor oshiqqa hayot ber, qalbim —
Yashnagay, labingda erisin labim.

Ey gulim, vaslingni sog‘ingan paytda,
Kelurman, o‘lsam ham tirilib qayta.

Qorachiqda qolgan tasviring uzmay,
Qaytib uchib kelar oq qushlar kuzda.

Osmonni to‘ldirgan qushlarga boqib,
Orzuyim uchadi qanotin qoqib.

Jildirab oqqan ul qo‘ng‘iroq unli
Izg‘iringa belab yulduzli tunni.

Oppoq marjon munchoq to‘kilib ko‘kdan,
Oyning nuri bo‘lib yuzingdan o‘pgay.

Muhabbat yashaydi yurakda o‘ktam,
Muhabbat yashagan ko‘ngilda — ko‘klam.

ABDURAHMON ALIMBOYEV

1956-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetining tarix fakultetini bitirgan.

Shoirning o'nga yaqin kitoblari nashr etilgan.

TURON ZAMINI

Ulug' tog'dan boshlanadi Sirdaryo,
Suvlari cho'ng qoyalarga bulanib.
Biz Turondan kelayapmiz qadimiy,
Biz Turonga borayapmiz ulanib.

Bu aymoqda qirq ulug' el yashagan,
Bir zamonlar ot o'ynatib alplari.
Bu yer azal qirg'iz yurti atalgan,
Bu ko'k azal o'g'uzlarning minbari.

Ushbu maydon uzra chopgan ko'chmanchi,
Ushbu cho'ldir telba-terslar o'tgan cho'l.
Mana bu tog' — sig'ingan tog' o'g'uzlar,
Mana bu ko'l — yulduz qaynab cho'kkan ko'l.

Quyosh sachrab chiqqan yerga yetguncha
Bari o'g'iz ellarining makoni.
Kun botishi Karpat bilan cheklanar,
Bir yoni hind, eroniylar bir yoni.

Qancha yovqur bobolarim jon berdi,
Vatan qo'rib ketdilar tinch uyquga.
Turon bizning azal ota yurtimiz,
Turon bizning makonimiz manguga.

Ulug‘ tog‘dan boshlanadi Sirdaryo,
Suvlari cho‘ng qoyalarga bulanib.
Biz Turondan kelayapmiz qadimiy,
Biz Turonga borayapmiz ulanib.

ARG‘UMOQ OT

Jarda qashqa tulpor otim,
Tusing — qizil oltinday.
O‘rim-o‘rim yoling sening,
O‘rlaguvchi yolqinday.

Ota-bobo yo‘lin ulab,
To‘siqlarni buzaylik.
Oltin yugan solgan otim,
Oyni ko‘zda chizaylik.

Ikki ko‘zim kulgu sochib,
Gullab tursin quchog‘im.
Kumush yugan solgan otim,
Kunday bo‘lsin uchmog‘im.

Seni ko‘rib dushmanlarning
O‘chsin sariq turqlari.
Dupuringdan dengiz to‘lib,
Zir titrasin Yer shari.

Bor Osiyo oralab,
Mag‘rib tomon boraylik.
Bobolarning izi bilan
Yovqurlikka yaraylik.

Otlig‘ ellar kelmoqda deb,
Jo‘shib xabar beraylik.
Chu! Jonivor! Arg‘umog‘im —
Yer aylanib kelaylik!

ZINAQAN PASANOVA

1956-yili O'sh viloyati Olay tumanida tug'ilgan. Zinaqan Pasanova "Ayol siri" (1998), "Yomg'ir tog'dan boshlanar" (2001), "Sehrli tunlar" (2006), "Besh yil" (2008), "Akademik Tekenov" (2008), "Urushqoq g'ozlar" (2008), "Sirdosh yomg'ir" (2011), "Lahza" (2013), "Do'st", "Og'rima, yurak" (2014), "Men izlagan baxt" (2020) kabi kitoblar muallifi. Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Qirg'iziston maorifi a'lochisi. Jo'lo'n Mamitov nomidagi davlat mukofoti laureati. Yusuf Xos Hojib nomidagi xalqaro mukofot sohibasi.

Asarlari ko'p tillarga tarjima qilingan. Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

QO'LINGNI BER, EY YAXSHI ODAM

Qo'lingni ber, ey yaxshi odam,
Iliqlik ber mening qalbimga.
His etayin sening mehringni,
Darmon bo'lgin mening dardimga.
G'alvalardan to'ygan boshimni,
G'alvalardan xalos etgin sen.
Tabiatim, xulqim o'zgarsin,
Meni nurli yo'lga eltgin sen.
Dovonlardan oshayin qo'rqmay,
Ishonayin erkim, kuchimga.
Qo'lingni ber, ey yaxshi odam,
Ishonolmam boshqa hech kimga.

GO‘ZAL TONG

Dilga farah ato etdi tongning nuri,
Iztirobdan boshim egib turganimda.
Kayfiyatim ko‘tarildi, yuzim kuldi,
Tong haqida go‘zal hayol surganimda.
Dilga farah ato etdi quyosh nuri,
Va bir zumga unutdim men turmush g‘amin.
Yuragimni tashvishlardan etdim xalos,
Yoqib qo‘ydim yuragimga umid shamin.

FARZANDIM DEB

Farzandlarim og‘rimasa, yuragim tinch,
Ona qushman, javobgarman ular uchun.
Ular bor-chun yuragimda yo‘qdir o‘kinch,
Qanot qoqib, uchgaydirman ular uchun.
Shod-u hurram yashasalar ko‘nglim tinchdir,
Farzandlarim — dardlarimga erur davo.
Men ularning saodatin tilagayman,
Har saharda Yaratganga qilib duo.
Ona-bola bu hayotning bezagidir,
Quyoshdan ham kuchliroqdir ona mehri.
Mehnat qilib ikki o‘g‘il o‘stiryapman,
Ikkisi ham el-u yurtning bo‘lgay faxri.

MEN BOYMAN

Men boyman, yuragimda iymonim bor,
Olisman boylik, mansab xumoridan.
Taqdirim menga baxtni ato etgan,
Topsin deb hayot sirin ash'oridan.
Men boyman, qo'ldan tushmas qalamim bor,
Hislarim, tuyg'ularim she'rga oshno.
Samimiy, umrboqiy she'rlar bitib,
Yashayman, yuragimga berib oro.
Men boyman, o'lmas-o'chmas hunarim bor,
Yuraklarga yetib borar so'zlarim bor.
Vaqti kelib, chin dunyoga safar qilsam,
Qayta-qayta o'qilguvchi she'rlarim bor.

SOYALAR

Yuragida jur'ati yo'q odamlar,
Yashashmoqda aylanishib soyaga.
Qo'rqib yashab, quyoshga ham qarolmay,
Boshlarini urishmoqda qoyaga.

Kurasholmay haqiqat kurashida,
Yurishibdi ko'lankaga aylanib.
To'g'ri so'zni, haq so'zni aytolmasdan,
Yashashmoqda, ohlar chekib, o'ylanib.

Soya bo'lib kun ko'rish orsizlikdir,
Afsus, juda ko'paymoqda soyalar.
Ular yursa zamin yig'lar, bag'ri qon,
Ulardan or qilar hatto qoyalar.

* * *

Ey do‘stim, bizga yo‘ldosh iztiroblar,
Hayotdan izlamaymiz oson yo‘lni.
Hayotning yarim qolgan so‘zlarini,
Tugallaymiz, so‘zlarga ochib dilni.

Shodliklarga to‘la kechalarni biz
O‘chirib tashlaymiz dil kitobidan.
Ikkimiz so‘zni tug‘ tutib yashaymiz,
Rohat olib hayot iztirobidan.

BURULQAN QARAG‘ULOVA

1957-yilda tug‘ilgan. Qirg‘iziston milliy universitetini tamomlagan. “Xayol kemasi”, “Yuragimni quvontirib ketding”, “Bu dunyo ko‘rklidir sevging bilan”, “To‘qtag‘ul ko‘li — ko‘zyoshim” kabi she’riy kitoblari chop etilgan.

Oshiqligim, sen
tomonga qayrildim!

* * *

Yuragim titradi,
To‘qqiz ballga.
Seysmolog tekshirib,
To‘qqiz emas, o‘n bir deydi.
O‘n bir deydi...
Uqdim-da, tars yorildim,
Titradi bor vujudim.
G‘isht kabi sinib tushdi,
Oyog‘im, qo‘lim, belim.
Ko‘zlarim chars-churs etib,
Tushlarimga sachradi.
Ko‘zimning sinig‘iga
Qara, yer qaynab qoldi.
Yoyilgan sochlarimning
Tartibi qayda qoldi?
O‘zimni topolmadim
Osmoniy bulutlardan.
O‘zimni topolmadim
Tumanli sukutlardan.
Boshimni izlab yotdim,
Bu qanday azob, dedim.

Boshimni topsam agar,
Dunyoni topar edim.

Seysmolog: o‘n bir ball!
Bo‘ldi, — dedi.
Tabiblar: Yo‘q, yolg‘on!
Sevdi, — dedi.
Hayyo-huyt! — deb ko‘z ochdim,
Tushim ekan.
Yuragim sokin yotar,
Tirik ekan.
Qara, zamin oppoqdir —
Qorda qolgan.
Yuragim soppa-sog‘dir —
Yorda qolgan.
Oq qorga yozib qo‘ydim:
Men sevgimni baralla:
“Yuragim zo‘r titradi
O‘n bir ballga!
O‘n bir ballga!”

* * *

O, qog‘ozlar, tuyg‘udoshim, ermagim,
Bugun sen bor, erta nedir ertagim?
Oq yuzingga qaro bo‘yoq tortdimi,
She’r atalgan beboshginam, tentagim?
O, qog‘ozlar, azobimda, yorligim,
Oshiqligim, sen tomonga qayrildim.
Oq so‘zimni libos etdim egningga,
Sen bor uchun yolg‘izlikdan ayrildim.
Sensiz yashab bo‘lar desa biror kim,
Ishonmasdan, ko‘z yoshimga o‘tingum!
Voz kechaman tungi shirin uyqudan
Hamda seni jim quchoqlab o‘ltirgum!

QANISHAY ABDIBALIYEVA

1957-yilda Botken viloyatining Qorabog‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. Pedagogika fanlari nomzodi. Qozon universitetining fizika fakultetini bitirgan. “Ko‘payish” kitobi, “Jonzirak” she’riy to‘plami nashr etilgan. Qirg‘iziston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

She’riy ijoddan tashqari, etnografiya masalalariga qiziqadi, mahalliy urf-odatlar targ‘iboti bilan shug‘ullanadi.

* * *

Qanot qoqqan baxtning qushiday
Xayolimni boshqaga burmay,
Qiziq o‘ylar ichra gul terdim,
Qizg‘aldoqlar yongan tandirday.
Xavotirda ko‘ngil yozilmas,
Sovuq qotgan elat qishiday.
Sog‘inchlarda o‘tgan tunlarni
Xotirlayman men ana shunday.

* * *

Onaning sutidek pokiza
Bo‘lgan qalb hamisha yuksakda.
Shodlikka burkangan dargohda,
Tug‘ilar norasda go‘daklar.
Fe’lingda bo‘lsa gap yorug‘lik,
Birlashgan jonlarni tamshantib,
Yaralur, ishongin, daholar,
Uyg‘onur hech yo‘qsa sham yoqib.
Yuraging baquvvat, salomat,
Yoshlikni maqsadga tukkanda.
Joningga oziqdir o‘ylamoq,
Ne yetsin donishmand tuqqanga.

ERKALI O‘SKO‘NALI

1958-yilda tug‘ilgan. Qirg‘iziston milliy universitetini bitirgan. Shoirning “Yillar — daryo”, “She’rlangan oy” kabi ko‘plab kitoblari nashr etilgan.

MUHABBAT QUSHI SAYRAYDI

Yurak yomg‘ir to‘kkanda,
Ey qiz, chodir tashlarsan.
Bir joduli jilmaysang,
Yil bo‘yi shod yasharman!
Oppoq libos kiygan yer,
Unda o‘zing men suygan.
Asra, senday oychalar,
Ko‘pni avrab o‘ltirgan.
Moviy libos kiygan yer,
Bunda o‘zing men suygan.
Esla, senday kunduzlar,
Ko‘pni aldab o‘ltirgan.
Yurak yig‘lab turganda,
Yuzing burma sen buncha.
Bir o‘ptirib qo‘ysang, bas,
Baxtiyorman o‘lguncha!

* * *

Qulog‘ingga tunda shivirlab,
Gul suratin chizdim so‘z bilan.
Qo‘ynimizda yulduz shig‘irlab
Qanot yozib uchdik ko‘k bilan.
Ko‘ksingdagi oppoq olmani
Ehtiyotlab, qo‘lim yayradi.
Lablaringga labim tekkanda,
Eh, muhabbat qushi sayradi.
Qor sochadi tashqarida qish,
Sen aprelni mendan qizg‘anding.
Oqarmagan tunlar oqargay
Oydek yuzi bilan qizlarning!

NURALI ABDIRAXMANOV

N. Abdiraxmanov 1958-yilda Novkent tumanidagi Cho'ng-bag'ish qishlog'ida tug'ilgan. O'sh qishloq xo'jalik texnikumini bitirgan.

Ijodi yoshligidan boshlanib, yozgan she'rlarini o'z muxlislariga "Bahor ayyomi", "Kumush tong", "Olisdagi izlar" to'plamlarida tuhfa etgan.

U Qirg'iziston Milliy yozuvchilar uyushmasining a'zosi, tumanning faxriy fuqarosi, bir necha ko'krak nishonlari va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Hozirda "Novkent jang'irig'i" gazetasida faoliyat yuritadi.

DAF BO'LSAYDI

Yaxshilar ko'p, lekin ular ichida
Ko'rinadi yomonlarning qorasi.
Sirti inson, ichi hayvon kaslarning
Boshim qotar, bormi biror chorasi?

Baxillarning o'ta tuban illati —
Kun nuri ham o'zgalarga noravo.
Ona yurtin bergan tuzin oqlamay,
Bo'lganlar bor o'z elidan mosuvo.

Kam bo'lsaydi fe'li buzuq kimsalar,
Odam nusxa niqobli beimonlar.
Havolatib Qirg'iziston dong'ini,
Mard ko'payib, daf bo'lsaydi yomonlar.

ILTIJO

Charx uradi boshda o‘ylar g‘ujg‘oni,
Zarbi yetar zirqiratib suyakka.
Dilginamni bitta savol qiynaydi —
Niyat bisyor, yetoldimmi tilakka?

Bizlar kabi sadaqaga zor emas,
Ko‘p o‘lkalar — yer yuzining jannati.
Bizning Vatan sahrodagi giyohday
So‘lib borar, bu nimaning illati?

Jannatmisol o‘lkalarning “kattasi”,
Shubha yo‘qki, el g‘amining fidosi.
Bizlarda-chi, yurt so‘ragan “nahanglar” —
Ko‘zi to‘ymas, o‘z nafsining gadosi.

El rizqini yeganlarga qarg‘ishim —
Eldan judo, bevatan ham gado bo‘l.
Oxiratning do‘zaxida abadiy
Qolib ketgin, yaxshilikdan judo bo‘l.

Minbarim cho‘ng, haq gapimni aytaman,
Ezgulikni ayta olsam dilim xush.
Buyuk qirg‘iz avlodlari, eshitgin,
Mazlum el-chun ko‘kda bo‘lsang yerga tush.

TILAK

Jilmayib asta subhidam,
Oltinday nurin taratsa.
Sharaflab ona-Vatanni
Shoirlar she'rin yaratsa.

Kulimsib tongim oqarib,
Kumushday nurin taratsa.
Qo'ynida qirg'iz tog'larin
Kuylarin yangroq yaratsa.

Qurimay soyi, o'zani,
Tinmasa suvning na'rasi.
Yaylovida mol-qo'yning
Yangrab tursa ma'rashi.

Yangratsa tog'-u toshlarni,
Burgut-u ular jamuljam.
Ko'k tirab archa, chinori,
Yayratsa dilni subhidam.

Ko'k osmon to'lib yulduzga,
Kuch-quvvat bersa qirg'izga.
Kelgusi avlod barchasi
Qolsaydi o'xshab Chingizga.

BIZNING DAVR

Ey boshiga qayg‘u, kulfat kelgan dam,
Och go‘daklar echkilarni emgan dam,
Haqiqatning beli sinib, bu damlar
Orsizlarga davr-u davron ingan dam.

Kuchlilari ojizlarni yegan dam,
Nafsi o‘pqon el rizqini yegan dam,
Xorijdagi baxti to‘ḳis mardumlar
“Qo‘l uzatsam, Oyga yetar” degan dam.

Yurtboshilar xalqdan olis ketgan dam,
Xohishiga xohlaganda yetgan dam,
Ayyorlarga aldanishib, eh attang,
Ne yigitlar umrin xazon etgan dam.

Bokira qiz or-nomusin to‘kkan dam,
Ota, ona tiriklayin o‘lgan dam,
So‘zi o‘tmay andishasiz yoshlarga,
Oqsoqollar mulzam bo‘lib cho‘kkan dam.

O‘ylan endi, qo‘zg‘al endi, buyuk xalq,
Hali kechmas, tur o‘rningdan, bardam qalq!

SHOIRLARGA

Shoir ahli, she'r yozaylik betinim,
She'rga tashna qalbning ash'or davosi.
Kuyga to'lsin qirg'iz makon Olatog',
Yangrab tursin to'rg'ay, bulbul navosi.

Umri boqiy she'r yozaylik, shoirlar,
She'r yozmasak gul muattar bo'larmi?
Umr bersin elga, bizga Yaratgan,
Shoir o'lsa, bir kam dunyo to'larmi?

Jilg'alarni tark etmasin zilol suv,
Mangulikka obihayot ulansin.
Shoir kuyi Olatog'ni yangratib,
Biz kuylasak Qirg'iziston quvonsin.

IFTIXOR

Gohida sog‘, goh og‘risa yuragim,
Gohi mag‘lub, gohi g‘olib yuribman.
El koriga yaradimmi yo yo‘qmi?
El mehridan quvvat olib yuribman.

Goh ezilib, gohi kuylab bir o‘zim,
Gohi mahzun, gohi quvnoq kayfiyat.
Yer qadriga yetoldimmi, bilolmam?
Yerdan rizqim terib yurgum, xayriyat.

Gohi yorqin, goh tumanli bu chehram,
Gohi yig‘lab, gohi shodon kulibman.
Yurt koriga yaradimmi yo yo‘qmi?
Yurtim bilan faxrlanib yuribman.

JIPAR AQUNOVA

1958-yilda Norin viloyatining Tiyonshon tumanida tug'ilgan.

1981-yili Qirg'iziston davlat universitetining jurnalistika bo'limini tamomlab, vaqtli matbuot nashrlari va nashriyotlarda ishlagan. "Sho'x yulduz" (1985), "Dil chiroq" (1994), "Qorachiqda qolgan bahor" (2009) degan she'riy to'plamlari bosilib chiqqan.

Qirg'iziston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosi.

MEN SENSIZ...

Men sensiz yashayapman yashayolmay,
Bir umid-la kapalakday aylangancha.
Yetolmasman talpinib sen tarafga,
O'tgan kunga go'dak misol aldangancha.

Bekinib qancha yillar panasidan,
O'sha kunlar kelar meni poylashib.
Fikratni taftish qilar yana xayol,
Yurak ado bu azobda ming o'ylanib.

Bu hayotda ikkalamiz—ikki qirg'oq,
Oqib ketgan nechoq umid ko'prigi.
Sohil bo'ylab intiq boqib borayapman,
Ezgu hisni yutar to'lqin ko'pigi...

Yashayolmay yashayapman hamon sensiz...

* * *

Men qanchalar chalg‘iy desam ham,
Qo‘limdan tutasan, yodimga tushib.
Eslamay deb ko‘p urinsam ham,
Shu qadar bog‘lanar aql-hushim.
Elitib, erchitib goh kezdirgan,
Ko‘nglim menga g‘aroyib she’r yozdirgan.

Ko‘z yumsam, tushim ham she’rga aylanib,
Ko‘nglimda-chi, yonib turar dil chiroq.
Yurak she’r deb urar, she’r deb yashar,
Satrlar umr bo‘lar, taqdir bo‘lar.
Tonggacha bezovtadir bu ko‘ngil,
Talvasada, olishgancha she’rlar so‘rar...

Ko‘z o‘ngimda yonib turar dil chiroq...

* * *

O‘ylay-o‘ylay, o‘yning borin tugatib,
Men seni kutib ham bo‘ldim shekilli.
Aldayverib, o‘z-o‘zimni sovitaman,
Aldovga ham asir bo‘ldim shekilli.

Tilak bilan boqaverib yo‘lingga,
Nihol kabi umid undi ko‘ngilda.
Sochlarimga kumush tola oralab,
Sog‘inchim yillardan ko‘chdi yilga.

* * *

Tilagim — sen baxtli bo‘lsayding,
Yursang yashnab, tafting ilitsa takror.
O‘zni oqlash qurib ketsin, iloyim,
Sog‘intirdi bizlar boy bergan bahor.

Unda seni ko‘p bezovta kutganim —
Unutishga netay berolmayman dosh.
Eslolmayman ul ajoyib kunlarim,
To‘xtamasdan ko‘zimdan quyilib yosh.

Bir o‘ylasam, go‘yo tushga o‘xshaysan,
Tunda kelib, bir ketmading qayrilib.
Bir qarasam, umidim ovozisan,
Zimdan uqgum, ko‘nglim qonib, berilib...

SOG‘INMASMAN ENDI...

Yolvormayman endi, ko‘rarsan,
Xafa bo‘lib, olovdek yonib.
Endi aslo mujmal tushga,
Yalinmam, behuda ishonib.

Kutaman, desang ne bo‘lar,
O‘sha fayzsiz kunimni.
Hamroh o‘ylar yo‘l qarab,
Yashar qo‘msab sening husningni.

Yomg‘irning shivirin tinglasam,
Yolvorishing yanglig‘ tuyular.
Bulut ham bugun bo‘g‘riqib,
Yosh to‘kib, so‘ngra tiyilar.

Uzilib, goho uzilmay,
Sochilar sochilgan his-tilak.
Qadrlay olmagan baxtim deb,
Hapriqib uradi bu yurak.

O‘SHA KUN QAYTA KELSA...

Yillar seni o‘zgartirib yuborgandir,
Zeb bergandir o‘z holicha timsolingga.
Yetisholmay qolgan qutlug‘ kundan beri
Biror marta keldimmikin xayolingga?

Tushingga kirdimmikin, kuldimmikin?
Oppoq tilak qo‘ldan tushib, singach nogoh.
Tushunmay qaro bo‘lgan kecha uchun,
Yanglishib, yolg‘iz menga qo‘yma gunoh!

Umidim ham qolmayin mening sendan,
Olovlarda yoqib ketdi qancha yillar.
Attang, shu kunlarda bo‘lsa hamki,
Unutib, o‘chiraylik uni dildan.

Unutishga endi-endi bel bog‘labon,
Chog‘lanib, shaylanib bo‘lgan edim.
Hijrondan endi shifo topmoqdaman,
Mening uchun qayta azob bo‘lma endi!..

BUYURMAGAN BAXTIM

Olloh seni menga ravo ko‘rmabdi,
Taqdir menga buyurmagan baxtginam.
Men egilgan sayin ko‘kka yuksalib,
Shuncha olis ketding qancha talpinsam.

Bor umrim yetarmikin o‘tishga —
Yuragingga yuragim qilib qalqon.
Chalg‘iyman, degan o‘yim bekor gap,
Tortqilab olib ketar sen tomon.

Quvalashib umidli quyun dilda,
Ne tuyg‘uni etar menga baxshida.
Chirt uzilsa, degan tilak uyg‘onib,
But umrimni oladi og‘ushiga.

Tole seni menga ravo ko‘rmabdi,
Hatto baxt ham o‘lchovli ekan, qara!
Peshonamga buyurmagan odamim.
Taqdirimga bo‘lib turar ro‘para.

Taqdir menga buyurmagan baxtginam ...

O‘ZIMGA BER

Begona so‘z ko‘nglimga hech xush kelmas,
Hurkak xayol kiprik qoqmay uxlagay.
Hurkak o‘ylar seni qidirib ketgan,
Ezgu tilak hurkigancha muzlagay.

Yot ul uyda yot qushcha ovozi bor,
Uqolmadim yot dunyoning tovushin.
Borayapman o‘kinch yukin ortqilab,
Ko‘ngil siniq, ko‘p yurarman—yo‘l uzun.

Izlarimni sog‘inch yeli sovurib.
Hijronlarga ko‘mdim butun umrimni.
Umidimning ko‘zlaridan shashqator,
Ko‘z yosh bo‘lib oqding yuvib yuzimni.

O, Yaratgan, o‘zimga ber sevgimni,
Gado kabi so‘rab, tilab turganda.
Kunlarimni kakku kabi hadikda
Kutish mening hayotimni quvganda.

O, Yaratgan, o‘zimga ber sevgimni!..

UCHRASHUV

Yurgan edim yolg‘on o‘yga aldanib,
Tanho baxtim sening bilan ketdi, deb.
Yillarimni o‘kinchlarga oldirib,
Men o‘zimning o‘ylarim g‘amini yeb.

Endi senga duch kelmayman, degan bir —
Ishonch bilan yashab yuribman yolg‘on.
Unutmabdi taqdirning taqozosi,
Duch ayladi bir kuni u nogahon.

Tasodifdan tildan qolgan boladay,
Qaray-qaray, o‘tirib qoldim hayron.
O‘zing hozir o‘krab yubormoqchiday,
Bo‘g‘ilasan, qo‘llar dir-dir titrabon.

Uchovimiz. Bir dasturxon, uch tilak-o‘y,
Chalg‘ituvchi daydi so‘zlar ham ko‘proq.
Sen qanday-yu, men zaharli ilonni —
Bosib, o‘tib ketganday bo‘ldim nogoh...

KECH EDI...

Qir-adir gullarin oralab,
Sho‘x-shodon o‘ynab yuribmiz.
Atrof edi qizg‘aldoqzor,
Yuzingga yuzim tegsa edi,
Xumor boqsayding bir bor.

Boshingga boshim bir tegib,
Sarhushlik qadrini tuygandim.
Uyg‘onib ketdim, oh, bexosdan,
Xush onni boy berib qo‘ygandim.
Unda kech bo‘lgandi, eh, attang!

Eh, attang, unda kech bo‘lgandi,
Tuyg‘udan tuyg‘ular adashib.
Ko‘zim yumsam — uyqu yo‘q,
Ko‘p o‘ylar uyg‘ondi ko‘ngilda,
Tushlarimdan seni talashib...

Erkalab turib tug‘yonda,
Qo‘lingga qo‘lim tegmadi.
O‘kinchda turaman, o‘kinib,
O‘ngimda emas yo‘q! Tushimda...
Ko‘zingni ko‘zim sevmadi...

BURULQAN SARIG‘ULOVA

1959-yilda Issiqko‘lning Jetio‘giz tumanida tug‘ilgan.

1983-yil Qirg‘iziston davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limini bitirgan.

Badiiy ijod maydoniga saksoninchi yillar boshida qadam qo‘yib, she’rlari, novellalari adabiy jurnallarda, almanaxlarda chop etila boshlagan.

Bir qancha she’riy va publitsistik kitoblari chop etilgan. Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

Qirg‘iziston Yozuvchilar, Jurnalistlar uyushmalarining a’zosi.

TASHNALIKDA YASHNAMOQ QAYDA

Buyuklikni ko‘zlab yetmoq-chun,
Hayhot, uydan ketdim qay bir kun.
Tog‘lar qoldi ergashib hatto,
Xayrlashdi gullar ham dilxun.

Bolalar chang ko‘cha bo‘yida,
Qiziqishib qoldi o‘yinda.
Kabutarga “Xayr” deb sekin,
Non uvog‘in berdim qo‘limda.

Jamg‘arganin ilinib otam,
Oq yo‘l tilab mushtipar onam.
Uzoq duo berib qolishdi,
Safarga men yo‘l oldim ildam.

Qaylardagi xom xayol chorlab,
Ilg‘amadim ko‘rinsa porlab.
Olib ketdi sirli olamga,
Yolg‘onlardan yurdim ko‘p “zor”lab.

Izlab chiqib ajib ertakni,
Ko‘rmoqdaman nursiz ermakni.
Sog‘inchimning olovi o‘chib,
O‘ylamayman uyga kelmoqni.

Yopildi-ku bolalik yo‘li,
Xira tortdi tog‘-qir va guli.
Ota-ona qarzi dil ezar,
Ular esa bo‘ldi mangulik.

Xayollarim chulg‘aydi bahor...
Oq kabutar sir aytar nahor...
Cheksizlikka g‘arq bari tashna
Qalbda o‘sish qayda? Dard bisyor...

SANDIQDAGI RO‘MOLIMGA

Esizgina!
Unda sen ko‘rk berib xo‘b
tovlanarding,
Gullaring jilvalanib ko‘z olardi.
Boshimga o‘raganda
Kapalak misol uchib
Ming turfa nozlanardim.

Esizgina!
Ko‘klamday gul quchoqlab
Kular eding.
Men ham ko‘k quchib chappar urar edim,
Hilpiroq uchlaringdan
Tanamda jo‘shib qonim,
Kuylar edim.

Esizgina!
Esimdan chiqibsan-ku
o‘sha bo‘ydan,
Sandiqqa solib qo‘ygan o‘sha kundan.
Vaqt kutib turarmidi,
Yil o‘tib buklanarkan
Umrni olib qo‘ldan.

Esizgina!
Bo‘yog‘ing o‘chmabdi-ya
Gul-gul ranging!
Lek esiz doka misol suzilganing,
Kech kirib, tong otgani,
Oy ketib tun botgani,
Umrning uzilgani.

Esizgina!
O‘ralmay qolding endi
Yaraguday,
Baxtdan mast balqib bulbul sayraguday!
Biz endi qayrilmaymiz,
Aslidan ayrilganmiz
Havas-la qaraguday...

JAVOBSIZ QOLGAN SAVOLLAR

Ko‘zlar bormi pinhona yig‘lamagan?
Banda bormi holsizlik qiynamagan?
Yurak bormi o‘kinchning qafasida,
Umidni zo‘r kuch deya o‘ylamagan?

Hamdard bormi chindan ham kuyib turgan,
Ichingdagi dardingni tuyib turgan?
Og‘ir damda kiming bor lol qoldirib,
Chin ko‘ngildan tog‘ kabi suyab turgan?

Qarindoshing bormi or ulug‘ degan,
O‘chakishmay “Kel, mana “yo‘riq” degan?
Aql-hushin xudbinlik domga tortmay,
“Yaxshing oshsin”, deb g‘aming to‘liq yegan?

Olmoqning bor bermog‘i, hisobi yo‘q,
Do‘sting bormi ”Qo‘y, sen ol” dep ko‘ngli to‘q?
Yaxshiligin qilibon chin yurakdan,
So‘ng qizg‘anchning uyiga tushmasmi cho‘g‘?

Tun bormi kun ortiga bosh solmagan,
Gul bormi o‘z vaqtida ko‘z olmagan?
Umrning ojizligin kim tushunar,
Mahkum qilib o‘limga o‘ch olmagan?

VAQTGA

To‘xta, ey vaqt! O‘nglaydigan xato ko‘p,
“Qovurg‘a”si qotgani yo‘q ko‘p ishning.
Ba’zisini hatto boshlay olmadim,
Rejasi bor ko‘plab dovon oshishning.

Ajratguncham oqi bilan qorasin,
Zuvillab sen qayga uchib boryapsan?
Qo‘shiqlarim yashab, qalam istagin
Yozmay turib yuragimni yoryapsan.

Qo‘ya tur-chi. Hadeb shashtim qaytarma,
Shundoq ham sen olding imkon, kuchimni.
Vaqt, senga hech yengilishni istamam,
Lek topmadim kalavamning uchini.

...Zuvillatding charxpalakdek olamni,
Bas kelolmay holdan toydim, etding daf.
Qanotlarim toldi, lek bir narsani
Ayt-chi, ey vaqt, bundan senga nima naf?

IZLAMA

Ayrodir yo‘llar. Ovora bo‘lding nima deb,
Aytmaganmidim adashib qayta kelma deb.
Ko‘ngil uzishning imkonin topmay kuyguncha,
Yurakdan surib, qalbdan o‘chirib yenggan ep.

Izlama dedim, qumda yuvilgan izimni,
Topishing qiyin o‘sha ko‘rk-jamol, husnimni.
Yo‘ling berkilgan yetaklab menga kelguvchi,
Ko‘rsatgim kelmas xazonrez bo‘lgan “kuz”imni.

Qizillik o‘chgan olovdek yongan yuzimdan,
Kutishdan charchab, sovidim, toldi ko‘zim ham.
Sen kelma qaytib. Umrimning qolgan-qutganin,
Ovoradirman chetidan kertib o‘zim ham.

SAMIDIN STAMBEKOV

Samidin Stambekov 1959-yilda Jalolobod viloyatida tug'ilgan. Gazeta va jurnal tahririyatlarida muxbir, bo'lim mudiri, muharrir o'rinbosari bo'lib ishlagan, 2008-yildan buyon o'qituvchilarning "Dil" gazetasida bosh muharrir. Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasining Jalolobod viloyat bo'limiga rahbarlik qiladi.

S. Stambekov "Olisdan yozilgan xatlar", "Samidinning san'ati", "Ming yillik umr — bir lahza" she'riy to'plamlarining muallifidir.

MING YILLIK UMR — BIR LAHZA

Ogoh bo'l, banda hamisha,
Zavolli kibr-u havodan.
"Lip" etib bir kun sening ham
Yulduzing uchar samodan.

Bir shirin tushday o'tkinchi
Yuz yillik umr ko'rsang ham.
Ming yillik umr — bir lahza,
Bu dunyo shunday — biri kam.

SHUKRONA

Men hayotda o‘zimga xos yashadim,
Qul bo‘lmadim siym-u zar jilvasiga.
To‘pig‘imda davlatmandlar dovrug‘i,
Hazar qilib tupurdim boylarning tillasiga.

Tong otganda Quyosh qanday chiqishin,
Tunda Oyning qanday chiqib botishin,
Osmonga kim tunda yulduz sochishin,
Esiz umr shodasidan uzilgan
Ko‘zmunchoqday qay tarafga “qochishin”,
Mol-u mulkka sajda qilgan kimsaning
Oqibat — qo‘sh quloch yerda yotishin,
Bilgunimcha oltmishga yaqinlab,
Qirdan pastga tushib qolgan “shotirman”.
Umr degan tasbehning har donasin
Ajalga jim sanab borayotirman.

QARZDORLIK

O‘lganning joyi go‘r ekan,
Tirikning joyi to‘r ekan.
O‘lmasang o‘rlayverishing,
Eng qiziq joyi, zo‘r ekan.

Afsusli gapdan ne foyda,
Dardimni tengga bo‘lmasang.
Armoning ekan hamrohing,
Navbating yetib o‘lmasang.

O‘lim — bu nima, bilolmam,
Chunki bir o‘lib ko‘rmasam.
Umrni qarzga olibman,
Ilojim qancha ko‘nmasam...

KETGIM YO‘Q

Aysberg — cho‘kkan bulutlar,
Osmondan tushgan zovlarga.
Kun nurin emgan oq shudring,
Kumush nur o‘ynar tog‘larda.

Qay bog‘bon ekib ketdiykin?
Ana ko‘r, archa, qayin, tol!
Kapalak, gullar g‘ujg‘oni
Aqlingni olar, ajib hol.

Ulari — tog‘da hushtakboz,
Xonishda kakkular, to‘p kaklik.
Ko‘kanda qulun tug‘yonda,
Qutula olmay boylovdan.
Jannatni bersa ketgim yo‘q
Beshorol degan yaylovdan.

ARMONLI DUNYO

O‘ylasam umr deganni,
Elligi ravon siyog‘i.
Rozi bo‘l, xohi norozi,
Qiyalik ekan bu yog‘i.

Har zamon ortga qarasam,
Armonli ko‘rdim izimni.
Oltmishga yetguncha
Xudoyim bersin to‘zimni.

Chaqmoqni mingan bir umr
Omuxta zulmat, ziyoga.
Ulgursam chaqmoq tutishga,
Armonim qolmas dunyoda.

MARHUM “SHOIR”

Bir “shoir” bor haqiqatni tan olmagan,
“Shoirman” deb shoirlikka da’vo qilar.
— Gazetangda nechun chiqmas ash’orim? — deb,
“Tomdan turib” baland parvoz havo qilar.

Hech tuzi yo‘q, ham nafi yo‘q bitiklarin,
Bilmas o‘zi yuvindiga yaqinligin.
Gazetamda qanday bosay yuvindini?
Tan olmaylik oqinmasning oqinligin.

XO‘JAGELDI KULTEGIN

Shoir, dramaturg, tarjimon, jamoat arbobi Xo‘jageldi Kultegin 1960-yilda O‘sh viloyatining Qorag‘ulja tumanida tug‘ilgan. Moskvada adabiyot institutida ta’lim olgan, rus shoiri Sergey Yesenin ijodidan kuchli ta’sirlangan, uning “Fors taronalari” turkum she’rlarini qirg‘iz tiliga tarjima qilgan. O‘ndan ortiq she’riy kitoblari nashr etilgan.

Jo‘lo‘n Mamitov, Aliqul O‘smonov nomidagi adabiy mukofotlar sovrindori, Qirg‘iziston xalq shoiri. Radioda ishlagan, keyinchalik TurkSOY tashkilotida Qirg‘iziston vakili sifatida ish olib borgan.

OYJAMOL

Kechang Oydir, kunduzing — Quyosh,
Yuguradi yuragim bedor.
Sen yashagan yerda, qalamqosh,
Yurganimdan mening baxtim bor.

Hamisha qilganman sabr-toqat,
Kimlar ustimdan kulsa ham.
Oh, naqadar yoqimli faqat,
Qosh chimirib boqqaning, sanam.

Noz qilib yurarsan nega, yer
Seni ko‘tarib qochmas, hayhot.
Ko‘nglingni hech og‘ritmay der,
Seni hamma aylar ehtiyot.

Shirinsan, oh, uxlab yotganda,
Boqsam, yuraklarim o‘rtanar.
Farishta muzqaymoq totgandek
Lablaring bir shirin tamshanar.

Osmonlarda uchgay xayoling,
Yerda qalbga g‘avg‘o solarsan.
Hech shubhasiz husni-jamoling
Ko‘zlarimda ko‘rib qolarsan.

Kechang Oydir, kunduzing — Quyosh,
Yuguradi yuragim bedor.
Sen yashagan yerda, qalamqosh,
Yurganimdan mening baxtim bor.

DILDAN QO‘SHIQ KUYLAYMAN

Kimgadir keng, kimgadir tor ekan dunyo,
Goho kichik nomi ulug‘ alpdan ham zo‘r.
Erkinlikni izlab cheksiz kengliklardan,
Sayr aylabon o‘zimizni his etdik hur.

Oshiqlarni nazar-pisand qilmas olam,
Rizq-nasiba ortiq bo‘lmas keragidan.
Ikkimizning dardimiz bir, chilim cheksam,
Burqsib tutun chiqar kuygan yuragimdan.

Yuzlaringdan o‘pib, dildan kuylayman, yor,
Noming poklab, muhabbatim oqlagayman.
Taqimingga tushgan soching bo‘ynimga dor,
Bu dunyoda o‘limdan ham qo‘rqmagayman.

Nigohlarda so‘roq bor ko‘zlar sirlashsa,
U so‘roqlar undirgay dilda chechakni.
Ikki so‘roq belgisi bizdek birlashsa,
Yaratgaydir shaklini oshiq yurakning.

OLISDASAN

Yuragimga yutaman-da... o‘kinaman,
Va aytaman dardli-dardli g‘azallarni.
Mendan juda olislarda bo‘lganingga
Yoqtirmayman yonimdagi go‘zallarni.

Uzoq joylar bari menga o‘r-u qirdir,
Go‘yo pastga egib boshin o‘qiydi she’r.
Va teskari qo‘yilgan bir soat kabi
Sir yashirar, dunyoda eng qimmatli — sir.

Yiroqman-u, mastman soching iforidan,
Yiroqman-u, xayolimda dudoqlaring.
Yashirsang ham ko‘rpachangning orasiga,
Ko‘rinadi menga harir paypoqlaring.

TILAK

Qog‘oz bilan qalam kabi maslagi bir,
Olib kelgan xazinasi — mablag‘i bir,
Qo‘l-oyog‘i yo‘ldosh ikki yoshni biroq
Qo‘ymasaydi so‘qir turmush oqsatib-oh.

Ko‘r turmush ne? —
U qaqqaygan ikki jon-tan,
Ko‘kni, oqni va qorani ayamagan,
Ikki oyoq yasab olib er-xotindan,
Nima bo‘lsa shuni tepgan, tepalagan.

Tirikchilik deb surinib yiqilsa kim,
Turmush degan uni ezib yenga boshlar.
Oyoqlarni bir yuk tortib tursa doim,
Bir-biriga befarq, loqayd bo‘la boshlar.

Hayot-turmush ikkoviga yo‘l bersaykan,
Oyoq emas, yelkasida o‘ynolsaykan —
Yashay olgan hamda yana yashay bilgan,
Mehribon, jafokash qo‘l bo‘lsaykan.

O‘SH

Uch minga kirgan o‘tkir shahar,
Sevgim izhor etdim sahar.
Yonori bilan yongim bor,
Anori bilan ungim bor.

Yigit-qizlar qo‘l ushlashib,
Oqbura oqar ishqi toshib.
Kim chiqsa Taxti Sulaymon,
Yuzga chiqqanday bearmon.

Tog‘siz shaharda armon bor,
Tog‘li shaharda unvon bor.
Ajralmasdir qirg‘izdan O‘sh,
Qirg‘izday do‘st-qadrdon bor.

Naqadar buyuk tog‘lari,
Naqadar saxiy bog‘lari.
Mevasi mo‘l bog‘day el
Egilib ko‘rishgan chog‘lari.

Aylanib O‘shning bozorin,
Kechdim asrlar guzarin.
Qovun bilan non hididan
His etdim jannat xabarin.

Do‘stga do‘stni xesh ko‘rdim,
Qardoshlikni xush ko‘rdim.
Shahardan toqqa uchgan
Gala-gala qush ko‘rdim.

Yigit-qizlar qo‘l ushlashib,
Oqbura oqar ishqi toshib.
Kim chiqsa Taxti Sulaymon,
Yuzga chiqqanday bearmon.

JILDIZ ALISHEROVA

VATAN MADHI

Oq qor muqim Tangritog‘ning qa’rida,
Jon rohati mayin yeli, havosi.
Hech ma’voni alishmayman Vatanga,
Maftun etar zilol chashma jilosi.

Uyim o‘zing, osoyishta uyqumga,
Gulim o‘zing go‘zallikning yaktosi.
Soyingdagi toshlaringda, qumingda
Izim qolgan — bolaligim “imzosi”.

Salobatli, sirli azim tog‘laring,
Burgut bilan shunqormakon qoyasi.
Ruhiyatim ajib hisga to‘ldirib,
Ular uni mo‘jizaning doyasi.

Qirg‘iz elim og‘ushida rohatda,
Turnaqator oliymaqom uylari.
Oq qalpoqqa, oq lakkiga yarashgan,
Unsin, o‘ssin, quvnoq yayrab kuylari.

Mehring berib boqsang jami chorvasin,
Rizq manbayi yaylovlari, o‘tlog‘i.
Faxr bilan she’rga solay hamisha,
Gulla-yashna, qirg‘izimning tuprog‘i.

QUNDUZBU MAMATOVA

AYTMATOV — QIRG‘IZ QUYOSHI

Aytmatovning keng ummonin oralab,
Suzgan kimsa gavhar terar saralab.
Hayotning bor rohati-yu alamin,
Tasviri-chun yo‘naltirgan qalamin.
Aytmatovday ziyo sochgan quyoshning
Ming yilda bir kelishiga bo‘l amin!

“Oq kema”da Nurg‘oziday pok bola,
“Jamila”da ilohiy ishq — top-toza.
Sultonmurod, Mirzaqullar sharafi,
“Erta kelgan turnalar”da jo-bajo.
“Somonchining yo‘li”n izlab tunlari,
Butun dunyo Aytmatovga mahliyo.

Akbarani inson kabi so‘ylatgan,
Odamzodga chin sevgini ko‘rsatgan.
Oltinoyga “a” harfini birinchi
Muallimi Duyshan og‘ay o‘rgatgan.
Bitiklari poyoni yo‘q samoday,
Muxlislarin maftun etib o‘ylatgan.

Aytmatovning mahorati, hoynahoy,
Pegasga “bas kela oldi” Gulsari[1].
Ona yerga sirin aytsa To‘lg‘onoy,
Sohil bo‘ylab chopqilar olapari...
Millat ramzi bo‘ldi ismi-sharifi,
Chingiz desa — qirg‘iz der olam bari.

[1] **Pegas** — yunon mifologiyasida ilhom tulpori.

Iste'dodi cheksizlikka taralgan,
Aytmatov qirg'iz uchun yaralgan.
Qayd etilgan sof oltinli harfdan,
Olam mamnun ushbu ismi-sharifdan.
Talantiga ta'zim qilar har odam,
To qiyomat bardavomdir bunday dam.

UYG‘OTING

Telefonga sim qoqsangiz ololmasam,
Eshik qoqib uyingizga kelolmasam,
Uyg‘onmasam, “Oh, onam”, deb uyg‘otinglar,
Tiriklikning nafasini sezolmasam.
Bu shum ajal ruxsat so‘rab kelmas, bolam,
Uyg‘onarman, huzurida mahsharda man.

Yo uyimdan taom bo‘yi sezilmasa,
Yo eshigim ochiq qolib, yopilmasa,
She’r yarmida, oq sahifa ochiq qolsa,
Barmog‘imda qalam sinib, tebranmasa,
“Onajon”, deb xonam ochib, izlang meni,
Bilagimdan ajal sudrab turgan bo‘lsa.

Kulbamdan gar quvnoq kulgim taralmasa,
Yo tishlagan non og‘zimda qolib ketsa,
Sog‘inib kirib kelsang eshik qoqib,
Quvongancha yuzim senga burilmasa,
“Oh, onam”, deb uyg‘otinglar, qulunlarim,
Gar onangiz sizga javob aytolmasa.

Jon shirindir, lek o‘lim haq, kelgan ketar,
Bandasi har farziga imon keltirar.
Bor bo‘lingiz, omon bo‘ling, chiroqlarim,
Siz-la bag‘rim butun dardga darmon kelar.
Mehr bilan o‘zim sizga peshvoz chiqay,
Qutlug‘ bo‘lsin, nasib etgan har bir tonglar!

MAQTOVNI KIM KO‘TARAR?

Maqtovlarni yog‘du sochgan oy ko‘tarar,
Oppoq tongni nurga belab kun ko‘tarar.
Sirlar ichra oq-qoraga guvoh bo‘lgan,
Fazilatli, ham pokiza tun ko‘tarar.
Titranib inson fe’l-u atvoridan,
Tovonida toptalgan ul yer ko‘tarar.

Maqtovni chayqalib turgan ko‘l ko‘tarar,
Suv yetmayin, qaqrab yotgan cho‘l ko‘tarar.
Na issig‘-u, na sovuqda “miq” etmagan,
Oppoq qorli, tik qoyali tog‘ ko‘tarar.
Qay kimsani maqtab qo‘ysang, o‘zdan og‘ib,
Aytganidek, “semizlikni qo‘y ko‘tarar”.

Maqtovni tars yorilmasdan tosh ko‘tarar,
Maza-ta’mi jonga darmon osh ko‘tarar.
Kelbat bilan qadam tashlab, ertasiga
Ham mehnatin qadrin bilgan bosh ko‘tarar.
Ezgulikdan sira tolmas, ahli dono,
Fazilatli, kim ahli imon ko‘tarar.

DO‘STLAR

Do‘stlarim, siz-la kechgan damni eslab,
Xayol og‘ushida shu kech sayr ayladim.
Dil yayradi, chekindi bor qayg‘u-g‘amim,
But bo‘lganday ko‘nglimdagi kemtiklarim.
Gullar terib, biz o‘ynagan daryo suvi,
Ona zamin tuprog‘ini his ayladim.

Do‘stlarim, sizlar bilan bugun shodon,
Bolalikka, qishlog‘imga borib keldim.
Asaldan ham totli beg‘am bolalikning
Kulgularin, totliligin tatib keldim.
Qo‘g‘irchoqqa ko‘ylak tikib, koptok o‘ynab,
Yurgan ajab damlarimiz quchib keldim.

Eh, do‘stlarim, sizlar bilan bir boshqacha,
Chin yurakdan avvalgidek yayrab kuldim.
Yelkamdagi tog‘dek yukni siltab tashlab,
Chayqalib, kamalakday xayol surdim.
Birga o‘sgan chamandayin barq ochilib,
Gul kabi chehrangizdan ilir ko‘nglim.

DO‘ST BORMIKAN?

Do‘st bormikan, bir sinov tushsa boshga,
Aro yo‘lda seni tashlab qochmagan?
Unday do‘stni to hanuz uchratmadim,
Atrofimda o‘z nafsiga maqtagan.
Ishing tushsa minnat qilib, sevinib,
Soxta so‘zlab, aybing peshlab toptagan.

Do‘st bormikan, suyab, ko‘ngling so‘ragan,
Uchrashganda sog‘inchlarin so‘zlagan?
Yo‘q, bilmadim, unday do‘stni ko‘rmadim,
Men bilganim — yutuqlarim suymagan.
To‘rda siylab, ko‘ngil kirin yuvsang ham,
Bosh ustiga desang, joni kuymagan.

Do‘st bormikan, ont ichganda buzmagan,
Tarozidek borni aniq o‘lchagan?
Yolg‘on bo‘lar, agar ko‘rdim, bor desam,
Men bilgan do‘st iliq so‘z ham aytmagan.
Qarashidan sezilar goh nafrati,
Tilin tishlab, gina-kudurat saqlagan.

Qaydan topay... qaydasan, ey sadoqat,
Ishonch qayda, aylandimi bo‘shliqqa?
Hay, attang-a, sadoqatli bir do‘st yo‘q,
Ishonch faqat oilang, qiz, o‘g‘lingda.
Do‘sting o‘sha, yoring, bolang, jigaring,
Qayg‘ursang gar, yetib kelar qoshingga.

Shu insonlar sadoqatli do‘st erur,
Seni sevib, bag‘ring, kaming to‘ldirur.

KIMLAR SEZDI?

Kim uyg‘ondi? Erta tongdan sergak bo‘lib,
Palaponday uchmoq uchun qanot siltab.
Yangi otgan tong ko‘ngliga shodlik solib,
Parishon o‘y-xayollarin yig‘ib-tergan.
Qayg‘u-g‘amlar yopinchig‘in yechib tashlab,
Nigohlari keng dunyoga boqqan kulib.

Kimlar tuydi — inson umrin totliligin,
Ba’zan boldek, goh og‘udek achchiqligin?
O‘nqir-cho‘nqir, chigal taqdir jumboqlari,
Goh momiqdek, goho toshdan qattiqligin?
Kim biladi, baxt-saodat o‘lchovini?
Anglaymizmi, qadr-qimmat mezonini?

Kimlar sezdi? Umr suvday o‘tib borar,
O‘kinch bilan ortimizdan boqib turar.
Har lahzada, har daqiqa, har soniya,
Yodga solib vaqt uchganin bonglar urar.
Kecha ko‘rgan insoningni topolmay goh,
Sinovlarin yo‘llayverar Parvardigor.

Kimlar sezdi — tuyg‘ularning tozaligin,
Buloq kabi qiqirlagan bolaligin?
Kechagina yalangoyoq chopib yurgan,
Ko‘klam-u yoz, kuzak qishga aylanganin?
Gar tabiat to‘rt faslga tizib qo‘ygan,
Inson umrin yoz-u qishga boylanganin?

Kimlar sezdi — yurak yana behol urib,
Entikkancha davon osha borayotkanin?

* * *

Quchog‘imga olsam shirin termilib,
Dimog‘imda jannat bo‘yi mast qilar.
Farishtadek kulgichingga javdirab,
Quvonchimdan, kipriklarim namlanar.
Parvardigor, duo qilgum yolborib,
Go‘dagimni asra, uzoq umr ber!

Orom olgin, avaylayman o‘zingni,
Mo‘lbuloqqa o‘xshab ketar kulgungni.
Alla, bolam, tuning bo‘lsin xayrli,
Yomon tush buzmagay shirin uyqungni.
Tebratay ohista, uxla qarog‘im,
Kelajaging bor dunyomning ustuni.

Oy silagay kokillaring, yuzingni,
Yulduz suysin porlab turgan ko‘zingni.
Momo Havo emlarini yod etay,
Yomon ko‘zdan asrasin Haq o‘zingni.
Alla, bolam, uxla, bolam, qarog‘im,
Jannat ising davolasin o‘zimni.

* * *

Qaydin shuncha mehr-u sehring, o‘rgilay?
Qiliqlari bolim, girgitton bo‘lay.
Kulging, yig‘ing birday shirin dilbandim,
Sho‘xliklaring jonga darmon, aylanay.

Buncha savollaring bisyor, lol qoldim,
Yelka qisib, bosh chayqab bir hol qoldim.
Sen quvonib, chapak chalib quvonsang,
Men ham yayrab, dunyoga sig‘may qoldim.

Oilamning porloq quyosh, nurisan,
So‘zlaringdan to‘ymam, qalbim qo‘risan.
Bu sertashvish, tiriklik ham o‘tkinchi,
Sen hayotim davomchisi, nurisan.

SEN BORSANKI...

Sen borsanki, quyosh sochar ziyosin,
Sensan mening istiqbolim anig‘i.
Sen bo‘lmasang mahrum bo‘lar ko‘rkidan,
Chappor urgan tog‘ning archa, qayini.

Sening uchun ko‘kda oyning jilvasi,
Sen o‘zingsan umidlarim doyasi.
Sensiz balkim ketar edim baqoga,
Burdalanib umidlarim qoyasi.

Sening bilan tole tugal, har kuni,
Bezab tursang tuyg‘ularim ma’vosin.
G‘am qa’riga botgan bo‘lsam ko‘rganda,
Bir qarashing dardlarimning davosi.

Sensiz mening xayollarim parishon,
Uchqur hayol cheksiz o‘yga cho‘milar.
Bu foniyda seni qonib sevish-chun,
Bitta umrim yetmasligi ko‘rinar.

NURLAN QALIBEKOV

1973-yilda Aqsi tumanida tug'ilgan. Qirg'iziston Respublikasi Yoshlar mukofoti sovrindori. Ko'plab xorijiy davlat mukofotlarining laureati.

Hozirgi qirg'iz she'riyatining eng tanilgan vakillaridan biri. Qirg'iziston Milliy yozuvchilar uyushmasi raisi.

VAQT NEDIR?

Vaqt nedir?
Qadri yo'q mis tangaday,
Qo'lingdagi yomon soat,
Chiqillaydi, chiqillaydi.
U yon bosgan,
Bu yon bosgan, suluvning
Qarib borayotganini bildirmagan,
Taqasiday taqillaydi, taqillaydi.
Beqarorligi ayon,
Havas qilar maqtanchoqlarning,
Ko'ylagi-yu shapkasiga,
Hattoki papkasiga.
Bahordan yozga qadar,
Yozdan kuzga qadar,
Kuzdan qishga qadar,
Tinmay almashtirar makonin.
Vaqt nedir?
Bormoq, kelmoq,
Issiq va sovuqqa qarab,
Moslashgan qushlar kabi.

Tuproqda toy-toy bosib,
Va tuproqda sirpanib,
Tuproqda harakatsiz qolgan oyoqlar kabi.
Vaqt asli shudir...
Mening hech bir narsam
Bo‘lmaydi isrof,
Umrimni,
Taqdirimni,
Hattoki barchangizni,
O‘lchamayman yerdagi
Vaqt bilan,
Soat bilan.
Vaqt men uchun
Osmon bilan yerdir abadiy.
Farovon umr surgan
Egiz kundir.
Kenglikdan
Va cheksizlikdan iborat.
Ko‘kdagi quyoshdan ham
Balandroqda,
Yuksakroqda,
Yonib turgan,
Cheksiz nur va yorug‘ sochgan
Bir Kundir.

Vaqt degan narsa yo‘q,
Chegara ham yo‘q.
Bunday cheksizlikni,
Bunday borliqni
Ushlab turar muvozanatda
Abadiy yosh
Qudratli Ko‘k-Tangri.

BUTUNLIK

Men bu dunyoni aslo,
Bo‘lmam oq-u qoraga.
Bu dunyo butunlikdan
Iboratdir men uchun.
Tundukdan tushgan nurlar
Jilolanadi asta.
Va barcha xilqatlar
Nurga cho‘madi.
Zamindan ko‘kka qadar
Quloch yozar yorug‘lik.

Bu dunyoni
Oq-qoraga bo‘lganlar,
Oqing oqqa,
Qorang esa qoraga bor.
Jannatga oshuftang jannatga,
Do‘zaxga loyig‘ing do‘zaxga
Bor, boraver!
Menga hech qizig‘i yo‘q,
Ahir men iboratman butunlikdan.
Nur taralgan tundukning
Ostidagi yorug‘likdan
Ustidagi yorug‘likning
Yo‘llaridir xo‘b qiziq.
Yaratguvchisi qiziq...

PAYG‘AMBARLAR

(Erkin tarjima)

Abadiy shon-sharaflar,
sizday ulug‘ zotlarga!
Ta’zim aylagum ming bor
boshim yerga tekkuncha.
Loshim yerga kirguncha —
tilga olib ismingiz,
ulug‘layman har qachon.
Sizlardan ko‘nglim to‘qdir,
sizlardan olgum ulgu.
Biringizni ikkinchingizdan ustun qo‘ymam,
mening fe’lim shu.
Men qiynalsam, g‘amga chulg‘ansam,
tayyor turasizlar yordam berishga.
Boshqalardan esa yordam kutmayman...
Chunki boshqa hech kim uzatmas menga
yordam qo‘lini.
Abadiy shon-sharaflar,
sizdek oliy zotlarga!
Ismingiz yer yuzida
yangrayversin abadiy,
yashayversin abadiy...
Sizlar ekib ketgan yashil og‘ochlar,
gullasin, yashnasin, kurtaklar ochsin
va ko‘klarga cho‘zsin bo‘yini.
Quloch yozsin, shohlari esa
tegib tursin moviy samoga.
Charchagan odamlar kelib,
orom olsin, hordiq chiqarsin,
sizlar ekkan daraxtlar soyasida.

(Ne qilsin axir, ayting, bu xokisor bandalar,
o‘zlarining daraxtlari yo‘q bo‘lsa?)
Mendan xafa bo‘lmang, iltimos,
Men hech kimning yo‘lin to‘smasdan,
Va hech kimga taqlid qilmasdan,
O‘z yo‘limda ketyapman tanho.
Ma’zur tuting meni, iltimos,
Ozor bergan bo‘lsam
Zabonim bilan,
Ko‘nglim og‘rib,
Tushkunlikda edim unda...
Gohida isyonlar qilaman,
Hatto... TANGRIGA....
(U indamay kulib qo‘yadi, xolos.)
Men o‘zimning ko‘chatimni
Ekayapman zaminga.
Men ekkan bu ko‘chatlar,
Aylangaydir bir bog‘ga.
Ular bir kun aylanar
She’riyatning bog‘iga...
She’riyat sayilgohiga...
Va bu bog‘lar
Ulug‘lagaydir,
Kuylagaydir,
Sizlar ulug‘lagan u OLIY ZOTNI.

BERDIBEK JAMG'IRCHIYEV

1987-yilda tug'ilgan. Bishkek ijtimoiy fanlar universitetining qirg'iz filologiyasi fakultetini tamomlagan. "Yurakda qolgan bir ism" nomli kitobi chop etilgan.

BAXTIM BO'LIB YURAGIMDA QOL

Ayro ketdik — biz ikki dovon,
Ushalmagan sevgi — bebaho.
Yetolmadik bir-birimizga,
Orzuyimiz bo'lmadi bajo.
Etagimdan tutadi ro'zg'or,
Asov boshda metin yugan bor.
Armonim bor — g'o'r kezlarimda
Asrolmadim sevgimiz, dildor.
Sog'inganda ko'ksim yonar, oh,
Muhabbatdan baxt topdim, biroq.
Sen yasharsan xotirjam balki,
Men yashayman yo'lingga mushtoq...

* * *

Yomg‘ir yog‘ar, ko‘zda bahor, ko‘ngilda kuz,
Bilmam, qaysi manzil, qaysi hayotdamiz?
Shivirlaysan, tomchilardek hazin bir sas,
Yomg‘ir kabi to‘kilmagin, to‘xta, hargiz.
To‘xtagim yo‘q, ne uchundir, to‘xtagim yo‘q,
O‘tib ketgan og‘riqlarga o‘xshagim yo‘q!
O‘lgim kelmas, yana qayta ungim kelar,
Yolg‘izlikning ovozidan qaqshagim yo‘q.
Yurak xokdir, qadrdonim, tanim tuproq,
Hayot sira ayamaydi, dilim g‘amnok.
Kurashmoqqa kuchim yetmas, bemajolman,
Taqdir meni qay siyohda chizgan, evoh?!
Oyog‘imda kishan, boshim alangada,
Kutgan baxtim qoldi olov changalida.
Yupatmanglar, ovutmanglar, og‘ritmanglar,
Kirgim kelar shu gulxanning ranglariga.
Ko‘zda bulut, ko‘ngilda kun, yoshim yomg‘ir,
Kuyib kulga aylantirdi meni taqdir.
G‘o‘r yoshligim, gul yoshligim olib qo‘ydi
Qobirg‘amning qat-qatida yashringan nur.
Qarog‘imda gulga kir, umrim bahori,
Shoshma, to‘xta, ko‘zlarimni yashnat, yorit.
G‘uncha boyla, yaproq yozgil qayta yana,
Bahor bo‘lib yuragimdan dardni arit.
Yomg‘ir yog‘ar, ko‘zda bahor, ko‘ngilda kuz...

QADIRBEK SULENOV

Jalolobod shahrida yashaydi, diniy masalalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadi.

Badiiy ijod bilan shug'ullanib, islom dini asoslarini maktablarda o'qitish, xalqlar do'stligi va ahilligi mavzularida chiqishlari jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan.

O'SHALARGA URSIN UVOLI

Qirg'iz, o'zbek tuvg'onlarim, qadrdonlarim,
Qirg'iziston elin tuzgan jonajonlarim,
Ne qilaylik, sholi ichra kurmak o'sganday,
Oramizda palidlar bor — hammaga g'anim.

Azizlarim, do'stligimiz tomiri chuqur,
Esli jonlar bundan doim bir mazmun o'qir.
Birodarlar, bu dodimni kimga ham aytay,
Ichimizda yomonlar bor — ko'zlari so'qir.

Elbuzuqi, qora niyat o'sha kimsalar —
Do'stligimiz ko'rolmaydi, ichin it talar.
Qani endi,
Alloh menga zo'r kuch baxsh etib,
Ayamasdan yo'q qilsaydim bo'g'ib bittalab.

Tangri bizni turli millat qilib yaratgan,
Rizq ulashib, ahillikda yashang deb aytgan.
Xonlar, beklar taxt talashib, boylik talashib,
Adovatning urug'ini doim taratgan.

Bol tomadi har so‘zidan, qilichidan — qon,
Elim uchun kuyaman der, asli olar jon.
Demokrat niqobini yopinib olib,
Minglab ko‘ngil qal’asini aylaydi vayron.

Ey soddadil qirg‘izlarim, o‘zbek tuvg‘onim,
Sizga tortiq nechta bo‘lsa hamki bu jonim.
Ko‘zni oching,
moy chaynagan makkor yirtqichlar
El beliga egar urgan, so‘rishar qonin.

Oq qalpog‘-u do‘ppi kiygan aziz qardoshlar,
Yo‘l yurmangiz ular birla — jarlikka boshlar.
Ko‘rpa yoqmang achchiq qilib qora burgaga,
Vaqti kelib alamlardan to‘kmang ko‘z yoshlar.

Bu turmushda turli sinov borligi ma’lum,
Biroq do‘stga qasd qiladi kim bo‘lsa mal’un.
Agar shayton yo‘rig‘iga kirib adashsa,
Xudo desin, zora olsa yaxshidan ta’lim.

Qirg‘iz, o‘zbek tog‘a-jiyan bo‘lib o‘sishgan,
Dushman kelsa, uning yo‘lin birga to‘sishgan.
Bir-biringiz kechiringlar,
boshqa yo‘l ham yo‘q,
Endi sira o‘rtangizdan chiqmasin ishkal.

Eng qimmatli boyligimiz qirg‘iz yeridir,
Kim mard bo‘lsa, tashlab ketmay doim uni der.
Tuvg‘onlarim, kechirimli bo‘ling hamisha,
Shu zaminni yashnatish-chun to‘king reza ter.

Olatog‘dan topgan ko‘plar issiq makonin,
Lek unutmang uning qirg‘iz yeri ekanin.
Gohda achchiq gap aytilsa, uymang qovoqni,
Keraklisin olib qolib, yuling tikanin.

Qirg‘iziston — hammamizning katta uyimiz,
Biroq qirg‘iz — uy egasi, shuni bilingiz.
Buzuqilar ergashtirsa, bormang ortidan,
Hamma chigal yechiladi, sabr qilingiz.

Mish-mish gaplar elbuzarning erur quroli,
Nega unga ishonaylik, to‘g‘ri so‘z qolib?
Qo‘lni bering, kuchlarimiz birlashsa agar,
G‘araz degan yov ustidan chiqarmiz g‘olib.

Soqolini ko‘z yosh yuvgan aziz otalar,
Kuyitlardan ozor chekkan mushfiq onalar,
Imonsizning jazosini bersin Xudoyim,
Yurtimizga tinchlik kelsin, tinsin nolalar.

Bo‘ldi endi, yarashmoqqa o‘zni ko‘ndiring,
Qoni qaynoq yigitlarning shashtin so‘ndiring.
Gina-kudurat joy olmasin davramizdan hech,
Zada bo‘lgan ko‘ngillarni nurga to‘ldiring.

Jahl — dushman, aql do‘stdir,
chiqarmang yoddan,
Aqlsizlar egardadir tushsa ham otdan.
Pastroq tushib, belni egib, terlar to‘kaylik,
Hadeb yordam so‘rayvermay takabbur yotdan.

Qirg‘iz xalqi jo‘shib oqqan azim daryodir,
Yo‘lda to‘siq chiqib qolsa surishga qodir.
Chingiz kabi buyuk shaxslar chiqqan bu yurtda,
Endi sira o‘rlamasin go‘dak faryodi.

Sizdan o‘tsa, men kechirdim, o‘zbek tuvg‘onim,
Mendan o‘tsa, siz kechiring, tin olsin jonim.
O‘chakishmay, o‘tgan ishga deylik salavot,
Yarashaylik,
o‘zgarishga qarab turmay jim.

Sabr tagi — sariq oltin, bilib qo‘yaylik,
Do‘stlik qanot ekanligin toshga o‘yaylik.
Og‘zimizdan biror xunuk so‘z chiqib ketsa,
O‘shqirmaylik, qorani ham oqqa bo‘yaylik.

Qirg‘iz yerin o‘zbeklarin rizqi butundir,
Sabab shuki, ishlashadi kun yoki tundir.
Aybimizdan ko‘z yumaylik, qo‘l olishaylik,
Shuning o‘zi bizlar uchun eng yaxshi kundir.

Mening yurtim o‘zbek elin xasmi-haloli,
Menga yo‘qdir uning hech bir zarar, maloli.
Urushtirdi bizni Xudo urgan it-kaslar,
O‘shalarga ursin kuygan elning uvoli.

SALAXIDIN MUSAYEV

BIR TOMCHI QON

Yigit yotar, jarohati og‘irdir,
Qil ustida turar uning saboti.
Yovuz ajal olib ketay deganda,
Bir tomchi qon saqlab qoldi hayotin.

Kelinchakni qiynar to‘lg‘oq azobi,
Ko‘z-ko‘z qilar o‘lim sovuq turqini.
Ko‘z ham yordi...ko‘zin yumay deganda,
Bir tomchi qon saqlab qoldi umrini.

Go‘dak jonsiz, yig‘lar ota-onasi,
Shoshib qolgan hatto mohir doktorlar.
Bir tomchi qon bola umrin qaytardi,
Shukr aytar ota-ona, donorlar.

Bir tomchi qon — umr suvi tuganmas,
Bir tomchi qon ochar hayot eshigin.
Tin olmasdan tebratgani-tebratgan
Olam uzra tiriklikning beshigin.

Bir tomchi qon —
Hayotbaxsh jon!

O‘ROZALI QARASARTOV

O‘rozali Qarasartov Jalolobod viloyat davlat ma’muriyati matbuot kotibi lavozimida ishlaydi. El tinch-osoyishtaligi, o‘zaro totuvlikka da’vat uning she’rlari mag‘zini tashkil etadi.

JALA

Gohida yaxshi she’rni boshlab qo‘yib,
Tugatmasdan yarim yo‘lda tashlab qo‘yib,
Ellikka chiqqanimda sirlarimni
Aytayinmi yuragingni g‘ashlab, o‘yib.

She’rlarimday o‘kinchlidir qismatim,
Ilhom qushin baland uch, deb qistadim,
Qog‘ozlarda qolmasmikin sarg‘ayib,
Shuning uchun uni tongdan istadim.

Chaqmoq chaqib, jala yog‘ib o‘tganday,
Umrim seli ummonlarga yetganday,
Hayotimning mazmunidir she’rlarim,
Bosmas o‘rnin zo‘r bitiklar hech qanday.

BAZARBU MEDETOVA

To'qtag'ul shahrida yashaydi. Qirg'iz she'riyatiga o'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirlarida bir to'lqin bo'lib kirib kelgan shoira qizlarning biri.

"Nima haqda she'rlari yaproqlarning?" degan to'plami orqali elga tanilgan.

CHAQMOQ

(Gulnara Bakiyeva xotirasiga)

Yana keldim, aziz maktabim —
Sochlariga oq tushgan onam.
Lek Gulnara qizing yo'q endi,
Ayriliqdan ko'zlarimda nam.

Yigit borki, sevardi uni,
Husni, aqli arzirdi shunga.
Bizlar bo'lsa bilmasdik tinim,
Yeta olmay bahoda unga.

Butun maktab qilardi havas
Nozik vujud yiqqan g'ayratga.
U bo'lsa-chi, zafar quchardi
Ustozlarni solib hayratga.

Bir zumdayoq to'lardi etak
Paykal to'la oppoq paxtadan.
Ko'zlagani ikki normadir,
Qaytgan nomard lafz, ahdidan.

Chaqmoq yanglig‘ chaqib o‘tdi bir,
Lek tig‘dayin yordi zulmatni.
Fan ummonin yetib tubiga,
Dog‘da qo‘ydi ming bir shuhratni.

Daqiqalar, lahzalar — oltin,
Uqmaganmiz “toldim” deganin.
Bilgan emas hech kim o‘shanda
Gulnaraning tarix ekanin.

NUSKAT MANKUSHEVA

* * *

Xayolimning tub-tubida aylanib,
Tubsizlikka tushib borayotirman.
G‘avg‘o solib qaydan kelding yonar cho‘g‘,
Otashingda kuyib ketayotirman.

Go‘yo yuragimni yulding tanamdan,
Tunimga nogahon qo‘yildi tuzoq.
Shunday bitilganmi taqdir ertagi,
Oshiq dilim kamonni sezgan edi, oh.

Ey, dunyomga ovga chiqib, bahra olgan,
Kamonini qizil cho‘g‘dan o‘qlab olgan,
Bu jonsarak o‘ylarimdan qutqar meni,
Kamoningni tashqariga otgin mergan.

BILSANG AGAR

Bilsang agar, seni kutgim bir umr,
Yurakkinam urib turar seni deb.
Kiprik qoqmay tonglar otar birma-bir,
Bilmam, balki umrim o‘tar yo‘l qarab.

O‘g‘irlaydi kunlarimni fasllar,
Olib uchar, umr qushi sezdirmay.
Taqdirimiz yo‘llari tutash bo‘lsa,
Unda nega ayro yuribsan sezmay?

Bilsang agar izma-iz kelayapman,
Ergashaman ne savdolar bo‘lsa ham.
Sahroyi qum, changalzorlar oralab,
Yo‘l kezaman taqdir ravo ko‘rsa gar.

Qarog‘imda kulimsirab ketmaysan,
Kecholmayman, sira kechib ketmayman.
Taqdir kulib, yo‘l turganda birlashib,
Nega quchoq ochib peshvoz chiqmaysan?

Bilsang agar yuragimni qo‘sh qo‘llab,
Sug‘urib olib qo‘lingga berar edim.
Bilsang agar baxtimiz-chun, azizim,
Qancha bo‘lsa og‘ular ichar edim.

Xayolimda qo‘l ushlashib, sayr etib,
Shunday baxtli qilay dedim dunyoni.
Taqdir kulib, yo‘llarimiz birlashsa,
Aytgil, qanday sevmay qo‘yay men seni.

* * *

Goho kulib, goh yosh to‘kib safarda,
Goho xilvat, goh bo‘laman xatarda.
Bir kun tursam, boshqa kunlar qulayman,
Muddaom uchun qolmay yurib qatorda.

Fursat aldab, hozir o‘ttizda yoshim.
Achchiq-chuchuk ta’mini birday totdim.
Hayotimda qancha-qancha orzular,
Ushalmadi, qanchasini yo‘qotdim.

Yashashimga sabab, qay jon xayrixoh,
Qoqilganim sababi ham bir gumroh.
Biroq chindan qo‘l cho‘zganim ozgina,
Rishtalarni uzaverdim, bu — gunoh.

Ilm istab tinmay kezdim dunyoni,
Vaqt hisobli, topib bir imkonimni.
Yolg‘iz yashab, but ko‘rinay desam gar,
Holim qurib, ezib qo‘ydim jonimni.

Qamchi ursa pishaman-da o‘saman,
Ko‘ngil g‘arib, xayolimni bezayman.
Ruhim uzra izg‘irin qish suroni,
Yozni kutib, tinmay qorlar kurayman.

Ko‘rganim zabt etmoq istar buyukni,
Oqibati o‘lja olmoq kiyikni.
Hayot o‘zi yigiradi, eshadi,
Aylantirib tortaverib ipakni.

* * *

Ko‘rdingmi sen muhabbatning behishtini?
Turnalarning ko‘lga tomon kelishini.
Sen-u menga tanish bo‘lgan bu manzara,
Yuz burgandik ochmay turib eshigini.

Ayro yo‘ldan ikki yoqqa ketdik biz,
Tanlagandik, butun bo‘lib, yitdik biz.
Biri kamdir, to‘lmadi hech dunyosi,
Hech bir ta’mi arzimadi, o‘tdik biz.

Yonib o‘chgan manglaydagi yulduzim,
Armon bo‘ldi, aytolmagan dil so‘zim.
Yomg‘ir, do‘llar yog‘ib bukdi imonim,
Qayta yonmas umrimdagi bir shamim...

* * *

Yo‘rg‘a otin minib chopar sog‘inchi,
Ketar yo‘lim to‘sib qo‘ygan ilinji.

Kutaverib tong otar-u kun bitar,
Umid — hayot, yoshlik fasli mung tushar.

Yurak kuyib butkul cho‘g‘ga aylangan,
Qolgan umrim yolg‘iz senga boylangan.

Bir paytlar sig‘mas edim tor olam,
Endi tordir, tashlolmayman bir qadam.

Kelisholmay, so‘zdan o‘qlar otildi,
Ayamasdan gul bog‘chamga sochildi.

Ko‘nglimdagi ko‘z yetmagan muhitni,
Sening so‘zing qahratondek sovitdi.

Bundan buyon uchrashishga haqqing yo‘q,
Senga atab she’r bituvchi oqin yo‘q...

* * *

Oh, umidning bir uchquni ilinjdir,
Qalbim uzra chalinganday sibizg‘a.
Tuynugingdan tutin chiqib tursa ham,
Charx uraman, shu’la tushgan chiziqda.

Mushtdekkina yurak urar kun-tuni,
Og‘irlashib borar zarbi har tuni.
Qo‘ldan tushib chilparchin singan kabi
Siniqlari tilgan sayin oh uni.

* * *

O‘tli olov qarashingdan yonaman,
Xushim yo‘qdir, ham aqldan tonaman.
Seni ilk bor ko‘rgandayoq “jiz” etgan,
Yuragimda qayta ko‘klam ko‘raman.

Topdim desam kutib yurgan armonim,
Qayta kuyib, jabr-u sitam azobim.
Tun chog‘ida sezmay qoldim shekilli,
Ayt-chi, sevgi, qaysi yo‘lda adashdim.

FATIMA ABDALOVA

1960-yili Bozorqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 1982-yilda Qirg'iziston davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan.

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Ilk she'riy to'plami — "Beshik bog'i" 1989-yili nashr etilgan. "Oy yorug'ida" deb atalgan ikkinchi kitobi Aliqul O'smonov nomidagi mukofotga loyiq ko'rilgan.

NOMARD YIGIT

Nomard yigit sevaman deb aldagach,
Qiz bechora pand yedi bevafodan.
— Homilam bor, oldini ol, — desa qiz,
Yigit dedi: — Voz kech valadzinodan.

— Oldirmayman,
baxtim mening bu murg'ak,
Bola berib, kuzatguvchi Alloh bor.
Xursand bo'lar degan edim men seni,
Bir go'dakka ne odamlar intizor.

Yigit o'tdi endi xiyla yo'liga,
Taklifini rad aylagach o'jar qiz:
— Kechir meni, uyga xabar berayin,
Erta-indin ikkalamiz boramiz.

Ertagayoq chipta olsak poyezdga,
“Qirg‘iziston, qaydasan?” deb jo‘naymiz.
Uch-to‘rt kunda yetib borsak manzilga,
Bishkekda ham bir miriqib tunaymiz.

Sodda qizning chehrasida tabassum,
Yigit xursand quvligi ish bergandan.
Bir kupeda ketar bo‘ldi ikkovlon,
Moskvadan, “Qozon” degan vokzaldan.

Ikkov chiqib joylashishdi kupega,
(Juvon xursand — shu emasmi baxt degan?)
Yigit dedi: — Chanqovbosdi olmabman,
O‘n daqiqa vaqtimiz ham bor ekan.

Shularni deb yigit sirtga jo‘nadi,
Qiz beparvo, ishonib bu kofirga.
Xash-pash demay poyezd jila boshladi,
Ishonmadi qiz teskari taqdirga.

U vagonning oynasiga tikilib,
Hozir uchib kirgay dedi yigitni.
Eh, qayoqda... yigit qizdan qutuldi,
Poyezd chunon tezlashishga kirishdi.
Qiz yuragi tilindi...

Qayg‘urmagin, Olatovga borasan,
Oynimi yo Kunni tug‘ib olasan.
Oldirmagin, voz kechmagin bolangdan,
Unday qilsang, sho‘ring qurib qolasan.

Poyezd bilan Olatovga qiz ketdi,
Qiz qornida Tangri bergan sir ketdi.
Endi takror adashmasin bu juvon,
Vujudida Oymikin yo Kun ketdi?..

PULZAMONGA QULZAMON

Nasli rasvo otga ham
Oltin egar to‘qishdi.
Arzimagan itga ham
Tilla to‘qa taqishdi.

Nomus uchun kurashganni
Bandi qilib boylashdi.
Oqni qora deguvchini
Qozi qilib saylashdi.

Bitar ishning barchasi
Pulga borib boylandi.
Yaxshi-yomon ishlarda
Pul najotga aylandi.

“She’r o‘qiging kelsa gar,
Uzat bizga pulingdan.
Himmatingni ayama
Tole degan qulingdan”.

Pul bermayman,
dedim men,
Biznesmen deb o‘ylama.
O‘z she’rimga pul berish...
Bunday so‘zni so‘ylama.

Tushun ijod zahmatin,
She’r pul bilan o‘lchanmas.
Satrlarim — dil qoni,
Ular oddiy siyohmas.

She'rim — el muammosi,
She'rim — elning quvonchi,
She'rim — yurak so'zlari,
Ruhiyatning tayanchi.

Ochko'zlarning nafsi-chun,
Mayli, o'zim pul berdim.
Shoir nechun uyalmay
Teleng uchun pul bersin?

She'rlarni men shunchaki
Aqlim bilan yozmadim.
Tongda ilhom kelarda
Bir qush meni aylanib,
Qolishini payqadim.

Shuning-chun men telengga
Uncha muhtoj emasman.
She'rlarimni, she'r bergan —
Tangriligin sezaman.

Aqcha berib telengga
Chiqolmaysan, birodar.
Muqaddas nur She'r degan,
Ularning egasi bor...

Shoirlardan pul so'rash —
Shoir uchun haqorat.
Shoir ahlin xor qilish,
Bu — ashaddiy jaholat.

Adabiyot — o'lkamda
Ma'naviyat posboni.
Yetmas uning qadriga
Bugungi pul zamoni.

TALANTBEK MONGOLBAYEV

Shoir, publitsist, satirik adib. 1961-yili O'sh viloyatining Qora-g'ulja tumanida tug'ilgan.

1985-yili Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan.

1985–1986-yillarda Qirg'iziston telegraf agentligi muxbiri, so'ng O'sh viloyatining "Osh jangirig'i" gazetasida muxbir, bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. Hozirda shu gazetaning bosh muharriri.

OQBURA

Xayolimni doim tortasan,
Oqbura, elga ardoqsan.
Chiroyli qizni suyganday
Suyuklisan har choqsan.

Hoy, Oqbura, Oqbura!
Sig'inamiz bu suvga.
Ulashgan zilol suvi
Tumor bo'lar suluvga.

Mo'lturqashqa shovvangdan,
Qiz kulgusi quyilar.
Sevishganlar tamshangan
Toza sevgi tuyular.

Sharqiragan to'lqinlar,
Shodon yoshlik kuyiday.
Shahar ko'rki Oqbura—
Dilbar qizning o'yiday.

O‘SHPIRIM

Qadimdan qadri baland, eli qutli,
O‘shpirim — omadi bor, yeri suluv.
Oqbura, Sulaymontog‘ — dami kuchli,
Mehmondo‘st xalqimizning so‘zi iliq.
Sharq-G‘arbni bog‘lagan Ipak yo‘li —
O‘sh orqali o‘tganining o‘zi ulug‘.

O‘sh shahriday menga suyuk shahar yo‘qdir,
O‘shpirim hech kim bilmas sirlarimday.
Baraka, mevalarga boy, to‘liqdir,
O‘sh shahri — jannat bog‘i-to‘rlariday.

O‘sh ulug‘ — nazar solgan payg‘ambarlar,
Ayniqsa ulug‘ hazrat Sulaymon bor.
Shahar ko‘rki —
Sulaymontog‘ — ziyoratgoh,
Ikkinchi Makkadir, el ko‘rishga zor.

Muborak O‘sh zaminin Xizr qo‘llab,
Boshqarishgan ko‘pmillatli xon-u dodxoh.

Sulaymontog‘ — O‘shimning yuragiday,
Oqburamiz — shaharning keragiday.
Kermatog‘ — botgan Quyosh tunagiday,
Oq tolasi — paxtazor chirog‘iday.

O‘sh shahrim — eng qadimgi shaharlardan,
O‘ttiz asr tarixi bor azallardan.
Qutlug‘ yer, barakaning koni deya,
Gap qolgan otalardan, bobolardan.

O‘shpirim, muqaddasim, or-nomusli,
Imonli el — dili tozalardan.

O‘sh shahrim — qutlug‘ zamin merosiday,
Do‘stlikning, ko‘p millatning davrasiday.
Tabiiy go‘zallikning makoni u,
O‘shpirim shon-shavkati ana shunday.

ALIQULGA

Xalqingga xayolingni baxsh aylabon,
Rangi so‘lmas guldastlar qoldiribsan.
Olam bo‘ylab qizg‘ish chiziq chizib o‘tgan
Yarq etgan chaqmoqli qaldiroqsan.

Toliqmas lochin eding samodagi,
Yuksalib teran o‘yda borayotgan.
Doimo davo izlab asil jonga,
Olishib ajal bilan — ko‘zing qotgan...

Og‘riqqa bosh egmagan oqin eding,
Qaniydi bu dunyoga qayta kelsang.
Aytilmay qolib ketgan she’rlaringni,
Eh attang, yana bir aytib bersang!

SOG‘INCH

Yiroqda seni eslab, eslayverib,
Sog‘inching xayolimdan ketmas bo‘ldi.
Intizor o‘ylarimga xayol kelib,
Ko‘ngilning tub-tubiga butkul to‘ldi.

Ko‘rganda sening tushgan suratingni,
O‘zingdan ololmayman hech ko‘zimni.
Jilmaygan ul sirli holatingdan,
Eshitgim kelaverar dil so‘zingni.

Olislik toliqtirar shuurimni,
Sog‘inch ham qamrab oldi butun ongni.
O‘zing ham eslarsanmi bizning kunni,
Beqiyos, unutilmas o‘sha tongni?

Sog‘inchim kuchayadi borgan sari,
Yursam ham, o‘tirsam ham ... yodimdasan.
Yoding-chi, yuragimda but saqlanib,
Xayolan yolg‘iz o‘zing yonimdasan...

O‘SHPIRIM

Qadimdan qadri baland, eli qutli,
O‘shpirim — omadi bor, yeri suluv.
Oqbura, Sulaymontog‘ — dami kuchli,
Mehmondo‘st xalqimizning so‘zi iliq.
Sharq-G‘arbni bog‘lagan Ipak yo‘li —
O‘sh orqali o‘tganining o‘zi ulug‘.

O‘sh shahriday menga suyuk shahar yo‘qdir,
O‘shpirim hech kim bilmas sirlarimday.
Baraka, mevalarga boy, to‘liqdir,
O‘sh shahri — jannat bog‘i-to‘rlariday.

O‘sh ulug‘ — nazar solgan payg‘ambarlar,
Ayniqsa ulug‘ hazrat Sulaymon bor.
Shahar ko‘rki —
Sulaymontog‘ — ziyoratgoh,
Ikkinchi Makkadir, el ko‘rishga zor.

Muborak O‘sh zaminin Xizr qo‘llab,
Boshqarishgan ko‘pmillatli xon-u dodxoh.

Sulaymontog‘ — O‘shimning yuragiday,
Oqburamiz — shaharning keragiday.
Kermatog‘ — botgan Quyosh tunagiday,
Oq tolasi — paxtazor chirog‘iday.

O‘sh shahrim — eng qadimgi shaharlardan,
O‘ttiz asr tarixi bor azallardan.
Qutlug‘ yer, barakaning koni deya,
Gap qolgan otalardan, bobolardan.

O‘shpirim, muqaddasim, or-nomusli,
Imonli el — dili tozalardan.

O‘sh shahrim — qutlug‘ zamin merosiday,
Do‘stlikning, ko‘p millatning davrasiday.
Tabiiy go‘zallikning makoni u,
O‘shpirim shon-shavkati ana shunday.

MEZGIL ISATOV

Issiqko'l viloyatining Jetio'giz tumanida 1969-yili tug'ilgan. Qirg'iziston davlat universitetining filologiya va jurnalistika fakultetini bitirgan.

Milliy teleradiokompaniyada ishlagan. "Tungi zulmat", "Izlarni topish" va boshqa kitoblari nashr etilgan.

* * *

Ikki ko'zim —
Ikki dunyo...
Ikki ayro yo'lday,
Kechmishim va kelajagimday,
Uchrashmaydi, yaqin yo'lamas,
Bir-birini ko'rmas hech qachon.

Ikki ko'zim —
Bugun ila ertagi kunday,
Ikkimizday...
Bir so'z demay,
Yo'l oladi ikki tomonga.

Yolg'izlik...
Ikki ko'zim —
Quvonchim va g'ussam singari,
Kunduzim va kechamga o'xshab,
Keladi, ketadi!

Ikki ko'zim ...
Ikki yo'lim ...
Bir hayotim ...
Bir mamotim ...

* * *

Tonggi dengiz, tungi g‘ussam
Qumda qoldi.
Singib ketdi sohibsiz so‘zlar.
Mudroq to‘lqinlar,
Uyg‘onmagan o‘ylarim...
Qumursqalar suv ichgani keldi
Dengizning tushidan chiqa olmay
Sensiz...

Yashamasdan qo‘ydim hayotni,
Noqis sanab o‘tgan umrimni,
Keksardi muhabbatim.
Sholg‘om ham o‘z ildizidan yasaydi haykal,
Uzun ayriliq
Ikkimizni ajratib turgan
Ikkimizday...
Boqib turar
Bir kam dunyo!

* * *

Sukunat bilan ikkimiz xonada yolg‘iz
O‘ltiramiz... xayolga botib,
Tiriklik ham iliq-issiq.
Ikki xona, ikki ko‘zim,
Ikki boshqa...
Sohibi yo‘q turmushimda...
O‘zim yolg‘iz borayotib,
Hech qayerda... hech qayerdan
Ikkimiz o‘kinmagan bir joy topmasman!

Umrimni
har sahifasi qayta-qayta varaqlangan,
Daftarimga solib yopdim.
Yoshligimni...
Eshigimni...
Yuragimni...
Ichidan ilib qo‘ydim!

* * *

Eski kulba,
Ikki deraza, ikki ko‘zim.
Yo‘lovchiday yo‘l bo‘yi
Taqdirimni kuzataman ich va tashimdan...

Eski kulbam ko‘zim o‘ngida,
Yodimda...
Chirog‘larim, yaxshilarim,
Kechiring...

Mo‘jiza kutaverib,
Mo‘jizaday yaqinlarim
Ketishibdi sezdirmay...

Botinda ishq bo‘lsa yashaymiz.
Yuraklarda,
Eski kulbamizda —
Ikki deraza.
Ikki dunyoda —
Bir eshik...

* * *

Behuda urinma, ikki boshqa uydagi
Ikkimizni eslama...
Burchakdagi unutilgan buyumday
Yaroqsiz sevgimdan
Hatto xotira qolmadi.

Ilinjim, ko‘z tikma,
O‘tgan kunlarni singan ko‘zgu kabi
Biriktirib ulay olmasman...

Chumchuqday xayollarim,
Haqiqatlarim,
Chirqirab chiqib ketdi,
Uchib ketdi!

RISGUL IZZATOVA

1994-yilda tug'ilgan. Atoqli adib Chingiz Aytmatovning to'qson yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Eng yaxshi she'rlar" tanlovida birinchi o'rinni egallagan.

NOUMID

Derazadan yuzga tushar kun nuri,
Kipriklardan qushdek uyqu uchdi jim.
"Harir tongni qanday qarshi oldi?", deb,
Ko'z ochdim-u, darrov sizni o'yladim.
Mayda-chuyda tashvishlardan chekib g'am,
Bilmam, balki solib turgansiz qovoq.
Bitmay qolgan yumushlar deb, muhtaram,
Uyg'ongansiz har kungidek ertaroq.
Sog'inch mening ko'ksimni qon aylagan,
Yuk bosadi yuragimga to'lib mung.
Qadar tutsa taqdirimning jilovin,
Yoningizga yeldek yelib borardim.
Aylanasiz in izlagan qushdek mast
Va sezasiz bedor tunlar to'lg'onib.
Hayot to'xtab qolmaguncha ish bitmas:
"Uchrashaylik", deb qo'ysangiz bo'lgani...

UNUTILGAN UZR

Ishq izmida lovullaydi yurakkinam,
Hislarimni payhon etar, ko‘zlarim nam.
Undan ko‘ngil uzolmayman, mubtaloman,
Yolg‘onchi yor o‘zgani deb, o‘rtansa ham.
Horitadi ruhimni yor ozorlari,
Bir boqmadi o‘ksik dilim yupatgali.
Yolg‘on deya, yoriladi so‘zlar bir kun,
Jazolaydi qog‘ozdagi she’rlar hali.
Yo‘l oxiri ko‘rinmadi, ko‘nglim, oh ur,
Yashayapman, bulutlardek sochib yomg‘ir.
So‘zlar, meni afv etinglar, kechiringlar,
Men yorimni unutolmay ruhim og‘rir...

ISMATILLA PARPIYEV

O‘ZBEKISTON

(Is’hoq Razzoqov tilidan)

O, qardosh yurt, qo‘shni O‘zbekistonim,
O‘z diydorim, o‘z jigarim, o‘z jonim!
O‘z onamdek jon mehringga belading,
Senda o‘sdi oz bo‘lsa ham yosh chog‘im.

Qimmat menga dalalaring, bog‘-rog‘ing,
Gul burkagan shaharlaring, qishlog‘ing.
Dono so‘zin bisyor aytar otalar,
Bahor gulidek yarqirar yoshlaring.

Oq oltinli paxtazoring miltirar,
Ulkan mehnat, tinchlik tug‘i hilpirar.
Yuzi uzum, tili anjir qizlaring —
Yurak qurgur chiday olmay qaltirar.

O‘rta Osiyo sahnida donglisan,
Talay yerga dong‘i ketgan shonlisan.
Ozodlikda qadamin keng tashlagan,
Or-nomusli, mehnatkash, insoflisan!

Qancha ellar do‘st yashar, bir — o‘ylari,
Yonboshingda qoraqalpoq kuylari.
Quchog‘ingga sig‘mas boylik yaratgan,
Olatog‘dan oqib borgan suvlarim!

Buxoro-yu Xiva hamda Samarqand,
Ne o‘tmishning sirin teran yashirar.
Andijon-u ulug‘ Toshkent, Farg‘onang,
Olam uqib, atog‘idan lol qolar.

Ming bir ohang chertar qo‘sh qil dutoring,
Titratgancha nozik yurak qillarin.
Har bir uning — qayg‘uli, shod ohangli,
Kuylar go‘yo o‘tgan zamon yillarin.

O, qahramon xalqim O‘zbekistonim,
Ulkan G‘alabangga nisor bu jonim.
Oy, Quyoshga qo‘ling yetar davrda,
Aytib bitmas, yozib bitmas dostonim!

MUNDARIJA

Zamonaviy qirg'iz she'riyati va uning vakillari ijodi haqida *(Zuhriddin Isomiddinov)* 3

Tosh Miyashev. *Muhammadsoli Ismoilov tarjimasi* 7

Boydilda Sarno'g'ayev. *O'smon Temur, Ulug'bek Abdusalomov tarjimalari* 8

Qarmishoq Toshboyev. *Tursunboy Adashboyev, Qurbon Sattor, Avliyoxon Eshon tarjimalari* 46

Solijon Jigitov. *Qurbon Sattor, Zuhriddin Isomiddinov tarjimalari* 52

Mayramxon Abilqosimova. *Shahriyor tarjimasi* 65

Jo'lo'n Mamitov. *Avliyoxon Eshon, Qurbon Sattor tarjimalari* 68

Turar Qo'jo'mberdiyev. *Shahriyor tarjimasi* 79

Mengdi Mamazoirova. *O'smon Temur tarjimasi* 85

Nodirbek Alimbekov. *Tursunboy Adashboyev, O'smon Temur, Olloyor, Zuhriddin Isomiddinov tarjimalari* 90

Anatay O'murqanov. *Qurbon Sattor tarjimasi* 153

Abdurashid Urbayev. *Qurbon Sattor, Muhammadsoli Ismoilov tarjimalari* 157

Almash Choybekova. *Botirjon G'oziboyev tarjimasi* 166

Tozagul Zokirova. *Qurbon Sattor tarjimasi* *167*

Nu'mon Sa'diy. *Avliyoxon Eshon tarjimasi* 172

Asan Jaqshiliqov. *Qurbon Sattor tarjimasi* 175

Shaylo'o'bek Duysheyev. *Qurbon Sattor tarjimasi* 180

Jengishgul O'zubekova. *Qurbon Sattor tarjimasi* 184

Abdujabbor Egamberdiyev. *Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi* 188

To'rabay Jo'ro'yev. *Muhammadsoli Ulug'bek tarjimasi* 191

Marqabay Aamatov.
Dilorom Abdurahmon qizi, Rahim Karim tarjimalari 204

Akbar Risqul. *Ahmadjon Meliboyev va*
Sirojiddin Rauf tarjimalari 222

Abdilaat Dourov. *Avliyoxon Eshon tarjimalari* 234

Ataqul Jaqipov. *Avliyoxon Eshon tarjimalari* 239

AbdurahmonAlimboyev. *Shahriyor tarjimalari* 244

Zinaqan Pasanova. *Muhammadamin Hojakbarov tarjimasi* 246

Burulqan Qarag'ulova. *Shahriyor tarjimasi* 250

Qanishay Abdibaliyeva. *Shahriyor tarjimasi* 253

Erkali O'sko'nali. *Shahriyor tarjimasi* *255*

Nurali Abdiraxmanov. *Qurbon Sattor tarjimasi* 257

Jipar Aqunova. *Muhammadsoli Ismoilov tarjimasi* 263

Burulqan Sarig'ulova. *Gulnora Xolmatova tarjimasi* 272

Samidin Stambekov. *Qurbon Sattor tarjimasi* 279

Xo'jageldi Kultegin. *Gulnora Xolmatova tarjimasi* 284

Jildiz Alisherova. *Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi* 290

Qunduzbu Mamatova. *Mo'ydinjon Abdumajidov,*
Dilorom Abdurahmon qizi tarjimalari 291

Nurjamal Sultanbekova. *Mo'ydinjon Abdumajidov tarjimasi* 300

Nurlan Qalibekov. *Muhammad Siddiq Rahmatov tarjimasi* 301

Berdibek Jamg'irchiyev. *Faxriddin Hayit tarjimasi* *306*

Qadirbek Sulenov. *Botirjon G'oziboyev tarjimasi* 308

Salaxidin Musayev. *Botirjon G'oziboyev tarjimasi* 312

O'rozali Qarasartov. *Botirjon G'oziboyev tarjimasi* 313

Bazarbu Medetova. *Botirjon G'oziboyev tarjimasi* 314

Nuskat Mankusheva. *Dilorom Abdurahmon qizi tarjimasi* 316

Fatima Abdalova. *Qurbon Sattor tarjimasi* 322

Talantbek Mongolbayev. *Muhammadsoli Ismoilov tarjimasi* 327

Mezgil Isatov. *Avliyoxon Eshon tarjimalari* 332

Risgul Izzatova. *Faxriddin Hayit tarjimasi* 337

Ismatilla Parpiyev *Rahim Karim tarjimasi* 339

Q 46 Qirg‘iz zamonaviy she’riyati antologiyasi [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 344 b.
ISBN 978-9943-8571-6-2

UO‘K 821.512.154-1
KBK 84(5Qir)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI

89-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Anvar Zulpixarov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 21,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,05
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 155-1/22 Buyurtma raqami № 22-372

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QIRG‘IZ ZAMONAVIY SHE’RIYATI ANTOLOGIYASI